



2023-yil. 1-son.

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Я** ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Электронный журнал

**L**ANGUAGE AND LITERATURE  
**TEACHING** | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



2023-yil  
1  
son

«Til va adabiyot ta'limi»  
«Преподавание языка и литературы»  
«Language and literature teaching»

ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

**Bosh muharrir**

Bahodir JOVLIYEV

**Tahrir hay'ati:**

Baxtiyor Saidov  
Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Nargiza Rahmonqulova  
Yorqinjon Odilov  
Nasirullo Mirkurbanov  
Jabbor Eshonqulov  
Valijon Qodirov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
Tolib Enazarov  
To'liqin Saydaliyev  
Ravshan Jomonov  
Zulxumor Mirzayeva  
Qozoqboq Yo'ldoshev  
Tajixon Sabitova  
Salima Jumayeva  
Nilufar Namozova  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulkayrov  
Lutfullo Jo'rayev  
(bosh muharrir o'rinbosari)

Alijon Safarov (elektron nashr uchun)  
Madina Nuriddinova (elektron nashr uchun)  
Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)  
Barno Kadirova (elektron nashr uchun)

**Muharrirlar:**

Nilufar Namozova  
Nigora Uralova  
Emma Torosyan  
Nargis Bobodjanova

**Sahifalovchilar:**

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

**Tahririyat manzili:**

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

**M U N D A R I J A**

**TAHLIL**

<b>Shodiya A'zamova.</b> "Shaytonning Tangriga isyoni" asarining tahlil va talqini .....	2
<b>Xasan Gafforov.</b> Gender lingvistikasining dolzarb muammolari .....	4
<b>Zebo Umarova.</b> Zamonaviy tilshunoslikda xalqaro turizm terminologiyasidagi innovatsiyalar .....	6
<b>Manzar Abdulkayrov.</b> Navoiy asarlaridagi shakldoshlik hosil qiluvchi so'zlar tahlili .....	8
<b>Ravshan Niyozov.</b> Jon Grishamning "Qotillik payti" asaridagi zamon va ijtimoiy munosabatlar kategoriyasining badiiy talqini .....	9
<b>Darmonoy O'rayeva, Dilorom Jo'rayeva.</b> Anbar Otin ijodida gender tenglik talqini .....	10
<b>Sadoqat Mamajonova.</b> Navoiy dahosini anglash .....	12
<b>Maftuna Xalova.</b> Ayollar she'riyatida davr va janr poetikasi .....	14

**TILSHUNOSLIK**

<b>Elena Surmilova.</b> Feminization of the english language in modern social context .....	16
---	----

**TADQIQOT**

<b>Yo'ldosh Rahmatov.</b> Xalq maqollari va obrazli tafakkur .....	18
<b>Nodira Mirhaydarova.</b> Rus tilidagi "Духовность" umumiy semali leksemalarning o'zbek tiliga tarjimai .....	21
<b>Murotali Latipov.</b> Is'hoqxon Ibrat asarlari leksikasida o'zlashma qatlam so'zlar va davr neologizmlari .....	24
<b>Raxmatulla Norbekov.</b> So'z san'atini maktabda germeneytik mezonlar bilan o'rganish .....	27
<b>Mansurbek Masharipov.</b> Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida arabcha o'zlashma sinonim birliklar .....	30
<b>Farrux Yuldashev.</b> Lingvoma'naviyatshunoslik: lingvokulturologiya va aksiolingvistikaga munosabat .....	33
<b>Ra'no Ashurova.</b> Système ponctuel français: historique et état actuel .....	36
<b>To'xtamurod Rajabov.</b> Badiiy ko'chim vositasida yangi ma'no hosil qilish shakllari .....	38
<b>Madina Rashidova.</b> So'z-gaplar tasnifi .....	40
<b>Sardor Sherkulov.</b> U.Folknerning "Shovqin va g'azab" romanida obraz tipologiyasi va nuqtayi nazarlar xilma xilligi .....	43
<b>Saodat Muminova.</b> Bobur ma'naviy-intellektual yetuk shaxs.....	45
<b>Norbek Yunusov.</b> Ingliz va o'zbek tillarida fe'l-avtor ifodalovchi sifatlarning lingvistik tavsifi haqida .....	47
<b>Gulnora Ergasheva.</b> Teaching english in preschool institutions .....	50
<b>Gulsanam Sanayeva, Mirshod Abdurahmonov.</b> Ingliz tili fanini o'zlashtirishda tinglab tushunish topshiriqlarning ahamiyati .....	53
<b>Ma'sud Jabborov.</b> Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadriyatidir .....	54
<b>Mohigul Alimardonova.</b> Beshinchi sinf ona tili mashg'ulotlari uchun berilgan mashqlar doirasida o'qib tushunish metodlari .....	55
<b>Nafisa Obidova.</b> Hikoyada badiiy-psixologik kechinma tasviri .....	57
<b>Dildora Omonova.</b> O'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari .....	59
<b>Zarina Saylijeva.</b> Ibrohim Haqqulning fikr aytish mahorati .....	62
<b>Dilora Sidiqova.</b> Masofaviy ta'lim tushunchasi va uning ahamiyati .....	64
<b>Gulbahor Hasanova.</b> Mumtoz asarlarni o'qitishda muammolar tahlili .....	66
<b>Feruz Matenova, Djamilya Abduganiyeva.</b> Types of translation and its main classifications .....	68
<b>Zebiniso Bekmuradova.</b> Xiazm va takror figuralar .....	70
<b>Tumaris Kabulova.</b> The problem of identity in the american literature of post second war period .....	72

**ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

<b>Лю Синь.</b> Названия свадебных салонов как лингвистический источник .....	74
---	----

**ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

<b>Раъно Казакова.</b> О первых переводах «Бабур-наме» на русский и другие языки .....	76
<b>Диана Абдураманова.</b> Эпос и роман: явление жанровой модификации .....	78

**ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ**

<b>Рано Батырова.</b> Методика преподавания литературы на основе современных методов обучения.....	80
<b>Ситора Ашурова.</b> Важность интерактивных занятий в классе при обучении иностранному языку.....	81

**ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ**

<b>Барно Саурова.</b> Несколько слов о фольклоре и фольклоризации литературного языка .....	83
---	----

**Shodiya A'zamova**  
*ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti*

## “SHAYTONNING TANGRIGA ISYONI” ASARINING TAHLIL VA TALQINI

Hayotning, adabiyotning Fitrat va uning ijodiga bag'ishlangan sahifalariga ko'z yugurtirar ekanmiz, bu ijodkorning mahorati turli yo'nalishlarda namoyon bo'lishiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Fitrat dramaturg sifatida ham o'ndan ortiq asarlar yaratgan. U yozgan dramalari orasida “Shaytonning Tangriga isyoni” asari ham chuqur mazmun-mohiyatga ega va til xususiyatlari jihatidan o'rganishga arziydir.

“Shaytonning Tangriga isyoni” Fitratning Moskvadalik chog'ida (1924-yilda) yaratilgan bo'lib, O'rta Osiyo Davlat nashriyotida o'zbek tilida nashr etilgan. Hozirda dramaning toshbosma matni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Qo'lyozmalar instituti fondida 21056 inventar raqam bilan saqlanadi [1].

Asar 1967-yilda adibning “Qiyomat” nomli xayoliy hikoyasi bilan birgalikda Toshkentda qayta chop etilgan [2].

Asar haqidagi dastlabki maqola Hamid Olimjon qalamiga mansub bo'lib, “Fitratning adabiy ijodi haqida” deb nomlanadi. Ishda drama mavjud mafkura nuqtayinazaridan, vulgar sotsiologik asosda talqin qilinadi.

Filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimov Fitrat hayoti va ijodining o'rganilishi yuzasidan katta ishlar qilgan olimlardandir. Uning “Maslakdoshlar” nomli kitobida Fitrat ijodi va yaratgan dramalariga keng to'xtalib o'tilishi barobarida, “Shaytonning Tangriga isyoni” asarida ham Turkistonning XX asr boshlaridagi ahvoli badiiy ifodasini topgan, degan fikrlar mavjud.

Ingliz tadqiqotchisi Edvart Olvorsning “Evading reality” (“Haqiqatdan qochish”) kitobida Fitratning bir qancha asarlari tahlil qilinib, asl matnlari bilan birgalikda (“Shaytonning Tangriga isyoni”, “Bedil”, “Qiyomat”) nashr etiladi [3]. Kitobning 7-bobi “Devil's advocate” (“Shaytonning himoyachisi”), 8-bobi “Satan's mutiny against the lord” (“Shaytonning Tangriga isyoni”) nomi ostida ushbu asarga bag'ishlanganini ko'ramiz. Olim asarga turli jabhalardan baho bergan, uni she'riy yo'sinda, o'ziga xos ohangdorlik bilan, takroriy misralar uyg'unligida, ma'lum ziyoli jamoagina tushunishi mumkin bo'lgan, ya'ni barcha sovet kishisi ham anglab yetolmaydigan kinoyalari mavjud poetik drama sifatida baholaydi. Fitrat shu asari mohiyatida xurofotga qarshi chiqadi, deydi.

Illom G'aniyevning “Fitrat dramalari poetikasi” nomli dissertatsiyasida esa asar asosan, janr xususiyati jihatidan tahlil qilinib, tragediya sifatida baholangan. Xususan, dramaga “dramatizmning tragizmga tomon o'sib borishi”, “tarix g'ildiragini orqaga surishga harakat qilgan, hayotning muqarrar amalga oshajak qonuni-

yatlariga qarshi bormoqchi bo'lgan shayton fojiasining, halokatining badiiy ifodasidir” deya ta'rif berilgan.

Asar Olmoniyalik fitratshunos olim Ingeborg Baldauf tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, asl matni bilan ketma-ketlikda 1987-yilda Germaniyaning Bamberg shahrida o'tkazilgan xalqaro turkologiya kongressiga taqdim qilingan va bu materiallar 1991-yilda Viesbaden shahrida nashrdan chiqqan. Olimaning jadidlar faoliyatiga bag'ishlangan bir turkum maqolalari, fikr-mulohazalari 2001-yilda “XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar” nomi bilan nashr etilgan. Mazkur kitobdan “Abdurauf Fitrat: Shaytonning Tangriga isyoni” nomli maqolasi ham joy olgan [4]. Unda yozilishicha, asar turli rakurslarda tahlil qilingan. Bu tahlillar asosli, teran mushohada bilan yozilgani holda, drama bir qarashda, “xudosizlik adabiyoti”ning haddi a'losidagi asar” sifatida, muallif esa go'yo ateist adabiyotining yorqin vakili sifatida talqin etiladi. Holbuki, olim shu maqolaning o'zida “Munozara”ni yozganida, ruhoniylarga qanchalar tosh otmasin, islomning haddi-hududidan chiqmagan islohotchi edi”, – deydi. Ingeborg Baldauf o'zining bu gapiga Fitratning fikrlari “Shaytonning Tangriga isyoni” asari yozilguniga qadar “yukalishiga”, uning Turkiya va Rossiyada Usmonli hamda Ovro'pa falsafiy g'oyaviy qarashlari bilan tanishgani sabab bo'lgan, deb yechim beradi.

Maqolada aytilishicha, til yangilanishi, yangi so'zlar qurilishi borasida ham Fitrat ustunlik ko'rsatadi, hamмага ergashmaydi. Quyida olimaning tahlilicha, Fitratning mazmunan bir xil ma'noni anglatuvchi uch so'zni (“mudarris” – “muallim” – “o'qituvchi”) [5] vaziyat va vazifalar o'zgariganda uch xil yo'sinda qo'llashi keltirilgan: Asar boshidagi izohlarda Shayton malaklarning mudarrisi sifatida tanishtiriladi, Oллоh ishiga bir qancha e'tirozlaridan so'ng, o'z tilida “Men bularning muallimi, yo'lchisi, Adashg'anning, yiqilg'anning qo'lchisi” (“Muallim” asosan jadid maktablarida qo'llangan), – deydi, pyesa oxirida esa Tangri (“Nido”) bandalarini Shaytondan ogohlantirmoqchi bo'lib, uni “o'qituvchi” deb, qilgan ishlarini qoralaydi. (“O'qituvchi” yaqin tarixda inqilobchi o'qituvchilarga nisbatan ishlatilib, aksar mazmunda haqorat tushunchasini namoyon qilgan) Bir qarashda shunchaki qo'llangan bu so'zlar, o'zlarida kinoya aralash, keng izohlar yukini ortib olgandek ko'rinadi. Fikrimizcha, ularda Turkiston o'lkasining o'tmishi, buguni va kelajagi ramzlari mavjud.

Asar oxirida Shaytonning Xudoga: “*Chunki bilim senga tutash dushmanidir, Hikmating bor, uni o'zing, kel qondir*”, – degani tahlil qilinib, “bilim”ga “ma'rifat”, “maorif”, “irfon” va umuman “hikmat” tushunchalari zid

qo'yilgan. Unga ko'ra "bilim" zamonaviylik bilan ajralib turadi va u tengsiz. "Hikmat" esa soxta, tagiga yetish mushkul bo'lgan ma'rifat. O'z tahlilimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, demak, „Hikmat“ insonlardagi ilm olish istagi, asrlar davomida qorong'ulikda huvillagan tizim – ta'lim tizimi. Mubolag'a bilan aytsak, „Bilim“ bulog'i bilan qondirilmagan bir bog'. Unga ayni mana shu hayot suvi kerak. XVIII–XIX asrlarda Turkistondagi ta'lim tizimida asrlar davomida o'zini oqlab kelgan madrasalarning ayrimlari faoliyati insonlarning to'la-to'kis bilim olmasligi, toliblarning 37 yoshdagina xatmi ta'limga erishishi, shunda ham ma'lum asarlarning debochasidan ortmagani, oila qura olmagani, moddiy tangligi, umuman jamiyat yaratgan qonunlarga o'ralashib qolgan bilan xarakterlanar edi (Fitratning „Munozara“ asari to'laligicha shu mavzuga, ya'ni yangi usul maktablari va madrasalar faoliyati munozaralariga bag'ishlangandir). Kasbi ustoz bo'lgan Shaytonning asar boshidan isyonkor chiqishida Fitratning zamon ziyolisiga ishorasi, „Uyg'oningiz, butun dunyo yo'qsullari“ degan hayqirig'i seziladi. Asarda Shayton tilidan „Tangri meni topindirdi o'ziga, tushuntirmay ergashtirdi so'ziga, Bag'ishladi bir kirlil toj, bir tayoq, bilmay oldim, bunlar emishlar tuzoq“ deb aytilganda, fayzli madrasalarni johillikka burkagan soxta mudarrislar, boshidagi baland sallasi va „tarbiya tayog'i“ qo'lida bo'lgan „ustozlar“ siymosi ko'z oldimizga kelsa, ham ajab emas.

Adabiyotshunos Bahodir Karimning „Ingeborg Baldauf aytadiki“ [6] nomli maqolasi olmoncha mushohada va tahlilning tarjimoni bo'ladi desak, adashmaymiz. Bahodir Karim Begali Qosimovning „Fitrat“ maqolasida [7] „... aynan shu dramatik dostonida ateistik ohanglarni ko'ruvchi ayrim tadqiqotchilar fikrini ma'qul topmagan“ini, „chunki Fitratning hayoti ham, faoliyati ham bunday deyishga imkon bermaydi. U dinga emas, aksincha dinsizlikka, imonsizlikka, e'tiqodsizlikka qarshi“ degan fikrlarini qo'llaydi. Xususan, olim shunday deydi: „Ingeborg Baldauf qarashlarida o'zbek adabiyotshunoslari fikrlariga yaqin va farqli jihatlar bor. Yaqin tarafi shundaki, u o'z baho mezonlarida sof ateistik mavqeda turib, asar g'oyaviy yo'nalishini ijtimoiy voqealar silsilasiga bog'laydi. Muallifga ateistlarning peshqadamlari sifatida o'rin berishni istaydi. Lekin olima istagidan farqli tarzda Fitrat „tor qarashli ateist“ bo'lib chiqadi... „sotsializm ishi“ga xizmat etganligi, diniy aqidalar

ustidan kulganligi, qarashlari tobora kengayib „Vladimir Lenin ta'limotining mohiyatini tushuna borganligi“ e'tirof etiladi“ [8]. Ya'ni birgina Baldauf emas, balki ko'pgina olimlar shunday fikrda bo'lgan ekan.

Olmoniyalik olimaning Fitratning ushbu ijod mahsuliga „ekzistensializm mevasi“ bahosini berishiga Bahodir Karim xuddi „oddiy misralardan ham tasavvuf falsafasini izlash“ deb ta'rif beradi (*ekzistensializm lot. existentia — yashash, mavjudlik, mavjudlik falsafasi — falsafadagi yo'nalish. Insonlar o'z hayotlari ma'nosini o'zlari yaratishlarini ta'kidlovchi falsafiy oqimdir*) va uning fikrini hurmat qilgan holda, yoqlamaydi ham. Adabiyotshunos olimning ushbu maqolasi biz uchun ancha chigalliklarni ochgan bo'lsa-da, nomiga mos „Ingeborg Baldauf aytadiki“ maqomida edi, ya'ni Baldaufning mushohadalari o'zbekona adabiy tahlil g'alviridan o'tkazildi. Maqolada aytilishicha, xulosa, hukm muayyan bir asar bilan tanishiboq, muallifning butun ijodiy faoliyatiga mutloqcha baho berish yo'sinida bo'lmasligi kerak. Holbuki, „ilm ahli uchun ham, Fitratning asarlari bilan tanishishning imkoni“ kam bo'lgan paytda bu gap yanada o'zini oqlaydi. Ammo qiziqki, Fitrat va asardagi Shayton tengligi olimning nigohida qanday baholanadi? Badiiy tahlil etilsa, asardagi tiplar zimmasiga qanday vazifalar yuklanadi? Albatta, har kim uchun haqiqat o'z darchasidan ko'ringanidir...

Yana shuni ham aytish kerakki, Fitrat asarlari mazmun tarafidan bir dunyo bo'lsa, uslub va til xususiyatlari jihatidan ham o'ziga xos ko'rinishga ega. Pyesa yaratilishida siyosiy vaziyatning, adabiy muhitning qo'tlurtkisi, qanchalik sezilgan bo'lsa, uning matnida ham davrning til xususiyatlari, singarmonizmning biroz ustunligi kuzatildi. Ayni shu jihat ham asar borasidagi keyingi ishlarimizning obyekti bo'ladi.

Hozirda Fitrat singari ma'rifatparvar jadid bobolarimizning pok nomlarini oqlash masalasi siyosat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud vakillarining ma'lumotlariga binoan, 2023-yil yanvar oyi holatiga ko'ra 408 nafar qatag'on qurbonlarining nomlari oqlangan. Bu hukmron siyosiy mafkura qurboniga aylangan yurt fidoyilarining vatanimiz uchun qilgan ishlari naqadar keng salmoqli ekanini, hozirgi erkimiz asosida ularning qanchalar og'riqli mashaqqatli turganini yosh avlodga uqdirish uchun ham katta bir dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat. Shaytonning Tangriga isyoni. –T.: O'rta Osiyo Davlat nashriyoti, 1924-yil.
2. Fitrat. Qiyomat. (xayoliy hikoya). –Toshkent: „O'zbekiston“ nashriyoti, 1967.
3. Eveding reality. The devices of Abdalrauf Fitrat, Modern Central Asian Reformist. Brill, Leiden, Boston, Koln, 2002.
4. Ingeborg Baldauf. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – T.: Ma'naviyat, 2001. 58-66-betlar.
5. Ingeborg Baldauf. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – T.: Ma'naviyat, 2001. 63-bet
6. Bahodir Karim. Ingeborg Baldauf aytadiki. „O'zbekiston adabiyoti va san'ati“ 1993-yil 2-iyul.
7. Qosimov B. Fitrat. „Sharq yulduzi“ – T.: 1992-yil, 10-son.
8. Bahodir Karim. Yangilanish sog'inchi. „Ingeborg Baldauf aytadiki“. – T.: „Adabiyot jamg'armasi“ nashriyoti, 2004. 19-bet.

Xasan Gafforov,  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

## GENDER LINGVISTIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI

Xorijiy tillarni o'rganish insonga yangi madaniyat, bilim va yangi do'stlar bilan tanishish, muloqotga kirishish hamda dunyoqarashni o'stirishda yordam beruvchi eng yaxshi vositadir. Ammo yangi tillarni o'rganish anchayin murakkab jarayon va hamma ham bu murakkabliklarni yengib o'tolmaydi. Dunyo esa rivojlanyapti, sun'iy chegaralar olib tashlanayotir. Insonlarda dunyoni, uning ilmlarini o'rganishga qiziqish ortyapti. Albatta, O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda emas. Bizning mamlakatimizga ham millionlab mehmonlar, sayohatchilar kelmoqda. Ayni mana shular ham O'zbekistonda til o'rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Ammo tilni o'zlashtirish yoki lingvistika sohalari uning o'rganuvchilari o'zlariga xos bo'lgan xususiyat va qobiliyatlarga egadirlar, bular esa o'rganuvchilarning jinsiga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Shu sababdan tilshunoslik sohasidagi gender lingvistikasi ham murakkab va muhim sohalardan biri hisoblanadi.

1922-yilda O.Espersen tilning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi fundamental asarining butun bir bobini ayol lingvistik kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlagan. U ayollarning erkaklarnikidan farqli lug'atdan foydalanishi, evfemizmlarga ko'proq moyil bo'lishiga e'tibor qaratadi. Espersenning so'zlariga ko'ra, ayollar tildan foydalanishda konservativdir, buni emigrantlar jamoalari va boshqa izolyatsiya qilingan guruhlari misolida ko'rish mumkin, bu yerda ona tili saqlanib qoladi va shu bilan birga yangi til o'zlashtiriladi. Shu bilan birga, ayollar bir tilda qolish ehtimoli ko'proq, erkaklar esa yangi tilni tezroq o'rganadilar. Biroq, erkaklar tomonidan chet tilini o'rganish yangi tilda ishlash va muloqot qilish zarurati bilan bog'liqligi hisobga olinmagan. Uy sharoitida, ko'proq yopiq muhitda qolgan ayollar uchun bunday yehtiyoy paydo bo'lmadi.

O.Espersen o'z davri uchun jinsning ta'siri masalasi to'liq talqin qilgan bo'lsa-da, keyingi davrda uning qarashlari faqat shaxsiy kuzatishlar asosida o'z xulosalarini chiqarganligi sababli tanqid qilindi, ularning aksariyati etarli darajada tasdiqlanmagan edi.

Professor I. I. Xaleyevaning fikricha, gender, agar u dunyoni qutqarmasa, inson haqidagi ko'plab fanlarni murosaga keltiradi va yo'naltiradi. Gender fanlararo intriga bo'lib, uning markazida ijtimoiy va madaniy maqom bilan belgilanadigan shaxs turadi va genderologiya madaniyatlarni taqqoslashda muhim xususiyatdir.

Tilshunoslikda gender bo'yicha tadqiqotlar ikki bosqichdan o'tdi:

1. 60-yillargacha bo'lgan davr – jins toifasining ekstralingvistik motivatsiyasini tushuntirish uchun jinsiy aloqaning ramziy va semantik tabiatini aniqlashga bo'lgan tartibsiz urinishlar, masalan, kuch, faollik, energiya semantikasini erkak otlariga, passivlik, bo'ysu-

nish, zaiflik semantikasini ayol ismlari bilan bog'lashdi. Kashfiyotlardan biri shundaki, jins toifasining o'zi mos keladigan so'z va tushunchalarni idrok etishga ta'sir ko'rsatishga qodirdir.

Gender tadqiqotlarining rivojlanishiga turtki bo'lib, tilning erkak va ayol variantlari bilan ekzotik tillarning kashf etilishi bo'ldi. Ushbu tillarni o'rganish sivilizatsiyalashgan tillarda gender qarama-qarshiliklari mavjudligini ko'rsatdi.

Yevropa olimlari, xususan, O.Espersen erkak va ayol nutqining xususiyatlarini o'rganib chiqdi, erkaklarning til kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rnatadi, bu xususiyatlar esa normativ bo'lmagan lug'atdan foydalanishda, til resurslaridan ijodiy foydalanishda, sintaktik jihatdan esa – murakkab gap va davrlarni qo'llashda namoyon bo'ladi; ayollarda esa – ko'p sonli xorijiy so'zlarda, evfemizmgga moyillik, til resurslaridan foydalanishda ko'proq konservativizm, sintaktik jihatdan esa - qo'shma gaplar va elliptik konstruksiyalarni qo'llashda namoyon bo'ladi. Umumiy tendensiya esa – bu erkak tiliga nisbatan ayol tilining yetishmasligi, erkak tilining ko'proq namoyon bo'lishi edi.

2. 60-yillardan boshlab gender tadqiqotlari sotsiolingvistika bilan bog'liq bo'lib, uning ma'lumotlari jinsning til kompetensiyasiga ta'sir qilishini obyektiv ravishda isbotladi. AQSH va Germaniyadagi feministik harakat gender tadqiqotlarini rivojlantirish uchun kuchli turtki bo'ldi. Feministik tilshunoslikda ikkita yo'nalish paydo bo'ldi:

– assimetrialarni aniqlash uchun til tadqiqotlari - ona tilida so'zlashuvchilarga dunyoning ma'lum bir manzarasini yuklaydigan lingvistik seksizm, bunda ayollarga ikkinchi darajali rol beriladi va ularga salbiy fazilatlar beriladi;

– bir jinsli va aralash guruhlardagi muloqot xususiyatlarini o'rganish.

Umuman olganda, tilda gender omilini o'rganishning birinchi davri ikki xususiyat bilan tavsiflanadi:

a) tadqiqotlar tartibsiz xarakterga ega bo'lib, tilshunoslikning chekkasida edi;

b) erkak va ayol lingvistik kompetensiyasining xususiyatlarini tavsiflash jarayonida "ayol" tilining "erkak"ga nisbatan "kamligi" tushunchasi shakllangan edi. "Erkak" tili me'yor, "ayol" tili esa me'yordan chetga chiqish sifatida e'tirof etildi.

Keyinchalik ancha jadalroq va tizimliroq bo'lgan gender tadqiqotlari 1960-yillarda boshlangan. Ular uchun turtki bo'lgan sotsiolingvistikaning rivojlanishi olimlarga tilning kasbi, jinsi, yoshi, shahar yoki qishloq turmush tarzi bo'yicha birlashgan odamlar guruhlari ishlaydigan to'g'risida keng statistik materiallarni taqdim etdi. Shunday qilib, miqdoriy tadqiqotlar shuni ko'rsatdi-

ki, ona tilida so'zlashuvchilarning jinsi ma'lum bir tarzda til malakasiga ta'sir qiladi. Xususan, ayollar ko'proq nu-fuzli talaffuz variantlarini ishlatishlari aniqlandi.

A.V.Kirilina lingvistik genderologiya muammolarini batafsilroq va tizimli tahlil qilib, koneptual jihatdan ham, o'rganilayotgan materialning metodologiyasi va tabiati nuqtayi nazaridan ham farqlanishi mumkin bo'lgan ol-tita asosiy yo'nalishni aniqlaydi<sup>1</sup>:

1. Sotsiolingvistik gender tadqiqotlari.
2. Feministik tilshunoslik.
3. Har ikki jins vakillarining til xulq-atvorini o'rganuv-chi shaxsiy (xususiy) gender tadqiqotlar.
4. Erkaklikni(masculine) tadqiq etish (20-asr oxirida paydo bo'lgan eng yosh yo'nalish).
5. Psixolingvistik tadqiqotlar (Ushbu yo'nalish doirasida neyrolingvistika, nutqning ontogenezini o'rganish sohasida ishlar olib borilmoqda, bu erkaklar va ayollar o'rtasidagi kognitiv xususiyatlar va farqlarni hamda ularning nutqda namoyon bo'lishini o'rganadigan biodeterministik yo'nalishni ham o'z ichiga oladi).

6. Madaniyatlararo, lingvomadaniyatshunoslik tad-qiqotlari,shuningdek bu yo'nalish gender submadani-yatlari gipotezasini ham o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, A.V. Kirilina bu tasnifni juda shartli deb hisoblaydi hamda bu sohalarning barchasi umumiy jihatlariga egadir, chunki yuqorida sanab o'tilgan barcha guruhlar o'zaro o'xshash muammolar va tadqiqot obyektlari bilan tavsiflanadi.

Birinchidan, qoida tariqasida, tadqiqot obyekti til va jins o'rtasidagi munosabatdir, ya'ni jinsning tilda qanday aniq namoyon bo'lishi, nominativ tizim, lug'at, sintak-sis, jins kategoriyasi va boshqalar hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarning asosiy maqsadi jinsning tilda qanday namoyon bo'lishini, tilda erkaklar va ayollarga qanday baholar berilishi va ular qaysi semantik sohalarda ko'proq tarqalganligini tasvirlash va tushuntirishdir. Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, har bir tilda jins kategoriyasi har xil bo'lsa-da, ularni tadqiq qilish gender lingvistikasining tadqiqot obyektlaridan biridir. Gender tilshunosligi nuqtayi nazaridan rus va o'zbek tillaridagi kabi ko'p tizimli tillarda "jonli mavjudot jinsi" tushunchasining timsolini qiyosiy o'rganishga oid tad-qiqotlar katta qiziqish uyg'otmoqdadir. Ushbu muammo va tadqiqot obyektlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, boshqa tillardagi kabi o'zbek va rus tillarida ham "jonli mavjudot jinsi" tushunchasining timsoli uchun yagona qonuniyatlar tizimini yaratish imkonsizdir.

Bizning fikrimizcha, jahon va o'zbek tillarida gender munosabatlarini o'rganish jarayonida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan masalalar qatoriga quyidagilar kiradi:

– dunyoning gender va lingvistik tasviri (gender grammatika, lug'at, so'z shakllanishi, aloqa, badiiy ijod omili sifatida);

– o'zbek tilida shaxs-shaxssiz va animatsiya kate-goriyalarining nisbati;

– jahon tillarining gender aspektidagi jins toifalari va jonlilik tushunchasi

– o'zbek tilidagi shaxs otlarining gender aspektidagi so'z yasaliş kategoriyalari, kengroq aytganda, o'zbek tilining gender aspektidagi substantiv so'z yasaliş kategoriyalari va boshqalar.

O'zbek tilida urg'ochi jinsi(ayol jinsi-женский пол) nominatsiyasi, asosan, hosila bo'lmagan leksemalar orqa-li yoki analitik usulda, xotin (ayol) leksemasi yordamida amalga oshiriladi. "Rus tilida shaxs ismlarini qo'yish tizimi o'zbek tilining tegishli tizimidan keskin farq qiladi, unda jins toifasi yo'qligi sababli so'z yasovchi vositalar bilan if-odalangan erkak va ayol ismlarining muntazam juftlanishi kuzatilmaydi. Shu jihatdan bir ildizli leksemalarning adib – adiba, shoir – shoira, muallim – muallima, marhum – marhuma kabi bir necha juftlari qiziq.

Sintaktik darajada esa o'zbek o'quvchilari uchun sifat va kesimni otlar bilan jinsi (shuningdek, soni va holati bo'yicha) uyg'unlashtirishning umumiy muammosidan tashqari, shaxssiz gaplardagi o'rta jinsning (grammati-kadagi sredniy rod) o'ziga xos timsoliga ham alohida e'tibor qaratish lozim (bu jihat o'zbek tilining gramma-tikasida umuman qo'llab-quvvatlanmaydi), masalan: В этой катастрофе его вполне могло убить.

Ikkinchidan, tilda gender tadqiqotlarining maqsadi jinslarning nutqiy xatti-harakatlarini o'rganish, erkak va ayol nutqining xususiyatlarini ajratib ko'rsatish va tavsif-lash bo'lishi mumkin. Bunday holda, tadqiqot ko'pincha sotsial-madaniy determinizm nuqtayi nazaridan yoki biodeterminizm nazariyasi doirasida amalga oshiriladi.

Uchinchidan, shuni ta'kidlash kerakki, tilshunos-likdagi gender tadqiqotlari ko'pincha fanlararo va qi-yosiy xarakterga egadir. To'rtinchidan, tilshunoslikning deyarli har qanday sohasiga gender nuqtayi nazaridan qarash mumkin.

Beshinchidan, tilshunoslikdagi gender masalalari aniq amaliy xususiyatga ega va aynan shu tadqiqot paradigmasi doirasida tilni rejalashtirish va til isloho-ti doirasida eng ko'p muvaffaqiyatli urinishlar amalga oshirilgandir<sup>2</sup>.

Xullas, agar biz postsganish, gender assimetriyalarini aniqlash va androsentriklik darajasini o'rganish uchun paremiologiya) mavjud bo'lsa-da. Madaniyatlararo gen-der farqlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar soni ham ko'paydi<sup>3</sup>.

1. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. М.: Изд-во «Институт социологии РАН», 1999. С. 36.

2. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. С. 36-37.

3. L. Damj anowa, Particularidades del lenguaje femenino y masculino en Espanol (Universidad de Viena, Austria, 1993). Кирилина А.В. Категория gender в языкознании // Женщина в Российском обществе. Москва, 1997, №2. С. 20. Кирилина А.В. Перспективные направления развития гендерных исследований в российской лингвистике // Женщины России на рубеже XX-XXI веков. Материалы международной научной конференции. Иваново, 1998. С. 16-20. Кирилина А.В. Развитие гендерных исследований в лингвистике // Филологические науки. Москва, 1998.

**Zebo UMAROVA,**  
TerDU mustaqil tadqiqotchisi

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA XALQARO TURIZM TERMINOLOGIYASIDAGI INNOVATSIYALAR

Muayyan til lug'atini u yoki bu leksik birlikning qo'llanish sohasiga ko'ra tabaqalashtirish hozirgi zamon tilshunosligining asosiy vazifalaridan biridir. Insoniyat bilimi va ilmiy-texnika taraqqiyoti chegaralarining kengayishi munosabati bilan o'zlashtirilgan tushunchalarning yangi ta'riflariga, shuningdek, fan va texnikaning yangi sohalaridagi tushunchalarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda va shunga mos ravishda lug'at boyligi ham kengayib bormoqda.

Tarmoqli terminologik lug'atlarni tuzish masalasi zamonaviy amaliy tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bir necha o'n yillar davomida turli tillarga mansub atama tizimlarining shakllanishi, uning til tizimidagi o'rni, izchilligi, terminologiyaning xususiyatlari kabi muammolar bilan chambarchas bog'liqligi masalasi yetakchi mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida muhokama qilindi. Aynan maxsus lug'atda til taraqqiyoti bilan xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati tarixi o'rtasidagi bog'liqlik eng aniq ochib beriladi.

Bugungi kunda ilmiy va texnik bilimlarning jadal o'sishi zamonaviy tillarda paydo bo'lgan yangi so'zlarning 90% dan ortig'i maxsus lug'at ekanligida namoyon bo'ladi [1].

Terminologiyaning kelajagi fan va texnika tilini takomillashtirishga ongli yondashish imkonini yaratish uchun terminologik jarayon va hodisalarni tavsiflashdan ularni tushuntirishga o'tish zarurati bilan belgilanadi. Hozirgi kunda har qanday til lug'atining katta qismini tashkil etuvchi terminologik lug'at kelajakda inson hayotida tobora muhim rol o'ynaydi. Terminologiya bilimi allaqachon ko'p kasb egalari – tilshunoslar, tarjimonlar, muharrirlar, o'qituvchilar, soha mutaxassislar uchun zarurdir.

So'zlarning deyarli bitmas-tuganmas zaxiralarga, ularning ko'p qirrali tabiatiga, bog'lanishlarning xilma-xilligiga qaramay, tilning lug'at tarkibi umumiy til tizimidan tashqariga chiqmaydigan, aksincha, uning mantiqiy rivojlanishida faol ishtirok etadigan ma'lum bir tizimdir.

V.M.Leychikning so'zlariga ko'ra, "hozirgi bosqichda adabiy tilning funksional xilma-xilligi sifatida tan olingan fan tili lug'atining semantik yadrosidir» [2, 119-bet]. Shu bilan birga, umumiy tilga tobora ko'proq atamalar kirib bormoqda va terminologik muammolar umuman tilga ta'sir o'tkazmoqda, shuning uchun maxsus lug'at sohasidagi vaziyatni o'rganish lug'atning rivojlanishi uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda turistik xizmatlar ko'rsatish sohasi asosan boshqa tillardan olingan keng lug'atdan foyda-

lanishga qaratilgan. Tarixiy va ijtimoiy sabablarga ko'ra, ingliz tili professional turizm sohasida eng keng tarqalgan til sifatida tan olingan.

Ko'rib chiqilayotgan sohaning nisbatan "yoshligi" ilmiy maxsus lug'atlarning yo'qligi va tegishli terminologiya tarkibida oldindan atamalarning mavjudligi kabi lingvistik hodisalar bilan ko'rsatiladi.

Yangi paydo bo'lgan bilim sohalarini ma'lum bir shakllanish yo'lidan o'tadi. Ma'lumki, har qanday bilim sohasi terminologiyasi o'z rivojlanishida 3 bosqichdan o'tadi:

- sodda termin;
- fandan oldingi termin;
- ilmiy termin [3, 152-bet].

Xalqaro turizm lug'ati yetarlicha o'rganilmagan, bu esa, xalqaro turizm bilan bog'liq hodisalarni ko'rsatadigan ingliz va o'zbek lug'atlarini o'rganish obyekti sifatida tanlashni belgilab berdi, turizm terminologiyasini tartibga solish va uning konseptual apparatini optimalashtirish zaruratini yanada kuchaytirdi.

Ma'lumki, xalqaro turizmning terminologik tizimi lug'ati chet el va o'z til resurslari hisobiga shakllangan neologizmlar bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan turli xil innovatsiyalar tufayli kengayib boradi. O'tkazilgan diaxronik tahlilga ko'ra, keyingi vaqtlarda o'zbek turistik terminologiyalarida yangi maxsus leksik birliklar soni keskin o'sdi. Aytish joizki, bugungi kunda bu sohada terminologik lug'atlarni tanlash keng emas, ingliz tilidagi maxsus turistik lug'atlar soni esa, o'zbek tilidagi terminologik lug'atlar sonidan ortib ketgan.

Ingliz tilidagi "tourism" leksik-semantik sohasi terminologiyasida jami 31 ta polileksemik birliklar aniqlangan, bu ingliz tilidagi atamalarning umumiy sonining 7 foizini tashkil qiladi[4].

Butun o'zbek tiliga xos bo'lgan polisemiya hodisasi ingliz turistik terminologiyasining o'ziga xos xususiyati emas. Ingliz terminologiyasi noaniqlikka intiladi.

Ko'plari noaniq bo'lgan atamalardan farqli o'laroq, bir fan doirasidagi atamalar bir ma'noli bo'lishi kerak. Ular aniq cheklangan, asosan motivatsiyalangan mutaxassislik va mutlaq semantik aniqlik bilan ajralib turishi kerak. Bir nechta tushunchalarni, ayniqsa, bir predmet sohasiga mansub tushunchalarni bir leksik shakl bilan nomlash muhim terminologik muammoldan biridir, chunki u deyarli barcha bilim sohalarida uchraydi va atama ma'nosida noaniqlik va noaniqlikka olib keladi, mutaxassislar va olimlarning muloqotini qiyinlashtiradi.

Terminlarning noaniqligi muammosi uzoq vaqt davomida terminologiyaning an'anaviy muammolaridan biri bo'lib kelgan. Ammo bir nechta tushunchalar bitta leksik birlik bilan atalgan holatlar polisemiya (polisemiya) yoki

omonimiya deb tasniflanishi mumkin. Bir necha yillar davomida terminologik adabiyotda ushbu hodisani belgilashda mavhumlik mavjud edi.

Aniqlanishicha, turizmning ayrim tushunchalarini belgilash uchun uzun sinonimik turkumning mavjudligi bir xil leksemaga turli izohli lug'atlarda berilgan ta'riflarni tahlil qilish, shuningdek, leksik birliklarning tarjimasining adekvatligi va to'g'riligini tahlil qilishga sabab bo'lgan. «Sayohat» atamasi mos yozuvlar elementi sifatida qabul qilindi. Tahlil natijasida "travel" so'zini "sayohat" leksemasining eng adekvat va neytral tarjimasi deb hisoblash mumkinligi aniqlandi[5].

Eponimiya hodisasini tahlil qilish atama va nomenklatura birliklarini shakllantirishning potensial manbayi sifatida tegishli nomlarni baholash imkonini beradi. O'rganilayotgan atamalar guruhida tarkibida o'z nomini o'z ichiga oluvchi leksemalar – nomdosh atamalar mavjud. Ingliz tilidagi ro'yxatda 2 ta nomli atama misollari mavjud. O'zbek turizm atamalar ro'yxatida shu nomli atamalar belgilanmagan[7]. Turizm terminologiyasida xos nomlar atamashunoslikning boyitilishiga hissa qo'shib, o'z navbatida uni boshqa bilim sohalarida to'ldirishning samarali va faol foydalaniladigan manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi, deb aytish mumkin emas. Turizm terminologiyasida xuddi shu nomdagi atamalar ko'proq sinonimiya manbayi bo'lib, bu har qanday terminologik tizim uchun nomaqbuldir.

O'zbek va ingliz tillarida "tur", "turizm", "turist" atamalarining semantik xususiyatlarini o'rganib chiqib, quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin:

– umumiy tilda faol qo'llaniladigan inglizcha "get up" atamasidan farqli o'laroq, bizni qiziqtirgan ma'nodagi o'zbekcha "tur" atamasi faqat turizm sohasida keng tarqalgan;

– ingliz tilidagi "tourism" atamasi o'zbek tilidagi "turizm" ekvivalent atamasidan kengroq ma'noga ega;

lug'atlar tomonidan berilgan ta'riflarga ko'ra, «turist» va «turist» atamalarini butunlay ekvivalent deb hisoblash mumkin.

Maxsus (terminologik) lug'atdan lug'at tanlash juda samarali usul bo'lib ko'rinadi (kam mehnat talab qiladigan va sifatliroq), chunki unda to'plangan atamalar soni ma'lum manbalarning barcha turlariga nisbatan eng to'liqdir. undan kerakli lug'atni olib tashlash mumkin.

Ingliz va rus turizm terminologiyasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ingliz terminologiyasi ilmiy tafakkur bosqichida, rivojlanib bormoqda va o'zining shakllanishini yakunlashga intilmoqda[6].

Ikki til turistik terminologiyasining strukturaviy xususiyatlarini o'rganish maqsadida lug'atning formal-strukturaviy tahlili o'tkazildi, uning natijalari o'zbek va ingliz turistik terminologiyasining bir qator o'xshash va farqli tomonlarini aniqladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillaridagi turistik atamalarining asosiy qismini polileksemik shakllanishlar tashkil etadi (o'rganilayotgan maxsus birliklar umumiy sonining mos ravishda 56% va 58%), bu Yevropa tillari terminologiyasining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Rasmiy nuqtayi nazardan, ingliz va o'zbek turistik bir so'zli atamalarining aksariyati oddiy leksemalar guruhiga kiradi. Kamroq atamalar alohida affiksial xususiyatga ega. Ushbu tahlil jarayonida murakkab leksemalarning kichik foizi topildi, ya'ni 12% ingliz lug'ati va 7% o'zbek. Qisqartmalar eng kam sonli terminlar bilan ifodalanadi (ingliz leksemalarining 2%, o'zbek leksemalarining 3%).

Tadqiqotda ingliz turistik terminologiyasida, shuningdek, o'zbek turistik terminologiyasida semantik, morfologik, morfologik-sintaktik va xorijiy terminlarni o'zlashtirish kabi so'z yasash usullari yordamida hosil qilingan leksemalar aniqlanganligi qayd etilgan.

Zamonaviy turizm lug'atining asosiy tarkibiy qismlari sifatida asosan ingliz va o'zbek tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ishlatiladi: kvartiralar, bagaj, biznes-klass, biznes turizmi, chipta, qayiq, brunch, vagon, vaucher, viza.

O'zbek tilida ma'lum bir so'zning paydo bo'lishining aniq sanasini belgilash ingliz tilida ma'lum bir leksema fiksatsiyasini ko'rsatadigan leksikografik manbalarning etishmasligi bilan murakkablashadi.

Xulosa, mamlakatimizda turistik xizmatlar ko'rsatish sohasi asosan boshqa tillardan o'zlashtirilgan keng lug'atdan foydalanishga qaratilgan. O'rganilayotgan lug'atning diaxronik tahlili ushbu terminologiyaning kelib chiqishi va keyingi shakllanishiga ham til ichidagi, ham tildan tashqari omillarning ta'sirini tasdiqladi. Umumiy adabiy lug'at tarkibiga kiruvchi va asosan umumiy adabiy lug'atdan kelib chiqqan atamashunoslikni uning rivojlanish va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari va jarayonlaridan ajratib bo'lmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение : учебное пособие для студентов высших учебных заведений / С. В. Гринев-Гриневич. - Москва : Академия, 2008. - 302, [1] с.  
2. Даниленко В.П. Русская терминология: опыт языкового описания: метод. пособие / В.П. Даниленко.-М.: Изд-во Наука, 1997.-246 с.

3. Martine A. The Principle of Parsimony in Phonetic Change: A Textbook. allowance / A. Martinet - M., 1980.–261 p.

4. Имамутдинова Э.Т. Об особенностях терминологии международного туризма. Научно-техническая терминология / Э.Т. Имамутдинова.-№1.-М., 2005.-159 с.

5. Борисов В.В. Аббревиатура и сокращение. Военные и научно-технические аббревиатуры на иностранных языках: учеб. пособие / В. В. Борисов; под общ. ред. МИР. Швейцер.-М., 1972.-98 с.

6. Величко И.В. Специфика лексического корпуса текстов тематической области «Туризм»: актуальные проблемы теоретического и прикладного языкознания: сборники научных трудов / И.В. Величко; под ред. Е.П. Сосниной.- Ульяновск: изд-во УлГТУ, 2009.-143 с.

7. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011- yil.



**Manzar ABDULXAYROV,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*

## NAVOIY ASARLARIDAGI SHAKLDOSHLIK HOSIL QILUVCHI SO'ZLAR TAHLILI

Bugun Navoiy asarlarini keng targ'ib etish, uning ilmiy asoslangan matnlarini tiklash va hozirgi o'zbek yozuvida chop etish tadqiqotchilardan o'zbek tilshunosligi rivojidadagi umumiy va xususiy jarayonlarni sinchiklab, puxta o'rganish va yozma yodgorliklari bo'yicha filologik tadqiqotlar olib borish sohasidagi nazariy umumlashmalarni bilish hamda va matnshunoslikning shakllanish jarayonini va umuman, matn tarixi muammosini yaxshi bilishini taqozo etadi. Bu borada, ayniqsa, matn tarixini o'rganish sohasida o'tgan davr ichida bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelganini ta'kidlash lozim. Zero, Navoiy asarlaridagi badiiy vositalarning bir qismi shakldosh, ya'ni bir-biriga shaklan o'xshash so'zlarga asoslangan. Shakldoshlikning chegarasi bor. Bu hol shoir asarlarida tajnis san'ati orqali sodir bo'lgan.

Navoiy boshqa san'atlar qatori tajnisdan ham o'rinli foydalanadi:

*Qilsa jonon ollida jonim Tufayl o'lmoqqa mayl,  
Kosh yuz jon o'lsakim, har dam birin qilsam tufayl*

[Alisher Navoiy, 1987: 322].

Tufayl [ا. طفيل] 1. Chaqirilmagan mehmon, o'zi chaqirilmagan bo'lsa ham, chaqirilgan kishilar qatorida, ularga ergashib, to'y-ma'rakalarga boruvchi. 2. Sabab, bois, bahona, vaj-korson, vosita. 3. Arablar qabilasiga mansub Umayya avlodidan bo'lgan Tufayl ismli shaxs juda kambag'al, faqir bo'lganligi tufayli birovnikiga mehmondorchilikka ham bora olmagan.

Bu baytda Navoiy shaxs nomi «Tufayl» bilan «sabbab» ma'nosidagi «tufayl» so'zlarining shakldoshligidan mohirona foydalangan. Yoki: Savt I [سوت] Qamchi. Savt II [صوت] 1. Tovush, ovoz; shovqin. 2. Ohang, kuy, maqom.

Savtin-noqus [صوت الناقدوس] Aruz bahrlaridan biri (katta qo'ng'iroq ovozi). To'rtunchi doiraning ikkinchi bahrikim, mutadorik bahridur va ani «rakz ul-xayl» va «savit in-noqus» ham derlar... » [Alisher Navoiy, 2000: 87].

Akademik Alibek Rustamov ham shoir asarlari matnidagi bu kabi shakldoshlarni quyidagicha izohlaydi: «Tab» «isitma» va «harorat» so'zlarining ma'nodoshidir. «Tob» shakliga ega bo'lgan ikkita so'z bor. Biri jilo ma'nosida bo'lib, hozirgi tovlanish so'zi shu o'zakdan hosil qilingan. Ikkinchisi o'rim, chirmash ma'nosida-

dir. Yana «tob» ko'chma ma'noda quvvat, sog'lomlik va shunga o'xshash ma'nolarda ham ishlatiladi. «Gesu» deb o'rilgan sochga aytiladi. Navoiy o'zining bu baytida «tob»ning hamma ma'nolaridan birdan foydalangan, ya'ni soch, birinchidan, o'rilgan, ikkinchidan, yaltiroq, uchinchidan, baquvvat (qalin va uzun). «Tob» bilan «tab»ning ma'naviy munosabatidan quyidagi uch fikr kelib chiqadi: 1) oshiqning jismi yonadi, lekin yonish natijasi bo'lmish jilo ma'shuqaning sochida; 2) kasallik oshiqda, lekin sog'lomlik ma'shuqada; 3) yonish oshiqda, lekin to'lg'anish ma'shuqada, ya'ni oshiq har qanday azobga chidaydi...» [Rustamov, 1979: 30-73].

Shu jihatdan, uning nazmiy asarlari bilan bir qator-da, nasriy asarlari tarkibiga kirgan she'riy parchalarning badiiy malohatini o'rganish va tadqiq qilish o'rinlidir. Chunki Navoiyga xos bo'lgan badiiy mahorat uning keng hajmli asarlari va lirik kulliyotidan tashqari kichik she'riy parchalarda ham o'z aksini topgan. Biroq Navoiy asarlarining joriy tabdillarida bu masalada ham oqsoqlik mavjud. V. Rahmonov yozadi:

*«Ilm aflokida bir jis mahal  
Barcha ashkol o'lum ollida hal*

[Alisher Navoiy, 2000: 483].

Birgina baytdagi to'rt so'zning xato o'qilgani, ya'ni «bir jis, ashkol, o'lum» so'zlari kitobxon fikr-idrokini boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi...

Chunki «jis» degan so'z yo'q. «Birjis» so'zi paydo bo'lgach, kalavaning uchi topiladi, ya'ni Mushtariy sayyorasi nazarda tutilganini anglaymiz...:

*Ilm aflokida Birjis mahal  
(Mazmuni: Ilm osmonida davr Birjisi).*

Nashrga ishonsak, ikkinchi misra quyidagi mazmunni beradi:

Barcha shakllar o'lum oldida hal bo'ladi. Afsuski, baytdagi misralar mazmunan bir-biridan juda yiroq... «Hal» so'zi menga «ashkol» so'zini tahrir qilishga turtki beradi. Nimani hal etish kerak? «Ashkol»ni. Axir, «ashkol» (shakllar)ni qanday hal etish mumkin? Demak, bu so'z aslyatda «ishkol» (muammo) bo'lsa kerak.

Barcha ishkol o'lum ollida hal.

Arab yozuvida «ulum» va «o'lum» shakldoshdir. Shunga ko'ra, «o'lum»ni «ulum» (ilmlar) so'zi bilan almashtiramiz:

Barcha ishkol ulum ollida hal.

Vazni tuzatish uchun «barcha»ni «borcha»ga o'zgartiramiz. Va «ishkol» bilan «ulum» so'zlari aloqasini yo'lga qo'yish uchun «ishkol»ga «i» izofasini qo'yamiz:

*Borcha ishkoli ulum ollida hal.*

Shunday qilib baytni sahih holatga keltirdik:

*Ilm aflokida Birjis mahal,*

*Borcha ishkoli ulum ollida hal.*

Mazmuni: U ilm osmonidagi zamona Birjisidir. Ilmlarning har qanday muammolarini u hal qila oladi... » [Rahmonov, 2015: 368-369].

Xullas, barhayot falsafiy g'oyalar, badiiy fikrlar, o'ziga xos g'oya va chuqur mazmun singdirilgan bunday shakldosh so'zlar badiiyatini qancha ko'p o'rgan-sak, Navoiyni shunchalik chuqur tushunamiz va bizga ma'lum bo'lmagan badiiy mahorat qirralarini kashf eta boramiz. Oldimizda turgan muhim muammolardan biri ulug' shoir asarlaridagi shakldosh so'zlarni aniqlash va ularni Alisher Navoiy asarlarining keyingi tabdillariga joriy qilishdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. Mukammal asarlar to'plami. – T.: Fan, 1987. 322-bet.
2. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Mukammal asarlar to'plami. – T.: Fan, 2000. 87-bet..
3. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. VI jild. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2013. 483-bet.
4. Rahmonov V. Mumtoz so'z sehri. – T.: O'zbekiston, 2015. 368-369-bet.
5. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1979. 30-73-bet..

**Ravshan NIYOZOV,**

*“TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti dotsenti,  
f.f.f.d (Phd)*

## JON GRISHAMNING “QOTILLIK PAYTI” ASARIDAGI ZAMON VA IJTIMOY MUNOSABATLAR KATEGORIYASINING BADIY TALQINI

Asar voqealari Amerikadagi fuqarolar urushi davrida sodir bo'ladi. Yuz berayotgan ayirmachiliklar, irqiy tengsizliklarning barchasi bir asarda jamlanib, ijtimoiy tanqid ostiga olingan. Vilson ta'kidlaganidek: “Ijtimoiy tanqid shunchaki xalqning turmush tarzini ko'rsatish bilan o'z ifodasini topmaydi, balki u jamiyatdagi boshqa jihatlarni ham, jumladan, odob-axloq, siyosat, madaniyat, etika-estetika, hayotiy normalar kabi keng tushunchalarning barchasini o'z ichiga oladi.”<sup>1</sup>

Jon Grisham advokat sifatida ham faoliyat yuritgani sababli asarda o'zining prototipi – Jeyk Briganse ismli qahramonni yaratadi. U shunday yozgandi: “Bu kitobda avtobiografiyalar ko'p. Men boshqa huquqshunoslik bilan shug'ullanmayman. Lekin 10 yildan buyon Jeyk Briganse qilgan ishlarga juda ham o'xshash ishlarni bajardim.” (Grisham, 1992:)

#### Jon Grisham asarida zamon kategoriyasi talqini

“A time to kill” romanida vaqt-zamon munosabatlari ifodalanishi o'zining mukammal mexanizmiga ega. Tunda, hamma uxlab yotgan bir vaqtda Jon Grisham o'z mijozining ishini o'rganayotgan advokat haqida hikoya qilib beradi. Ushbu romandagi jinoyatlar ko'pincha tunda sodir bo'ladi. Yozuvchi har doim “Klan” tashkiloti

a'zolarining terrorchilik, zo'ravonlik va boshqa jinoyatlarini tunda sodir etilganini alohida xususiyat sifatida namoyon etadi.

“Bir necha daqiqalardan so'ng o'rinbosar Marshal Prezer Adamsni rad etdi va shu zahoti ko'zi Jeykning old hovlisida alanganib yonayotgan xochga tushdi. U mashinalar yo'lagiga burilib, Saab orqasida to'xtab qoldi. Eshik qo'ng'irog'ini chaldi va ayvonda turib alan-gani kuzatdi. Soat deyarli uch yarim edi. U yana chaldi. Xochning charsillab yonishi va ellik fut narida o'rmonning qarsillab yonishidan boshqa hamma joy qorong'u va jim edi. Nihoyat Jeyk old eshikdan qoqilib o'tib, o'rinbosarning yonida hayratda qotib qoldi. Ular ikkisi ayvonda yonma-yon turib, nafaqat yonayotgan xochni, balki uning nima maqsadda yonayotganini ham hayrat bilan kuzatib turardi.” (Grisham, 1992: 181).

Yuqorida “Ku Klus Klan”ning tunda sodir etgan jinoyatlaridan biri tasvirlanib, u Jeykning uyi oldidagi xochning yonida boshlanadi. Bu “Klan” tashkiloti paydo bo'lishining birinchi belgisi edi.

Tongda esa yozuvchi Grisham odamlarning umumiy o'rnatilgan tartibini ko'rsatadi. Tongda uyg'onish, dush qabul qilish, nonushta qilish va ishga borish uchun

tayyorlanish kabilar. Ushbu holat quyidagi iqtibosda atroflicha tasvirlangan:

“Jeyk dushda bu haqida o’yladi. U tez dush qabul qildi, soqolini olib, tezda kiyindi. Ertalab soat 6:00 da qahvaxonada bo’lishiga to’g’ri keldi. Chiroqlarni yoqdi va Karlani uyg’otish uchun tortma va shkaf eshiklarini taqqillatib urdi. Bu yozdagi, ya’ni u maktabda dars bermayotgan vaqtdagi tonggi marosim edi. (Grisham, 1992: 19).

Sana va kunlardan foydalanish romanda katta ahamiyat kasb etib, Grisham muhim rejalashtirilgan voqealarni aniq vaqt bilan eslab o’tadi. Umuman olganda, “A time to kill” asarida yozda sodir bo’lgan voqea aytib beriladi. Bu haqda iqtibosning oxirgi jumlasida aytilgan.

#### **Adib asarida ijtimoiy munosabatlar yoki atrof-muhit kategoriyasi**

Jon Grisham o’z asariga kiritgan hikoyalar u guvoh bo’lgan ijtimoiy muhitdagi voqealar, jumladan, haqorat, zo’ravonlik, sud fitnasi va qotillik kabilarga asoslanadi. Ijtimoiy qo’zg’alonn quyidagi iqtibos orqali tahlil qilamiz:

“Xo’sh, u Noosega qo’ng’iroq qilib, sud jarayonini Ford okrugida o’tkazishni taklif qilish uchun tuman bo’ylab siyosiy do’stlar orttirayotgan edi. Ba’zilar Noose bilan haqiqatdan ham ochiqchasiga gaplashdi. Unga “sud jarayonini keyinga ko’chiring va biz sizni keyingi saylovga qabul qilamiz”, “sudni Klantonda qoldiring, biz sizning saylanishingizga yordam beramiz” kabi takliflar berishdi. Bundan tashqari, unga nisbatan siyosiy tahdid emas, balki o’ldirish bilan tahdid qilindi. Men u o’limdan

qo’rqanini eshitdim. Hozir uning uyini qurollar bilan politsiya qo’riqlaydi” (Grisham, 1992: 289-290).

Bu iqtibos orqali qonunga siyosiy aralashuvni tushuntiradi. Noose Karl Li sudining joyini boshqa bir adolatliroq joyga ko’chirishga jur’at eta olmadi. Agar u Jaeykning iltimosini bajarib, Karl Li sudini Klantondan tashqaridagi adolatli hakamlar hay’ati ixtiyoriga o’tkazganida edi, keyingi saylovlarda sudyalik lavozimini egallay olmasdi. Noose ba’zi noma’lum odamlarning tahdidiga ham uchradi. Bir qancha shubhali qo’ng’iroqlarni qabul qildi.

Asarda hushyorlik yuqori darajada. Qahramonlar yuz berayotgan har bir vaziyatni sinchkovlik bilan kuza-tadi. Hamma eng yaxshi mavqega ega bo’lishni xohlaydi. Ijtimoiy muhitning adolatsizligi qonun o’z doirasida adolatli ish olib borishiga yo’l qo’ymaydi. Ma’lum bir lavozimni egallab turgan odamlar o’zlarining shaxsiy manfaatlarini har narsadan ustun, deb biladi.

“A time to kill” asarida Grisham Karl Li va uning ukasi Lester bilan bog’liq vaziyatlardagi farqni tushuntiradi. Farq shunda ediki, Lester ozchilikni tashkil qiluvchi afroamerikanlarni, Karl Li esa irqchilik harakatini olib borgan oq tanlilarni o’ldiradi. Lekin har ikkalasining ishini o’n ikki nafar oq tanli hakamlar ko’rib chiqadi.

**Xulosa.** Jon Grisham “A time to kill” romanida jinoiy ish yuzasidan sud jarayonlari, qahramonlar, joylar va har bir voqeaning yuz bergan vaqti haqida kitobxonga batafsil ma’lumot bergan. Asardagi makon va zamon kategoriyalari, ijtimoiy muhitning voqealar rivojiga qay darajada ta’sir o’tkazayotgani mohirona tasvirlangan.

1. Fredickson, M. Goerge. (1996). Black Liberation: A Comparative History Of Black Ideologies In The United States And South Africa. Oxford: University Press paperback.

**Darmonoy O’RAYEVA**,  
*BuxDU professori, filologiya fanlari doktori*  
**Dilorom JO’RAYEVA**,  
*Buxoro shahridagi 38-maktab direktori*

## ANBAR OTIN IJODIDA GENDER TENGLIK TALQINI

Anbar otin Farmonquli qizi (1870-1915) Qo’qonda bo’zchi-belbog’chi oilasida tug’ilgan. Taniqli o’zbek shoirasi Uvaysiyning jiyani va yana bir mashhur shoira Dilshodi Barnoning shogirdi edi. Bir masnaviyida yozganidek, otasi Farmonquli Marg’iloniy hamda onasi Ashurbibi Qo’qoniy asosan belbog’chilik va bo’zchilik bilan tirikchilik qilgan. Noni ko’proq makkadan bo’lgani uchun shoira xalq maqollarida aytilgani kabi o’zlari haqida: “Kim bo’zchi belboqqa yolchimas doim”, – deydi.

Anbar otin 14 yoshida o’ratepalik nonvoy yigit Zohidxo’jaga turmushga uzatilgan va Mo’minxo’ja, Bibixon, Usmonxo’ja, Ominaxon (erta vafot etgan) ismli to’rt farzand ko’rgan. Maktabdorlik qilgani uchun “otin” nomini olgan.

Ustozi Dilshodi Barno “Muhajirlar tarixi” kitobida uning katta shoira bo’lishini bashorat qilgan.

Anbar otindan bizgacha “Risolai falsafai siyohon” (“Qarolar falsafasi”) falsafiy-publiksistik asari yetib kel-

gan. Bu kitob o'zbek adabiyoti tarixida ayollar qismatiga bag'ishlangan alohida asar sifatida e'tirof etiladi. Unda ayollar taqdiri, yurt taqdiri haqida yozilgan.

Shoira g'azaliyotida ayollarning erkaklar bilan teng ko'rilishi – gender tenglik masalasi muhim o'rin tutadi. Bu jihatdan shoiraning "O't tushsin" radifli g'azali e'tiborga molik. Uning ikkinchi baytida shunday misralar bor:

"Ayollar sochi uzun, aqli qisqadur" deganlarga,  
Tovuqcha aqli yo'q, axlatni titkonlarga o't tushsin.

Shu g'azalning to'rtinchi baytida esa quyidagi misralardan uchraydi:

"Xotunlar mol qatori sotilur", deb mushtiparlarni,  
Zulayho, Layli, Shirin tan olmog'onlarga o't tushsin.  
Bo'yi xush Anbar kabilar haromxo'rlar uchun  
Sudxo'ru fohishaboz, so'zi yolg'onlarga o't tushsin.

Ayollar xo'rlangan, kamsitilgan davrga nafrat, undan qutulishga intilish va chorlov Anbar otin g'azallarida alohida bayt va misralarda ko'chgan. Jumladan, shoiraning "Anbar otinman" avtobiografik xarakterdagi g'azalida shunday bayt uchraydi:

Mendek yotma uyg'ongil, ey zamoni Farg'ona!  
Erlardek bel bog'la emdi bo'lib mardona!  
Mazkur g'azal quyidagi misralar bilan yakunlanadi:  
Anbar bo'yi bo'g'ulmasun, ey gul, ko'ksingda,  
Xanda qil gulg'unchalar kulsun zani zamona!

Anbar otin – zullisonayn shoira. Uning asarlarini fors-tojik hamda o'zbek tillarida yozgan. Shuning uchun shoiraning o'zbek tilida yaratilgan asarlarida ba'zan tojikcha so'zlar ham uchraydi. Yuqoridagi misralarda "ayol" so'zi o'rnida "zan" so'zi qo'llangani bunga yaqqol misol.

Shoira "Kelib xushnud avlodim..." she'rida "xushnud avlod"dan iborat navjuvonlar kelishiga, ular mulkni obod qilishiga, vayrona diyorda shaharlar bunyod etishiga qattq ishonch bildirib yozadi:

Kelib xushnud avlodim, mani mulkim qilur obod,  
Vay vayrona diyorimda shaharlar aylagay bunyod.  
Dabistoni ulumni sar-basar ochib har el ichra,  
Kengaytib tahsilini, navjuvonlar aylagaylar yod...  
Qorong'u uyda ingrab o'tlururmi men kabi xotun,  
Hama ash'orini ovoz ila o'qib, qilur ijod....

Kelur vaqtteki, xeshovand jamojam kun ko'rar xursand,

Zamoni(ng) xotini avlodini ruhi ko'rar dilshod.

Anbar otinning bu orzu-istagi, bashorati mustaqillik yillarida amalga oshdi. Shoira niyat qilganidek, xotin-qizlarning ilm olishiga, fan va badiiy ijod bilan shug'ullanishiga katta imkoniyatlar yaratildi.

Shoira ijodkor xotin-qizlarni tez-tez yig'ilib, mushoira va suhbatlar qilib turishga undaydi. Bu fikrimizni "Shoir ersang..." g'azali tasdiqlaydi:

Shoir ersang, vaqti-vaqti birla mushoira qil,  
Ul Haziniy to'dasig'a kiribon munozara qil.

Shuningdek, ushbu g'azalida shoira ijodkor xotin-qizlarni savob ishlar qilib, o'zini mudofaa qilishga, Tangriga jannat orzusida xizmat qilishga, do'zaxdan qo'rqib mulohaza yuritishga, elga xolis xizmatda bo'lishga, xalq g'amida bo'lganlarga ergashishga, agar ustodi avlod izlasa, Navoiyni mutolaa qilib, undan ta'lim olishga chorlaydi.

Ham istilochilar, ham mahalliy hukmdorlar zulmi kuchaygan XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida yashagan Anbar otin "Qarolar falsafasi" yoki "Risolai falsafai siyohon" nomli asarida o'zbeklarning ikki yoqlik zulmdan chekkan azoblarini alohida ta'kidlaydi. Kitobning nomi ramziy ma'noga ega. Shoira "qoralar" deganda, o'z davrining baxtiqora ayollarini nazarda tutgan. Buni asarning ikkinchi fasli boshlanishida keltirilgan: "Bu fasl man farqi qarolar taqdirini bayonig'a keltururman", degan satr ham tasdiqlaydi. Ayni holatda shoira "farq" so'zini ikki ma'noda, ya'ni omonim sifatida qo'llab, tajnis san'atini hosil qilgan. Uni izohlab, shoira yozadi: "Avvalo farq iborasi uldurki, ayollar boshini ikki qismga ajrari, peshonasidin, ya'ni burni ustidin ayriliq yo'l tushar, shul yo'lini farq deyurlar, ma'nisi ulki o'ng taraf va chap tarafni farq qilmoq uchun zarurdir. Ma'lum bo'ldiki, farq ayol boshidagi chiziqni nom olduk. Bas, farq ayol boshida bo'lsa, ul farq qay xilda bo'lmog'ini ham bilmoqni taqazo qilur.

Ayol sochini farqi har ikki tarafg'a barobar taralg'on bo'lub, nihoyat silliq bo'lg'onidan yaroqqos jilosi bo'lur, ul jilog'a nazar solub, bu ayol taqdirini nelar bilan o'turini muoyini tafakkur ko'zi ila ko'rib bo'lur".

Shu jumladan so'ng Anbar otin bu farq egasi – ayollarni "inson onasi" deya ulug'lab, "har nechuk donishmand enagasi" deya ta'riflaydi. Ul ona mohir va dono bo'lib, ulug' zotlarni tug'dirib o'stirganini yodga soladi. Shundan kelib chiqib, shoira dunyo ahlini xotin-qizlarni ulug'lashga da'vat qiladi.

Muhabbat birla sevgil, sen hama farqi qarolarni,  
Ayol deb yerga urma, xo'rlama farqi qarolarni.  
Chin idrok bo'lsa sanda, ul ono, singil erur sanga,  
Qilib nomusini poymol, urma farqi qarolarni.  
Qaro sochida har tori tilar sanga mudom oq yo'l,  
Qoaro niyat ila hech zo'rlama farqi qarolarni.  
Xotin-qizni maishatga yaratgon deb lainona,  
Yomon nafsing tomonig'a burma farqi qarolarni.  
Sen ham odam, ul ham ey ablah, kofir nechuk jonsan,  
Ki, yirtqich bo'ridek o'ldurma farqi qarolarni.

Xullas, Anbar otin xotin-qizlarni qorasoch, qorako'z, qoraxol, lolayuz, la'ldek lab, sadafdek tish egalari sifatida go'zal ekanini ta'kidlab, ularning shu husni jamoliga mos ravishda yarashiqli aql, farosat, himmat, g'ayrat, xizmat, mehnat fazilatlariga egaligini ham e'tirof etadi. Ularni asrab-avaylash, qadrlash lozimligini uqtiradi.

**Sadoqat Mamajonova,**  
*Namangan viloyati, Pop tumanidagi*  
*9-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

## NAVOIY DAHOSINI ANGLASH

Ma'lumki, Markaziy Osiyo qadimdan o'zining buyuk donishmandlari bilan jahon ahlini lol qoldirib kelgan. Ushbu hududdan yetishib chiqqan Beruniy, Forobiy, Imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi noyob ilm sohiblari o'z asarlari bilan dunyo tamadduni rivojiga katta hissa qo'shib, yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratgan. Buni biz o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast vakili, so'z mulkining sultoni va o'zbek adabiy tilining asoschisi Nizomiddin mir Alisher ijodida yaqqol ko'ramiz. Ul zot yaratgan har bir asarida ilgari surilgan g'oya, ko'tarilgan muammo nafaqat o'z zamonasi, balki barcha davrlar uchun xos bo'lgan ayrim masalalarning yechimi bo'la oladi.

Navoiy ijodi hikmat va tamsillar, har zamon, har davr uchun ham saboq bo'ladigan o'lmas g'oyalar, qarashlar ummoni shoirning ehtirosli, yoniq kalomi hamon qalbimizga nur sochib, yuksakka chorlaydi. Navoiy ijodi bamisoli bir obihayot – Xizr chashmasi, undan ichgan sari qalbingiz tozalanib, nurlanib boradi, ma'nan va ruhan ulg'ayib, kuch olasiz.

Shoir ijodining yuqori cho'qqisi besh dostonidan iborat "Xamsa" asari hisoblanadi. 1483-yilda ulug' o'zbek shoiri ijodida keskin burilish yuz berdi. Shu vaqtga qadar lirik she'rlar, g'azallar yozib nom chiqargan, devon tartib bergan shoir dostonchilikka qo'l urdi. Xamsachilik an'anasini ilk bor ojarbayjonlik ulug' shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab berdi va asarini "Panj ganj" ("Besh xazina") deb nomladi. Nizomiydan yuz yildan so'ng Xusrav Dehlaviy o'zining "Xamsa"sini yozib tugalladi. Oradan ikki yuz yil o'tib tarix sahnasida Navoiy va Abdurahmon Jomiy paydo bo'ldi. Jomiy boshqa xamsanavislardan farqli o'laroq "Xamsa"sini yetti dostonga yetkazdi va "Haft avrang" ("Yetti taxt") deb nomladi.

"Xamsa" deb nomlanishi uchun har bir asar quyidagicha mazmunda bo'lishi kerak edi:

- besh dostonidan iborat bo'lishi;
- birinchi doston pand-nasihat, odob-axloq mavzusida yozilishi;
- ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlanishi;
- uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini yoritishi;
- to'rtinchi doston shoh Bahrom haqida bo'lishi;
- beshinchi doston Iskandar haqida yozilishi shart edi.

Buyuk ijodkorning ijodiy rejalarini amalga oshirish uchun eng qulay shakl "Xamsa" edi. Shuning uchun Navoiy yana bir bor bu borada undan avval qalam tebratgan Ganjaviy va Dehlaviy "Xamsalari"ni muto-laa qilishga, ularning eng yaxshi tajribalari asosida o'z "Xamsa"sini yaratishga kirishdi.

Bu andeshadin erdi ko'nglimda shayn  
Ki bo'ldi ko'ngul moyili "xamsatayn"

"Xamsatayn" Nizomiy va Dehlaviy "Xamsa"lari hisoblanadi. Lekin bu ish oson emas edi. Salafar bilan ijodiy bahsga kirishmoq yuksak mahorat, katta mashaqqatni talab etardi.

Emas oson bu maydon aro turmoq,  
Nizomiy panjasiga panja urmoq.

Navoiy "Xamsa"ni yaratishda ikki maqsadni ko'zda tutadi. Bularning biri – turkiy tilda xuddi fors-tojik adabiyotida bo'lganidek ulug' asar yaratish. Ikkinchisi esa o'zidan oldingi yaratilgan "Xamsa"larni turkiyga tarjima qilib emas, balki avvalgi namunalar bilan tenglashadigan yangi asar yaratish.

Navoiy "Xamsa"si hajmi bilangina emas, mazmuni, badiiyati bilan ham o'z zamoni va jamiyati talablariga javob berishi zarur edi. Shuning uchun shoir bu asarni ko'zda tutib:

Shah olsa dog'i qilsun toji torak,  
Qul olsa ham anga bo'lsun muborak,

deb yozadi.

1485-yilda "Xamsa" yozib tugallandi. Bu turkiy tildagi birinchi "Xamsa" edi. Uni yozishga ikki yil sarflangan. Navoiy shu qisqa muddatda 51 ming misradan ortiq besh dostonni yozib tugalladi. U 1483-yilda "Hayrat ul-abror" falsafiy-axloqiy dostonini, 1484-yilda "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" dostonlari, 1485-yilda esa "Saddi Iskandariy" qahramonlik dostonini yaratdi. Navoiy bu ulug' asarning ikki yil ichida yozilganligini ta'kidlab, agar boshqa ishlar halaqit bermaganida uni olti oyda yozishi ham mumkinligini aytadi. Xuddi shunga o'xshash fikrni Navoiyning do'sti Husayn Boyqaro ham quyidagicha qayd etadi:

"Agarchi shayx Nizomiy nazm ahlining ustodidir,  
o'z "Xamsa"sini mashhur budurkim, o'ttuz yilda tak-

mil beribdur. Va mir Xisravkim, “Xamsa” abyoti adadin o’ttuz mingdin o’n sekiz mingga ixtisor qilibtur va shuhrati mundoq tururkim, olti-yetti yilda tugatib turur. Bu fasohat maydonining safdori va balog’at beshasi-ning g’azanfari bovujudi ulkim, ko’p afsonalarda dilpazir tafsirlar berdi va tab’ pisand islohlari qildi, bunyodining ibtidosidin savodining intihosigacha hamono ikki yildin o’tmadi va aytilg’an avqot hisobg’a kirsar ,desa bo’lg’aykim ,olti oyg’a yetmadikim, aning afsonalari ranginlig’in va abyoti sehroyinlig’in va tarokibi matonatin va maoniysi latofatin mutolaa qig’an kishi bilg’ay va mulohaza qilg’on kishi fahm qilg’ay”.

Ulug’ mutafakkirning ijodi to’g’risida Abdurahmon Jomiy ham o’z fikrlarini bildirgan:


“Ey(Navoiy), sening ta’bing so’z ustodidir. Qalaming ochqichi bilan so’z eshigini ochding .Ravnaqdan qolib ketgan va xorlik burchagidan o’rin olgan (turkiy) so’zga sen yangidan obro’ berding. Uni ijod maydoniga olib chiqding. U sening ra’ying nuridan safoli bo’ldi, lutfing navosi (boyligi)dan navoli (bahramand) bo’ldi”.

Shoirning turkiy til ravnaqini yuksaltirishdagi harakatlari haqida Maqsud Shayxzoda shunday yozadi: “Navoiy, haqiqatdan ham o’zbek adabiy tilining va o’zbek adabiyotining mustahkam poydevorini qurgan, dohiy adib xususiyatlarini o’zida jamlab olgan bir siymo edi. Fors-tojik klassik adabiyotida bir guruh ulug’ shoirlar bajarib ketgan vazifani tarix deyarli yakka Navoiy zimmasiga yukladi. U bu yukni sharaf bilan ko’tarib, manzilgacha yetkazgan mutafakkir edi”.

“Xamsa”asari XV asr adabiy an’analariga ko’ra yaratilgan bo’lsa ham, u o’ziga xos yangi asardir. Navoiy har bir dostonning g’oyasini o’z davri ijtimoiy-siyosiy talablaridan kelib chiqib belgilagan. “Xamsa” dostonlarining g’oyasi adolatni himoya qilish, kishilarda odamiylik hissini uyg’otishga intilish edi. Navoiy o’zining insonparvarlik g’oyasidan kelib chiqib, “Xamsa” dostonlarida Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar, Shopur kabi o’nlab adolat, ma’rifat, ezgulik, insoniylik, baxt-saodat, do’stlik, ishq, vafo uchun faol kurashuvchi, zulm va adolatsizlikning barcha ko’rinishlariga qarshi jang qilgan mard va qahramon, pokniyat va oqko’ngil, xalqparvar insonlarning yorqin obrazlari tasvirini yaratadi.

Farhod haqida shoir:

*Birovkim yig’lab, yig’lab ul zor’  
Topib ko’ngli el ozoridin ozor  
Bo’lib el anduhidin ko’ngli g’amnok,  
Yaqo choking ko’rub, ko’ksin qilib chok.*



Navoiyning bizga qoldirgan buyuk merosi jahon xalqlari e’tirofiga ham sazovor bo’lib, qator tillarga tarjima qilingan. O’lmas asarlari bugungi kunga qadar chuqur o’rganilib, boyitib kelinmoqda.

Hozirda mutafakkirning nurli siymosi aks etgan haykallari Navoiy, Samarqand, Toshkent, qolaversa, Tokio, Boku, Moskva, Vashington kabi dunyoga mashhur shaharlarida qad ko’tarib turibdi. Bu esa Navoiy dahosi yaratgan asarlar yer yuzining turli nuqtalarida keng o’rganilayotganidan dalolat beradi. Zero shoir aytganidek:

*Har bir kalla, har bir bosh,  
Jaholatdan qo’rqishi kerak.  
Har bir bola , har bir yosh,  
Navoiyni o’qishi kerak.*

**Maftuna Xalova,**  
*Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, filologiya  
fanlari bo'yicha falsafa doktori*

## AYOLLAR SHE'RIYATIDA DAVR VA JANR POETIKASI

Ma'lumki, epik asarlarga nisbatan lirika biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida tug'ilgan ruhiy kechinma fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi. Lirikada ifoda etilgan inson tuyg'usi, kechinmasi, ma'naviy olami xuddi shu insonning o'zini ham, undagi lirik kayfiyatni tug'dirgan rang-barang sharoitni ham yaqqol tasavvur qilishga, idrok etishga yordam beradi. Tuyg'ular ko'lami va tabiati esa konkret va muayyan janrni taqozo etadi. Deylik, g'azalbop ohang va kayfiyatni ifoda etish uchun faqatgina g'azal janrining imkoniyatlari qo'l keladi, g'azalga muxammas bog'lash esa alohida o'ziga xos ohang, kayfiyat hamda unga muvofiq va mutanosib keladigan fikr-tuyg'ular silsilasini talab etadi. Bundan tashqari insoniyat tarixidagi turli davrlarda turlicha janrlarning yetakchiligi kuzatiladi. Romantizm davri adabiyotining eng muhim va sevimli janrlaridan biri g'azaldir. Biroq realizm, modernizm va undan keyingi bosqich lirikasi uchun g'azal janri unchalik ham muhim o'rin egallamadi, unga murojaat nihoyatda kamayganligi kuzatiladi. Bu hodisani doston janri tarixi va taraqqiyoti misolida ham kuzatish mumkin. Hozirgi zamonaviy doston romantizm davridagi dostonning realistik asoslari bilan to'yingan yangi modeli. Garchi zamonaviy dostonni ba'zi adabiyotshunoslar poema atashni ma'qul ko'rgan bo'lsalarda, ushbu atama bugungi kunda deyarli ishlatilmayapti, ijodkorlar bu turdagi asarlarini doston atamasi bilan taqdim etmoqdalar.

Umuman, dostonni ayollar she'riyati misolida kuzatganda janrning davr ruhi bilan bog'liq bo'lgan muayyan qonuniyatlari ko'zga tashlanadi. Masalaning qiziqarli va muhim jihati shundaki, 60-80-yillar she'riyatida yuzlab dostonlar yozilgani holda bugungi kunda adabiy jarayonda deyarli doston namunalari yaratilmayapti. Jumladan, ayollar she'riyatida ham.

Zulfiya butun ijodi davomida o'nlab dostonlar yaratdi. "Mushoira", "Quyoshli qalam", "Sharqning o'zi Ona bo'lgan hamisha", "Xotiram siniqlari" shular jumlasidan. Zulfiyadan keyingi davr shoiralari ijodida doston janriga mansub asarlar uchramaydi. Buning davr ruhi bilan, ijtimoiy hayot bilan bog'liq ma'lum sabablari ham bor, albatta.

Hayotiy, voqelikni izchil ko'rsatish bilan his-tuyg'u va kechinmalarni birgalikda aks ettiruvchi asarlarda epik tasvir bilan lirik tasvir, proza bilan lirika bir-biriga qo'shilib ketardi, uyg'unlashardi. Dostonlarda turmush, voqelik, bir tomondan qahramonlarning xatti-harakatlari va kechinmalari muayyan sujet asosida aks ettirilsa, ikkinchi tomondan, undan ta'sirlangan muammolar, kechinmalari, his-tuyg'ulari ifoda etiladi. XX asrning 60-yillaridan so'ng bunday tasvir prinsipi lirik qahramonning nutqiga, ya'ni monologiga o'rin bo'shatib berganligini S.Zunnunovaning "Ruh bilan suhbat", Zulfiyaning "Xotiram siniqlari" dostonlari misolida ko'rish mumkin.

Saida Zunnunovaning 1963–1966-yillarda yaratilgan "Ruh bilan suhbat" dostonini ko'zdan kechirsak, janr rivojidadagi muhim bir qonuniyat ko'zga tashlanadi. Mirtemirning "Surat", E.Vohidovning "Nido" dostonlariga mazmunan yaqin turuvchi bu asarda lirik jins qurilishiga xos ifoda tarzi yetakchilik qiladi. Shoira asarda urushning musibatlari qaddini bukolmagan ayolning boy ruhiy olamini ajoyib insoniy fazilatlarini ko'rsatgan. Doston ota mehridan benasib o'tgan o'g'ilning nikoh kechasidagi onaning iztirobli o'ylari-xotiralari tasviridan boshlangan. Ona qalbida ikki qarama-qarshi kechinma – farzandning baxt to'yini ko'rganidan shukronalik, shu kunlarga yetolmaganlar haqidagi g'am-anduhli xotiralar kurashadi. Doston yaratishdagi bunday lirik qurilish shakli bugungi dostonlarning aksariyati uchun xos bo'lib, lirik qahramon shaxsiyati asarning arxitektonik markazini tashkil etadi. Ona farzand kamolotini o'ylar ekan, beixtiyor suratga murojaat qiladi.

Bir nafas qo'ymadim men seni yolg'iz,  
Bir dam tanholikka tashlaganim yo'q.  
Sensiz yig'lamadim, kulmadim sensiz,  
Sensiz ko'nglimni ham xushlaganim yo'q.  
Seni yiqitgan o'q mening tanamda  
Butun jarohati bilan turibdi shundoq.  
Joningga jonimni ulab ming o'ldim,  
Azizim, oqargan sochlarimga boq [3,173].

Onaning munajoti suratga jon bag'ishlaydi. Go'yoki surat ona nidosidan larzaga kelib, tilga kiradi. Shu suhbat asosida doston sujeti harakatga kelib, davrning eng dolzarb muammolarini qamrab oladi. Muloqot natijasida ona ko'z o'ngida yoshligidan boshlab bugunigacha bo'lgan hayot sahifalari gavdalanadi. Ixchamgina ekspozitsiya qismidan so'ng muallif nutqi ona nutqi bilan qo'shilib ketadi. Muallif nutqining bunday polifonik xarakter kasb etishi dostoniy tafakkur tizimiga xos bo'lib, lirik she'riyatda kamdan kam uchraydi.

Dostonning har bir yetuk namunasi o'z davrining, o'z zamondoshlarining ma'naviy-psixologik olamidani darak beradi. Mabodo "Ruh bilan suhbat" dostoni bugun yozilganida, kitobxonda o'z vaqtidagidek katta qiziqish uyg'ota olarmidi?! Menimcha, yo'q. Chunki unda XX asrning 50-60-yillari uchun muhim sanalgan masalalar, muammolar, tarix elab ulgurmagan voqelikning harakat-holati aks etgan. Xuddi shuning kabi Zulfiya "Xotiram siniqlari" dostonini yigirma yil, o'ttiz yil ilgari yozishi mumkinmidi?! Bunga ham yo'q deb javob beramiz. Chunki, "Xotiram siniqlari" aynan Istiqlol davrining mahsuli. Zotan, endigi qahramon o'n besh yil, yigirma yil oldingi qahramon emas.

Qolganda azoblar iskanjasida,  
Ota, bir ko'rmadik ko'zingizda yosh.  
Yashab umidlarning pok sajdasida,  
Hatto yovingizga otmadingiz tosh [1,262].

Inson umri davomida ishonib, e'tiqod qilgan g'oyasidan, yupanchidan judo bo'lsa, qanday ahvolga tushadi? Uning psixologiyasida kechgan zilzilalar silsilasini chamalab bo'larmikan?! Bu satrlar Istiqlol arafasidagi zamondoshimizning qalb nidolari, dil tug'yonlari emasmi? Ha, shunday. Chindan ham "Xotiram siniqlari"da XX asrning 80-yillari oxiri, 90-yillari boshida kechgan davr nafasi, xalq ruhiyati o'z ifodasini topgan. "Kecha mag'zi butun bo'lgan aqida / bugun o'lib ketgan toshbaqaning / kosasiday bo'm-bo'sh" [4,209] bo'lib yotganligi shoiradan xotira siniqlari xususida so'zlashni talab qilgan. Lirik qahramon nutqi umumxalq hayotining kolliziyalarini, shaxsning teran ruhiy olamini, jamiyat hayotining turfa jabhalaridagi muhim masalalarni o'zida ifoda etadi. Shoira lirik qurilishiga xos tarzda hayot manzaralarini assotsiativ uzviylikda ko'rsatadi. Bu esa shoiraga voqeaband sujetsiz ham hayotning muhtasham manzarasini aks ettirish imkonini bergan.

"Xotiram siniqlari" yozilganda shoira 80 yoshda edi. "Hayot varaqlari"dagi romantik ko'tarinki kayfiyatdagi lirik qahramon 1995-yil yozilgan "Xotiram siniqlari"ga kelib shafqatsiz realizmga yuzma-yuz keldi. Bir tuzum boshqa bir tuzumga, bir mafkura boshqa mafkuraga joy bo'shatdi.

Hurriyat, keldingmi – nahotki kelding,  
Pinhona sog'indim, pinhona kutdim...  
Yomg'irga bag'rini bergan sahrodek,  
Sening nasimingga qalbinni tutdim.

"Pinhona sog'inib", "pinhona kutmoq" – bu 80 yoshli shoironing xotira siniqlaridan zada bo'lgan qalb nidosi, munojoti, dil iqrori. Nafaqat bu yoshda balki Zulfiyadan o'n, yigirma yosh kichiklar ham bu achchiq haqiqatni tan olishmadi. Zulfiya she'riyatining badiiyatini va abadiyatini belgilagan omillardan biri ham shu haq va haqiqatga ishonch, yorug' kunlarga umidvorlik bilan qarashda.

Zulfiyaning "Xotiram siniqlari" dostoni o'tgan asrda o'zbek xalqi boshdan kechirgan hayotning poetik talqinidan iborat.

Tushlarimda topib akam jasadin,  
Otamning yoniga qazitdim qabr.  
O'zim yonganimda ruhlar yondi deb  
Xokiga suv sepib, tiladim sabr.

Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzoq,  
Taqdir peshonaga yoziq deyishdi.  
Yoziqni devorga urdim-u biroq  
Men sindim, qonimdan g'ishtlari pishdi [1, 264].

Mustabid tuzumning qatli qushlari, qatag'onlari, surgunlari, yetmish yildan ziyod davom etgan nobop siyosati va buning natijasida tarixi toptalsa-da, udumlari ta'qiqlarga uchrasa-da, biroq irodasi bukilmagan, o'zligini anglab borayotgan xalqning g'amgin siymosi shoira o'ylarida tug'ilgan og'riqlarning, xotira siniqlarining kolliziyasini belgilaydi [5,10].

Chindan ham qalb va tafakkur zamonaviy dostonlarning sujetini harakatga keltiruvchi kuchga aylanib bormoqda. Istiqlol arafasi va undan keyingi yillarda ham voqeabandlikka asoslangan doston namunalari ijod etilmayapti.

Kecha, bugun, erta... Bu falsafiy tushunchalar zamirida uzviylik va bir butunlik mavjud. Zamonning insonga munosabati, insonning davrga munosabati nuqtayi-nazaridan bu uzviylikda sezilar sezilmas uzilish bor, bu butunlikda bilinar-bilinmas xususiylik namoyon. Zulfiyaning "Xotiram siniqlari" dostonida ana shu uzviylikdagi uzilish, butunlikdagi xususiylik teran his etilib, falsafiy-badiiy talqin etiladi.

Ko'zgu atrofni mukammal aks ettirsa, siniqlari mukammallikdagi notugallikni, undagi darzlarni ko'rsatadi. Xotira ham ko'zguga o'xshash. Afsuski, mustabid tuzum siyosati qanchadan-qancha xotira ko'zgularini chilparchin etdi. "Xotiram siniqlari" ana shu haqda. Shu bois lirik qahramon ovozi siniq, shikasta.

Yallig'lanib yotar keksa xotiram  
Ichida shu dardlar, tig'li siniqlar... [2,8-14].

Shoironing bugungi, kechagi kunga munosabati voqelikni batafsil tasvirlash yoki bosqichma-bosqich hikoya qilish usulida ochilmaydi. Uning munosabati ichki psixologik kolliziya tufayli ro'yobga chiqadi.

"Xotiram siniqlari"ning fabulasi epopeyalarga asos bo'ladigan keng zamon va makon hududiga ega. Bu uning sujeti harakati uchun qulaylik yaratadi va tarixning ichki manzarasini chizishda qo'l keladi. Doston sujetidagi epiklik lirikaga yo'g'rilgan. Biz unda fabulaga ko'ra "Ko'kan", "Zaynab va Omon" dostonlarida bo'lgani kabi tugallangan biror epik voqeani, maromiga yetib tasvirlangan biror epik hayot bo'lagini ko'rmaymiz. Barcha tarixiy hodisalar shoira his-hayajonlari, so'roqlari, xitoblari, e'tiroflaridan o'rin oladi. Doston shoira oilasi tarixidan tashkil topgan. Shoira oilasi tarixini to'liq aks ettirganda tom-tom asarlar paydo bo'lardi. Bugungi doston tabiatini yaxshi bilgan shoira ana shu oila tarixidan ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan, davrning xarakterli qiyofasini aks etishga qodir bo'lgan voqealarning muhim chizgilarini qalamga oladi. Shuning uchun dostonida epiklik ko'rinmaydi, epiklik his qilinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Зулфия. Сайланма. Т.: "Sharq" нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2015, 271-бет.
2. Зулфия. Хотира синиқлари//Саодат.№5. – Б. 8-14.
3. Саримсоқов Б., Халилов Т., Қурбонбоев Б. Саида Зуннунова. Ўзбек адабиёти. Дарслик-мажмуа. Т.: Ўқитувчи, 1993, 173-б.
4. Фахриёр. Аёлғу. Шеърлар, дostonлар. – Т.: Шарқ, 2000, 209-бет.
5. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979, 10-б.
6. Умурова Г. Зулфия бадийи олами ва поэтик мактаби. Ф.ф.д. (DSc) дис.автореферати, Самарқанд, 2019, 15-б.



**Elena SURMILOVA,**  
*Urgench State University, English Language and  
Literature Department, a teacher*

## FEMINIZATION OF THE ENGLISH LANGUAGE IN MODERN SOCIAL CONTEXT

Language is a dynamically developing system that is influenced by the processes and changes taking place in society. Social factors and related significant transformations in the life of society, primarily the involvement of women in all spheres of social activity, changes in the professional status of women, affect all levels of the language and lead to its changes. One of the main trends characterizing the modern language is its feminization.

The feminization of language is a natural modern process that is happening in many European countries and their languages, developing under the influence of feminist language criticism, or feminist linguistics. Feminist linguistics is a socio-linguistic direction that appeared in the 1960s influenced by the New Women's Movement in the United States and Germany, which sought equal rights for women and men in all areas of life. Among the brightest representatives of feminist linguistics in Germany are Z. Tremel-Plötz, I. Günterodt, M. Hellinger, L. F. Push.

The increased interest in gender manifestations in social communication is not accidental. Gender is one of the characteristics that most fully reveal the essence of an individual in society, and gender self-identification, affecting the deepest layers of personality, is the most important aspect of its formation. As I. Hoffman shows, "the deepest, innermost feature of a person is his belonging to a certain gender" [1: 7]; "femininity and masculinity in a certain sense are the essence, predecessors and original ways of expressing the essence that which can be instantly conveyed in any social situation, that which hits the very target when characterizing a person" [1: 19].

The sociological term "feminism" with the meaning "one of the directions of the women's movement, striving for a new understanding by women of their self, to eliminate the traditional distribution of social roles between a man and a woman" is today a semantic neologism. Another neologism, the term "sexism", derived from the Latin *sexus* (biological gender), refers to a relatively new sociocultural concept, which hides several phenomena that represent, directly or indirectly, discrimination of an individual based on gender, primarily discrimination of a woman by a man (the so-called "machismo"). Both above sociocultural concepts have found their application in linguistics, namely, in its new direction, which has received the name "gender linguistics" in European countries and in the USA.

The areas of activity of feminist linguists are the study of the role of language in the reproduction of the social behavioral model of inequality; analysis of the originality of women's speech behavior; reforming language usage to eliminate discrimination against women through language; development of language theory related to issues of language policy; interpretation of the peculiarities of the language of the so-called women's literature.

The complex interweaving of cultural, psychological and social aspects makes gender the subject of research in various sciences and disciplines. Gender is an interdisciplinary intrigue centered on the individual, determined by social and cultural status, and gender is an essential feature in comparing cultures.

There have been two stages in the study of gender in linguistics:

1. Until the 1960s, there were irregular attempts to establish the symbolic-semantic nature of gender to explain the extralinguistic motivation of the category of gender, for example, attributing semantics of strength, activity, energy to masculine nouns, and passivity, subordination, weakness to feminine nouns. One of the discoveries is that the gender category itself is able to influence the perception of the corresponding words and concepts.

The impetus for the development of gender studies was the discovery of exotic languages with masculine and feminine versions of the language. The study of these languages suggested the existence of gender oppositions in civilized languages. European scientists, in particular O. Jespersen, studied the features of male and female speech, established the specifics of the language competence of men, which manifests itself in the use of profanity, in the creative use of language resources, at the syntactic level - in the use of complex sentences and periods; for women - in a large number of foreign words, a tendency to euphemisms, greater conservatism in the use of language resources, at the syntactic level - in the use of complex sentences and elliptical constructions. The general trend is the formation of a scarcity of the female language in comparison with the male one.

2. Since the 60s of the 20th century, gender studies have been greatly influenced by sociolinguistics, the data of which have objectively proven that gender affects linguistic competence. A powerful stimulus for the development of gender studies was the feminist move-

ment in the USA and Germany. In feminist linguistics, two following trends have emerged:

study of the language in order to identify asymmetries - language sexism that imposes a certain picture of the world on native speakers, in which women are assigned a secondary role and negative qualities are attributed to them;

study of communication features in same-gender and mixed groups.

Many authors of Russia and the USA are engaged in the theory of the social situation (K.A. Dolinin [2], S.M. Ervin - Tripp [3], etc.). They offer different models of the situation and a different number of components that make up the situation. Traditionally, three factors have been recognized as the main components of a communicative situation - the speaker, the listener and the topic.

When studying the speech of two or more individuals, it is necessary to take into account the so-called status-role signs of communicants, which are manifested in the symmetry / asymmetry of social roles performed by speakers in a given situation, namely: "lower", "higher", "equal". With the symmetry of role relations, none of the communicants has any advantages due to the nature of the role.

In addition to role relations, among the parameters of the social situation that affect situational variability is the setting or place of the communicative act, however, the most interesting from the point of view of studying gender differences are the role structure, status, degree of success of the communicative act and its rituality.

The presence of a unified system of gender stereotypes in the communication space facilitates mutual understanding in society regarding the meaning of the concepts of male and female and creates a prerequisite for effective interpersonal communication, since it allows to reveal in communication not the general meanings of male and female, but the individual characteristics of communicators. We can say that the generality of the stereotype provides "understanding at a glance".

Talking about recent changes in the English language that were caused by gender and feminism, the following may be observed:

1. The usage of gender-neutral language, especially when it comes to pronouns. For instance, the use of gender-marked pronouns only to refer to the specific gender of a specific person. When it comes to neutral gender, the use of indefinite or definite article, or the

use of plural 3<sup>rd</sup> personal pronoun *they* has become more common. – Someone forgot his coat. – Someone forgot a coat/Someone forgot their coat.

2. The search for and usage of gender-neutral language for jobs and professions. If before pairs like *waiter/waitress* were common, now new lexical units, such as *food server*, are becoming more common.

According to some scientists, the language reform contributes to the revival of the culture of the language [4], but entails a number of controversial issues. The double designation of male and female persons in accordance with their occupation gradually leads to the fact that the masculine gender loses its marking and ceases to carry out the function of generalization. At the same time, everything that contains any signs of the masculine gender will henceforth be considered as exclusively inherent in the male sex, everything feminine - exclusively in the female sex. Therefore, sexism, the fight against which is the main goal of feminists, will not disappear from the language, as A. Bruhlmeier believes, but is being intensively introduced into it [5].

Thus, the positive significance of the functioning of gender stereotypes in the communication space is to ensure mutual understanding between representatives of social groups of men and women, as well as to create conditions for the continuity of such mutual understanding. This is especially important in modern civil societies, where traditional unifying ideas - ethnic, ideological, cultural and religious - are gradually losing their collective meaning, and the gender aspect of the concept of civil society has not yet been fully clarified. Society will not be stable if the gender stereotypes broadcast do not correspond to the actual ideas of men and women about each other and about themselves. In the latter case, interpersonal communication will include the exchange of gender meanings, that is, to a large extent, it will be reduced to a mutual clarification of the meanings of male and female, and not to communication between individuals. If such a clarification does not take place, then alienation may arise both between men and women, and between generations, since gender stereotypes will no longer be updated in the process of communication, and therefore will not be reproduced; a communication process that is not based on the commonality of gender stereotypes and is not accompanied by an intensive exchange of gender meanings can only be superficial, mechanical, utilitarian.

#### References

1. Гоффман И. Гендерный дисплей // Введение в гендерные исследования, 2001, Ч. 2 / отв. ред. С.В. Жеребкин.
2. Долинин К.А. ИмPLICITное содержание высказывания // Вопросы языкознания, 1983, № 6. – С. 37–47.
3. Эрвин-Трипп С.М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия. – Москва, 1975.
4. Helwig G. Frauen in Deutschland. Auf dem Weg zur Gleichstellung // Informationen zur politischen Ausbildung, 1997, Nr. 254. – S. 1-42.
5. Bruhlmeier A. Alibi-Feminismus – kein Gewinn für die Frauen / A. Bruhlmeier. – URL: [www.quicktimes.ch/bruehlm\\_alibi.html](http://www.quicktimes.ch/bruehlm_alibi.html).

**Yo'ldosh RAHMATOV,**  
filologiya fanlari nomzodi  
O'zRFA, O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti ilmiy xodimi

## XALQ MAQOLLARI VA OBRAZLI TAFAKKUR

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalq maqollarining obrazlari va ularning poydo bo'lish omillari haqida fikr yuritiladi. Maqollardagi badiiy tafakkur va ilk obrazlarning o'ziga xosligi, mifologik obrazlarning maqollardagi o'rni misollar yordamida asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** maqol, obraz, obrazlilik, badiiy tafakkur, evolyusiyasi, tarixiylik, dinamika, Ayamajuz, asotir, mifologiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются образы народных пословиц и факторы их возникновения. На примерах показано своеобразие художественного мышления и оригинальных образов в пословицах, роль мифологических образов в пословицах.

**Ключевые слова:** пословица, образ, образность, художественное мышление, эволюция, историчность, динамика, Аямаджуз, миф, мифология.

**Annotation:** This article discusses the images of folk proverbs and the factors of their occurrence. The examples show the originality of artistic thinking and original images in proverbs, the role of mythological images in proverbs.

**Key words:** proverb, image, figurativeness, artistic thinking, evolution, historicity, dynamics, Ayamajuz, myth, mythology.

Maqol ijtimoiy hayot fonida kishilik jamiyatining turmush tarzidan chiqarilgan falsafiy-axloqiy xulosalar sifatida individual shaxsga qaratilgan bo'ladi, shu bois maqollarning g'oyasi ham og'zaki va yozma adabiyotdagi singari inson va insonshunoslikdan o'zga narsa emas. Har qanday maqol mazmunida gumanizm mavjud bo'lib, shu g'oya ifodachisi sifatida obraz hamda obrazlilik yuzaga keladi. Bu xususda folklorshunos F.Bafoyev shunday deydi: "Xalq o'zining uzoq yillar davomidagi kuzatishlari natijasini muayyan obrazlarga singdirib ifodalagan. Ammo shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, xalq maqollaridagi obrazlar badiiy adabiyotdagi obrazlardan tubdan farq qiladi. Bu farqni ularning bir turdagi narsa, voqea-hodisa va shaxslarni umumlashtirib kelishi bilan izohlash mumkin"<sup>1</sup>. Haqiqatda, maqollardagi obraz badiiy asar tarkibidagi obrazdan keskin farq qiladi. Badiiy obrazda hol, kechinma, xarakter bo'lgani holda syujet davomida u o'zligini namoyon etadi va obrazning turlari shunga ko'ra farqlana boradi. Badiiy obraz hayotiy shaxsning umumlashma tipi bo'lib, syujetdagi harakatiga qarab ijobiy, salbiy xarakterga ega bo'ladi. Eng asosiysi, obraz hayotiy bo'lishi shart, ya'ni Aristotel ta'biricha, ijodkor xarakterida jahli tezlik, beg'amlik va shu kabi kamchiliklari bo'lgan odamlarni tasvirlar ekan, ularni qanday bo'lsa shunday (jahldor, beg'am qilib) va ayni chog'da go'zal odam qilib ko'rsatishi lozim<sup>2</sup>. Maqollardagi obraz badiiy obrazdan farqli umumlashma xarakterga ega bo'lib, ular ma'lum bir toifa, xarakter, xos kishilar, kasb egalari yoshi va qarindoshligi asosida shakllanadi. Maqollardagi obraz faqat bir yoqlama xarakterga ega bo'lib, dinamika mavjud emas, ya'ni maqol obrazi qat'iy ijobiy yoki salbiy xarakterli bo'ladi. Ko'p hollarda ularning xakteri o'z ziddi bo'lgan ikkinchi toifa kishisi orqali ochiqilanadi. "Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog' qoladi". Mazkur maqoldagi "yaxshi" va "yomon" tipik obrazlar bo'lib jamiyatdagi kishilarni guruhlab ifodalagan. Bu haqida professor B.Sarimsoqov shunday yozadi: "Maqollardagi obrazlilik g'oyatda o'ziga xosdir.

Ularda aks etgan shaxs, eng avvalo, konkret obraz sifatida ko'rinsa ham, biroq u o'ziga o'xshash shaxslarga xos tipik xususiyatlarning barchasini jamlagan holda aks ettiradi"<sup>3</sup>.

Maqollardagi obrazlar turli davr mahsuli bo'lib, u ibtidoiy tuzumdan tortib, quldorlik, feodalizm, sotsializm va bugungi istiqbol davrigacha bo'lgan voqelik asosida yuzaga kelgan. Maqollardagi obrazlarga qarab, maqolning qaysi davr badiiy tafakkurining hosilasi ekanligini aniqlash mumkin. Insoniyat tarixi odamzodning yaratilishi bilan boshlangan bo'lsa, tafakkuri ham ayni yaratilish bilan uyg'ondi<sup>4</sup>. Olam va odam munosabati asosida bu tafakkur charxlanib, o'zgarib, torayib, kengayib, yangilanib boraverdi. Buni fashohat va balog'atda tengsiz Qur'oni karim odamzodning uzoq o'tmishi haqidagi xabarlar bilan ma'nan dalillasa, bugungi ilm-fan arxeologik topilmalar: qoya toshlarda chizilgan suratlar, tosh, mis, bronza, sopol buyumlardagi bitiklar moddiy jihatdan asoslaydi.

Har qanday badiiy va amaliy san'at asari avvalo inson tafakkurida shakllanadi. Uni biror buyum, narsaga ko'chirish oldidan odam taffakuridagi voqelikni tasavvuriga keltiradi va uni qo'li yordamida amalga oshiradi. Yaratgan chizma yoxud, biror idishda o'yib ishlangan suratlar uning badiiy tafakkuri hosilasi o'laroq, olam haqidagi tasavvuriy xulosalari sanaladi. Fan ibtidoiy odam ilk tassavvurlarda borliq va olamni g'ayrioddiy kuchlar boshqaradi deb bilishi va shu kuchlarni ko'z oldiga keltirishidan mifologik obrazlar yuzaga kelganini aytadi.

Jumladan, maqollarda uchrovchi dev, pari, jin, Ayamajuz kabi obrazlar ibtidoiy tasavvurlar hosilasi bo'lgan miflar ta'sirida shakllangan. Folklorshunos J.Eshonqulov bu borada shunday deydi: "Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni ibtidoiy ajdodlarimiz jonli holda tasavvur qilishgan: tabiat o'lik emas, tirik, inson tabiatni bir bo'lagi emas, balki tabiatning o'zidir. Shuning uchun kechadigan ruhiy kechinmalar tabiatga xos va unga bog'liq deb tushunilgan"<sup>5</sup>. Darhaqiqat, tabiatni tir-

ik tasavvur qilgan ajdodlarimiz unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, zilzila, to'fon va sellarning ortida qudratli qandaydir kuch bor deb tasavvur qilgan. Odam o'zi qodir bo'lgan harakatlarning ulkan shaklini tabiatda kuzatgan va shu sabab tabiiy hodisalarning bajaruvchisi sifatida o'ziga o'xshagan, biroq mislsiz qudrat, jismoniy jihatdan katta kuchni tasavvur etgan. Bu tasavvur nutq jarayonida turli qiyofalarda tasvirlangan. Shu tariqa xalq og'zaki ijodida mifologik obrazlar yuzaga kelgan. Mifologik obrazlar ko'pincha tabiatdagi biror hodisa bilan bog'liq yuzaga kelgan. Masalan, mo'l hosil, qut-baraka timsoli bo'lgan "Sust xotin" obrazi yomg'ir chaqirishda, dovul va yellar ekin va hosilga zarar yetkazmasligi uchun "Chuy momo" obraziga murojaat etilgan. J.Freyzerning "Xalq og'zaki ijodida mavjud bironta ham obraz soxta yoki yolg'on to'qima bo'lmay, u yoki bu tushunchaning epik timsolidir"<sup>6</sup>, – degan fikriga tayansak, mazkur obrazlar shunchaki to'qima emas, balki aniq xabarlar asosida shakllangani ayon bo'ladi. Chunonchi, Qur'oni karimning "Naziat" surasi 1-5-oyatlarida turli vazifalarni ado etuvchi (Amrning tadbirini qiluvchi) farishtalar zikr etiladi. Bu farishtalar borliqdagi barcha ishlarning: shamol, yomg'ir, rizq, umr va boshqalarning tadbirini qilib turishi tafsirlarda sharhlangan<sup>7</sup>.

Demak, Haq taoloning turli amrlarini bajaruvchi farishtalari mavjudligi haqidagi qadimiy axborotlar vaqt o'tishi, ilohiyotga munosabat, dindan uzoqlashish, uzilish natijasida xalq ongida Sust xotin, Chuy momo kabi epik obrazlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu kabi ilohiyotdan yiroqlashish, adashish asosida odam borliqda mavjud har bir narsaning joni bor deb tasavvur qilgan. Tabiat hodisotlari oldida o'z qolish, xotira qatlaridagi uzuq-yuluq axborotlar asosida ibtidoiy odam tafakkurida g'ayrioddiy hamda har narsaga qodir dev, pari, alvasti va yalmog'iz kabi epik obrazlar paydo bo'lgan. Mazkur obrazlar dastlab asotirlarda, afsonalarda, ertaklarda keyinchalik xalq maqollarigacha kirib kelgan. Aytish mumkinki, dev, pari yalmog'iz, jin kabi obrazli maqollar "o'z tarixi" (asotir asosida kelib chiqqan)ga ega. Bu obrazlar maqollarning qadimiyligini ko'rsatadi. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, bir vaqtlar o'z ma'nosida qo'llangan mazkur maqollar bugungi kunda faqat ko'chma ma'noda ifodalaydi. Jumladan, "Aziz momo olti kun, qahri kelsa – yetti kun" maqolining tarixiga nazar solsak, uning shunday asotir asosida paydo bo'lganini bilamiz: "Rivoyat etishlaricha, Ayamajuzning to'qson o'g'li bo'larkan, Ayamajuz kampir ularni to'qson kunlik qish kunlarida odamlarga azob keltirish uchun bir kundan tayinlar ekan. Ular navbat bilan o'rin almashib qish-qirovli kunlarni boshqarar ekan. Katta chilla kichigiga o'rin berarkan:

– Men kattaligimni qilib bo'ldim, endi sen o'zing bilasan, – der ekan.

Shunda kichigi uni savolga tutarkan:

– Xo'sh-sh, menga nimalarni qoldirdingiz?

Kattasining javobi quyidagicha bo'larkan:

– Nortuyaning o'rkachida qoldi, ukam, olarsan;

– Er yigitning yuragida qoldi, ukam, olarsan;

– Bo'y qizlarning bilagida qoldi, ukam, olarsan...

Bu "mening sinovimga shular dosh berdi, senam bir silkitib ko'r-chi", degani bo'larkan. Navqiron kichik chilla

akasining topshirig'ini bajarish uchun qor, ayozli izg'irin bilan hamlaga o'tarkan. Xullas, Ayamajuz o'g'illarining ishidan ko'ngli to'lmasa, qishning so'nggi olti kuniga o'zi egalik qilar va turli injiqliklari bilan ayozli kunlarni boshlab kelarkan..."<sup>8</sup>. Asotir ibtidoiy odamning tabiat hodisalarining anglashga bo'lgan urinishi natijasida xayoliy Ayamajuz va uning to'qson o'g'li Axman-daxman mifologik obrazlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

AYAMAJUZ arabcha "ayyom" va "ajuz" so'zlarining o'zaro qo'shilishi – "ayyomi ajuz"dan hosil bo'lgan. O'zbekchaga o'g'ir sak, "kampir kunlari", ramziy ma'noda qishning oxiri degani bo'ladi. Zero, ushbu davr qishning yakuni bo'lgani uchun yoshini yashagan, oshini oshagan tabarruk momolarga qiyoslangan<sup>9</sup>. Xalqda arabcha "ajuz" – kampir ma'nosida saqlanib qolgan va tabiiy o'zgarishlar sababli yuzaga kelgan o'sha noqulay kunlarga nisbatan salbiy qarash natijasida "Ayamajuz" obrazi paydo bo'lgan. Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar mazkur maqolni Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida keltirilgan bir lavha bilan shunday izohlaydi: "Shu oy ichida "kampir kunlari" bo'lib, uning boshi yigirma oltinchi shubotdir. U ketma-ket yetti kun bo'ladi. Kabisali yilda uning to'rt kuni shubot (fevral)ga, uch kuni ozor (mart)ga, kabisali bo'lmagan yilda uch kuni shubotga, to'rt kuni ozorga to'g'ri keladi. Qadimgilarning hikoyasicha, bu kunlarning "kampir kunlari" deb atalishining sababi shuki, bu kunlarni xudo o'z kitobida "yetti kecha va sakkiz naqs kun" deb bayon etgan. Qur'oni Karimning "Al-Haaqqoh" surasi oltinchi-yettinchi oyatlarida bayon etilgan. Od qavmi shu kunlarning qattiq sovuq shamoli, girdoblari va dahshatlari bilan halok bo'lgan. Ustiga paydar-pay yetti kechayu sakkiz kunlik quturgan bo'ronni hokim qilib qo'ygan. Ular jumlasidan bir kampir tirik qolib, halok bo'lganlarga marsiya aytib yig'lagan. Shuning uchun bu kunlar "kampir kunlari" deb atalgan<sup>10</sup>. "Al Haaqqoh" surasining 7-oyati matnida ayyom (kunlar) va a'jaz (tomir) kalimasi uchraydi (saxxoroha 'alayhim sab'a layaliv va samaniyata ayyamin xusuman fatarol qovma fiyha sor'a kannahum a'jazu naxlin xovi-yah), ya'ni "U Zot ularning ustidan bu shamolni yetti kechayu sakkiz kunduz "beminnat xizmat" qildirib qo'ydi. Bas qavmning u yerda halok bo'lib, ag'darilib yotganini ko'rsan. Ular xuddi xurmoning chirigan tomirlariga o'xsharlar". Mazkur sura tafsirida "Od qavmi qissasi" keltirilgan va oyat mazmuni shunday izohlangan: "Yeti kechayu sakkiz kunduzda esgan kuchli sovuq shamol Od qavmining avval kiyim boshlarini, keyin kishilarning terisini yirtib ularni parchalab tashladi. Yeti kechayu sakkiz kunduzdan keyin shamol to'xtadi. Bu paytga kelib Od qavmining barcha a'zolari tomiri qurib, g'ovak bo'lib qolgan xurmo daraxtlaridek qulab yotardilar. Ulardan birortasi ham tirik qolmagan edi"<sup>11</sup>.

Endi "ayyomi ajuz" birikmasini oyat mazmunidan kelib chiqib izohlasak, ayyom o'sha yetti kechayu sakkiz kunduzda esgan kuchli sovuq shamolli kunni, ajuz tomiri qurib, g'ovak bo'lib qolgan daraxt misol qulab yotgan Od qavmini tamsil etadi. Bu voqelik insoniyat xotirasida qo'rquv, xavotir, dahshat soluvchi manzara sifatida saqlangan. Ehtimol, O'rta Osiyo xalqlaridagi "Ayyomi ajuz", "Ayamajuz" birikmalarida shu xotirod kodlangan

dir. Keyinchalik esa u yangi talqin, yangi qarashlar bilan to'ldirilgan hamda tabiat va inson munosabatini ifoda etadigan asotirga aylantirilgan. Asotir asosida esa "Ayamajuz olti kun, olti oy qishdan qattiq kun" (1.56), "Aziz momo olti kun, sakanglasa – sakkiz kun, to'qanglasa – to'qqiz kun" (1.44) kabi maqollar paydo bo'lgan.

Maqollar bu kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Undagi obrazlarga ishonch yo'qolgan bo'lsa-da, qishning oxirgi kunlarida kutilmagan tabiiy o'zgarishlar bo'lishi va noqulay sharoitni yuzaga keltirishiga tayyor turish kerakligidan ogohlantiradi. Maqollardagi bu kabi obrazlar ramziy-majoziy xarakterga ega bo'lib, ularni to'g'ri anglash kishi tafakkuriga bog'liq. "Garchi har qanday obraz va hodisa zamirida voqelik yotganini inkor etmagan holda shuni ta'kidlash joizki, obraz va hodisalardan reallik izlash asarni yuzakilashtiradi. Obrazning tarixiyliги eng avvalo, unda mujassam etilgan ifoda va tasavvurda ko'rinadi. Bu ifoda hamda tasavvur turkiy xalqlarning birlamchi dunyoqarashlariga, shomonlik va ungacha bo'lgan davrlar tasavvurlariga mos va hozirgi kunga qadar ham shu tasavvurni tashiydi"<sup>12</sup>. Darhaqiqat, bu obrazlarni antogonistik nuqtayi nazardan izohlash mushkul, biroq quruq xayoliy tasavvur deyish ham mumkin emas. Bu timsollar xalq tafakkur tarixining, tasavvurining, dunyoqarashining bir qismi bo'lib, ularni to'g'ri izohlash orqali xalq og'zaki ijodiga aniq baho bera olamiz. Bu borada folklorshunos B.Sarimsoqovning mifologik tasavvur bilan bog'liq qarg'ishlar haqidagi xulosalari ham e'tiborli. Olimning fikricha, bu xildagi qarg'ishlar ibtidoiy kishilarning borliqda mavjud bo'lmagan, ammo ularning tasavvurlaridagina bo'lgan mifologik tushunchalari zamirida paydo bo'lganlar. Shu sababli qarg'ishlarning bu turida jin, alvasti, dev, ajdar, arvoх kabi mifologik obrazlar ishtirok etadi"<sup>13</sup>. Mazkur obrazlarning maqollarda qo'llanishini ham shunday izohlash mumkin.

Bir paytlar xayoliy tasavvur natijasida paydo bo'lgan obrazlar tadrijiy evolyusiya ta'sirida ilk ma'nosini yo'qotib boradi va u davrga mos yangicha xarakter ifodalovchi obrazga aylanadi. Jumladan, "Dev ham g'aribni urar"

maqolidagi "Dev" obrazi bir paytlar xalq e'tiqodiga ko'ra shakllangan g'ayrioddiy maxluqni ifodalagan bo'lsa, o'rta asrlarda quldorlarni, keyingi feodalizm davrida boy-zodagonni, hozirgi kunda esa hukmron doira va-killarini ifodalashda xizmat qiladi. O'z o'rnida "g'arib" obrazi ham davr taqozosiga ko'ra qul, kambag'al va nochor kishilar ma'nosida qo'llangan.

Dev obrazining maqollarga ko'chishiga xalqning ibtidoiy animistik qarashlari va diniy rivoyatlari sabab bo'lgan deyish mumkin. "Dev g'aribni uribdi, yasovul - po'stinini", "Sulaymon o'ldi devlar qutuldi", "Jin chalganni dev ham urar" kabi maqollardagi dev obrazi ham nihoyatda uzoq o'tmishni tasavvurda jonlantiradi. Xalq og'zaki ijodida dev obrazi qo'llanish jihatdan nihoyatda faoldir. Bu obrazni folklorning deyarli barcha janrlarida kuzatish mumkin. Folklorshunos J.Eshonqulov ta'kidlashicha, dev obrazining "Avesto"da ham iblis, ham iloh sifatida tasvirlanishining o'ziyoq bu obraz chetdan kirib kelmaganligi, aksincha, ajdodlarimizning qadim tasavvurlari mahsuli ekanligidan darak beradi<sup>14</sup>. Demak, xalq tafakkurida dev obrazi hali "Avesto" shakllangan davrdayoq mavjud bo'lgan. Maqollardagi dev obrazi doston va ertaklardagi dev obrazidan farq qiladi. Maqollarda dev obrazdan ko'ra kuch, qudrat, hokimiyat, mansab, amal ma'nosiga ishora etuvchi so'z o'rnida keladi. Dev so'zi ishlatilgan maqollar qadimiy asotir va afsonalarning ta'siri o'laroq ularning qisqarishi hamda ramziy-majoziy xarakterga ega bo'lishi natijasida hosil bo'lgan. Chunonchi, "Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi" maqoli afsona asosida, "Dev g'aribni urar" esa qadimgi asotirlar ta'sirida shakllangan barchaga ma'lum.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maqollarda insoniyat tarixining eng qadimgi davridan bu kungacha bo'lgan davri goh haqqoniy, goh ramziy, goh majoziy tarzda o'z ifodasini topib keladi. Zero, rus folklorshunosi V.Anikin va Yu.Kruglovlar aytganidek: "Birinchi maqolomuz iboralarning maydonga kelishi insoniyat tarixining dastlabki davrlariga borib taqaladi"<sup>15</sup>. Ularga to'g'ri yondashish orqali insoniyat tafakkur olamining tarixini real baholash mumkin bo'ladi.

1. Бафоев Ф. Ўзбек ва немис халқ мақолларининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021. – Б.98.

2. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 32.

3. Саримсоқов Б. Халқ тафаккурининг олмоқ қатрallari / Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент, 1981. – Б.41.

4. Bu Baqara surasi 31-oyatida: "Va u Zot Odamga barcha narsalarning ismini o'rgatdi" oyati bilan dalillanadi. Oyati tafsirida Haq taolo o'zining yerdagi xalifasi Odam alayhissalomga boshqa hech bir maxluqiga, hatto maloikalarga bermagan buyuk ne'mat ato qilgani – unga va zurriyotiga borliqdagi barcha narsa va hodisalarning ismini bildirib qo'ygani bayon etilgan. Qarang: Qur'oni azim tafsiri. Shayx Alouddin Mansur. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 97-bet.

5. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – Б.3.

6. Фрезер Дж. Фольклор в Ветхом Завете. – М.: ИГЛ. 1986. – С.35.

7. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. – Тошкент: HILOL-NASHR, 2019. –Б. 365.

8. <http://qashqadaryogz.uz/read/a-ri-atti-azhuz-momo>

9. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/ayamajuz-uz/>

10. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 22.

11. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. – Тошкент: HILOL-NASHR, 2019. –Б. 243.

12. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – Б. 7.

13. Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар. Ўзбек фольклори очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.146.

14. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – Б.10.

15. Аникин В.П., Круглов Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество. – Л.: Просвещение. Ленинградское отделение, 1987. – С.142.

Nodira MIRHAYDAROVA,  
Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

## RUS TILIDAGI “ДУХОБНОСТЬ” UMUMIY SEMALI LEKSEMALARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI

**Annotatsiya:** jahonning barcha tillaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimalar amalga oshirish uchun, aniqrog‘i soha mutaxassislari yuqori saviyali badiiy tarjimalarni yaratishi uchun yirik tipologik-lingvistik va leksikografik baza talab etiladi. Bunday qiyosiy va leksikografik bazalar sirasida eng keng qamrovlarining obyekti rus va o‘zbek tillaridir. Shu sababdan hozirda rus tili o‘zbek tarjimachiligida vositachi til vazifasini bajarmoqda. Xorijiy tillarni va xorijiy asarlar badiiy estetikasini nozik anglovchi tarjimon mutaxassislari endi yetishib kelmoqda. Shunday ekan o‘quvchilar talabini imkon qadar o‘z fursatida qondirish uchun o‘zbek tarjimonlarining jahon adabiyoti namunalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas rus tilidan o‘g‘irishi to‘g‘ri yechim bo‘la oladi.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, umumiy sema, leksikografiya, tarjima, adabiyot va san’at, sema maydoni.

**Annotation:** For translations directly from all languages of the world, a large typological-linguistic and lexicographic base is required, or rather, a typological-linguistic and lexicographic base is required from specialists to create high-quality literary translations. Among such comparative lexicographic databases, the most extensive are Russian and Uzbek languages. For this reason, the Russian language currently acts as an intermediary language in the Uzbek translation. Translators with a deep understanding of foreign languages and the artistic aesthetics of foreign works are becoming increasingly popular. Therefore, in order to satisfy the needs of readers as soon as possible, it is advisable to translate samples of world literature not directly, but from the Russian language.

**Key words:** spirituality, general seme, lexicography, translation, literature and art, semantic field.

**Аннотация:** для переводов напрямую со всех языков мира требуется большая типолого-лингвистическая и лексикографическая база, а точнее, от специалистов для создания качественных художественных переводов требуется типологически-лингвистическая и лексикографическая база. Среди таких сравнительно-лексикографических баз данных наиболее обширными являются русский и узбекский языки. По этой причине русский язык в настоящее время выступает в качестве языка-посредника в узбекском переводе. Переводчики, обладающие глубоким пониманием иностранных языков и художественной эстетикой иностранных произведений, становятся все более популярными. Поэтому, чтобы как можно скорее удовлетворить потребности читателей, целесообразно переводить образцы мировой литературы не напрямую, а с русского языка.

**Ключевые слова:** духовность, общая сема, лексикография, перевод, литература и искусство, семантическое поле.

Adabiyot va san’atning asos vazifalari haqida doim qizg‘in bahslar yuritiladi. San’at asarlari qatori badiiy asarlar ham kishida estetik go‘zallikdan zavqlanish hissini shakllantirishi kerak. Bu qutbga teskari fikr sifatida adabiyot va san’at nafaqat go‘zallikdan zavqlanish tuyg‘usini uyg‘otishi, balki kishida shu go‘zallikni tarbiyalay olishi, uning axloqiga ijobiy ta’sir o‘tkazishi, tafakkurini yuksaltirishi kerak, degan g‘oya ham ilgari suriladi. Mumtoz Sharq adabiyoti namunalari aynan shunday ruhda, didaktik maqsadlarni ko‘zda tutgan holda yaratilgan. Estetik go‘zallik va axloqiy kamolotni uyg‘unlikda targ‘ib qilish mumkinligini, bu bilan badiiy asar qiymati va saviyasi yanada yuksalishini mumtoz Sharq adabiyoti izdoshi bo‘lgan zamonaviy o‘zbek adabiyoti ham isbotlaydi. To‘g‘ri zamon zayli va boshqa tashqi, ichki faktorlar ta’sirida o‘zbek adabiyotida bayon shakli o‘zgardi. Biroq ezgulikni, yuqori axloqiy normalarni badiiy tasvir vositasida ifodalash o‘zbek mualliflari uchun ham asosiy maqsadlardan biri bo‘lib qoldi.

Umuman olganda jahonning eng yorqin, keng ko‘lamli e’tirofqa sazovor bo‘lgan barcha badiiy asarlarda yuqorida so‘z yuritilgan ikki unsur uyg‘unligini kuzatamiz. Ya’ni ularda estetik kategoriyalar bilan birga axloqiy hamda ma’rifiy normativlar mujassamlashadi – estetik jihatdan betakror bo‘lgan asar, albatta, yetuk ma’naviy sifatlarni o‘zida namoyon etadi. Shunday ekan

“ma’naviyat” umumiy semali so‘zlar yuksak saviyali badiiy asarlarda keng qo‘llanishi, axloqiy, ma’rifiy tushunchalarga bunday asarlarda alohida ahamiyat berilishi muqarrar. Bu o‘z navbatida ushbu vositalar tarjimasini tahlil qilishni, mavjud kamchiliklar hamda xatolarni bartaraf etish uchun tavsiyalar ishlab chiqishini talab etadi.

Olamni yaxlit bir sistema sifatida ko‘zdan kechiruvchi tabiiy fanlar falsafasiga ergashuvchi zamonaviy lingvistika ham o‘z tadqiq obyekti tilni bir butun tizim, undagi har bir element boshqasi bilan funksional yoki semantik uzvlar bilan chambarchas bog‘langan degan g‘oyani ilgari surmoqda. Ma’lumki, shu g‘oyalar asosida tilshunoslikda olamning lisoniy tasviri tushunchasi shakllandi. Tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi ham deb yuritiluvchi ushbu istiloh “ mantiqiy (konseptual) va lisoniy modeldan tashkil topgan mantiqiy so‘zli hosila” [4,259] ma’nosini anglatadi. Olamning lisoniy manzarasi yoxud tasviri o‘z navbatida barcha uchun umumiy bo‘la olmaydi. Zero, tillar orasidagi farqlar faqat tizmiy yoki leksik elementlar orasidagi farqlar bilan cheklanmaydi. O‘z navbatida olamning lisoniy tasvirida ham tafovutlar aksini topadi. Zotan, “olamni idrok etishning har bir til egasiga xos milliy shakli, olam haqidagi lisoniy tasavvurlar ifodasidir. Olamning lisoniy manzarasi idrok etilgan olamning ilmiy in’ikosi bo‘la olmaydi. Til etnosning jamoaviy ongini va hatto noilmiy

<p><b>MA'NAVIYAT</b> [a. axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar] Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, ahloqiy va sh. k. tushunchalari majmui. Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Masalan. Ma'naviyatimizga ta'sir etuvchi jihatlar shunchalik ko'pki, ularni sanab, sanog'iga yetib bo'lmaydi. Gazetadan.</p>	
<p><b>AXLOQ</b> [a. kishi-ning tabiati] muomala, xatti-harakat odobi. Aslini olganda, axloq – ma'naviyatning o'zagi. Gazetadan. Rahbar axloq-qidagi asosiy narsa so'z va ish birligini o'z faoliyatining mazmuni deb bilishdir. "Fan va turmush"</p>	<p><b>MA'RIFAT</b> [a. bilim, fan; ma'lumot; tanishish] 1 Ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat. 2 din. Tasavvufda har bir so'fiy ruhiy kamolotga erishish yo'lida bosib o'tadigan bosqich (maqom)lardan biri [2]</p>

<p><b>ДУХОВНОСТЬ</b> сущ. индивидуальная выраженность в системе мотивов личности двух фундаментальных потребностей: идеальной потребности познания; социальной потребности жить и действовать «для других» (такой подход чаще рассматривается как душевность) [8]</p>	
<p><b>МОРАЛЬ</b> сущ. 1. Нравственные нормы поведения, отношений с людьми, а также сама нравственность. Общечеловеческая м. Человек высокой морали. 2. Логический, поучительный вывод из чего-н. Отсюда м.: так поступать не годится. М. басни. 3. Нравоучение, наставление (разг.). Читать м. кому-н. прил. ~ный, -ая, -ое (к 1 знач.). [5]</p>	<p><b>ПРОСВЕЩЕНИЕ</b> сущ. просвещение – средство осуществления преемственности культуры; сообщение знаний людям; распространение знаний с помощью системы воспитательно-образовательных учреждений и мероприятий. [7] Знания, образованность, их распространённость. Заботиться о просвещении народа. [6]</p>

ongini ham o'zida mujassam etadi. Olam manzarasi doimo milliy-madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. U tarixiy voqealar, geografik sharoitlar va alohida xalqlarning etnopsixologik belgilari ta'sirida shakllanadi. Olam manzarasini baholaganda shuni anglash lozimki, u olamning aksi ham, olamga qaratib ochilgan darcha ham emas. U inson tomonidan talqin etilgan borliq, uning olamni anglash usulidir." [1,11]

Bundan kelib chiqadiki olamning lisoniy tasviri universal, ya'ni barcha millat, elat va xalqlar uchun tushunarli kategoriyalardan tashkil topadi. Universal tasvirdan quyiroq pog'onada esa olamning milliy lisoniy manzarasi turadi. Ushbu tasvir o'z ichiga bir tilda so'zlashuvchi xalq uchun umumiy, tushunarli bo'lgan konseptlarni qamrab oladi. Bunday konsept va tushunchalar boshqa tillar va o'sha tilda so'zlashuvchi kishilar uchun notanishdir. Tasvirning uchinchi turi esa olamning shaxsiy lisoniy tasviri bo'lib u bir individning olamni qanday idrok etishini namoyon etib beradi. Shu o'rinda savol yuzaga keladi – "ma'naviyat" umumiy semali leksemalar olamning lisoniy tasvirining qaysi pog'onasida turadi?

O'z tarkibida "axloq" va "ma'rifat" oraliq semalarini qamrovchi ushbu paradigma olamning universal lisoniy tasvirini tashkil etsa bu amalda ushbu maydon vositalari tarjimasiga muammosiz amalga oshirishini anglatadi. Agar ushbu vositalar olamning milliy lisoniy tasvirini tashkil qilsa ularning tarjimasiga murakkablashadi. Buni aniqlash uchun maydon gipersemasi bo'lgan "ma'naviyat" va oraliq ma'no guruhlari "axloq" va "ma'rifat" leksemasining lug'aviy izohiga e'tiborimizni qaratamiz.

Rus tilining izohli lug'atida ayni kategoriyalarni o'zida mujassam etgan leksemalar quyidagicha talqin qilinadi:

Maydon gipersemasi hamda oraliq ma'nolarini atovchi leksemalarning izohlaridagi parallellar shuni ko'rsatadiki "ma'naviyat" paradigmasi to'liq milliy lisoniy tasvir elementi bo'la olmaydi. Ushbu maydon qamrovidagi tushunchalar ham o'zbek, ham rus tillarida mavjud. Albatta, ushbu elementlarning lug'aviy va ifodaviy ma'nolari semik tarkibiga ko'ra bir-biriga nomutanosib bo'lishi mumkin. Zero, "bashariyat o'z aqlini taniganidan, ruh va vujudning farqini, hayotning ma'nosini, ezgulikning mohiyatini anglaganidan buyon ma'naviyat unga doimiy hamroh bo'lib kelayotganli"gi [3] zamonaviy tamaddunga dalildir. Shunga qaramasdan, ko'plab leksemalar ma'nosi, ular ifodalaydigan tushunchalar barcha millatlar va tillar uchun tushunarli kategoriyalardir. Shuning uchun "ma'naviyat" umumiy semali leksemalar guruhini binar tarkibli deb e'tirof etish lozim. Uning tarkibida olamning universal lisoniy tasvirini tashkil etuvchi elementlar bilan bir qatorda milliy lisoniy tasvir vositalari ham mavjud hamda bunday leksik o'ziga xosliklar barcha tillarda kuzatiladi. Bundan kelib chiqadiki ma'naviyat atov birliklari sirasida tarjimasiga qulay bo'lgan universal lug'aviy birliklar bilan bir qatorda tarjimasiga realiya sifatida yondashish kerak bo'lgan leksik vositalar ham mavjud.

Quyida rus tilidagi "axloq" semasiga ega so'zlarning o'zbek tiliga tarjimasini ko'zdan kechiramiz. Ijobiy ma'no-ga ega so'zlardan ba'zilar matn kontekstida qo'llanilganda ushbu vositalar ifodalovchi ma'nolar o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi. Я всегда уважал вас, всё равно как родителя... стригу вас всегда задаром... (А.Чехов, В циркульне) – Men sizni o'z otamday hur-

**mat qilardim...** hamisha sochingizni tekinga olib kelganman (tarj. O.Rahimiy, Sartaroshxonada); Что же, рано или поздно ему стоит узнать, если не он то мать все расскажет, прямая ведь. (Ч.Айтматов, Красное яблоко) – *Nimayam qilsin, ertami-kechmi, baribir, bilishi kerak, bu bo'Imasa, onasi aytadi, u to'g'ri so'z-ku.* (tarj. Komila, Qizil olma) Болтливость – напрасна, малословие – не бесполезна (поговорка) – **Mahmadonalik** foydasiz, **kamgaplik** – zarar emas (maqol).

Keltirilgan misollardan anglashilganidek axloqiy kategoriyalar, normalar, konsept va tushunchalarni ifodalovchi vositalar lisoniy universalialar hisoblanadi. Ushbu elementlar rus va o'zbek tillarida hajman, lug'aviy ma'nosiga ko'ra, kontekstual semik xususiyatlariga ko'ra hamda funksional parametrlariga ko'ra o'zaro mutanosibdir. Shu sababdan ushbu vositalar tarjimasida ham yuqoridagidek asliyatga mutanosib bo'la-veradi. Quyida ma'nosiga va uslubiy ekspressivlik darajasiga ko'ra o'zaro mutanosib "axloq" semasiga ega rus va o'zbek tillaridagi leksemalarni misol keltiramiz. Tarjimada ham ayni shu vositalarni qo'llashni tavsiya qilish mumkin.

“AXLOQ” SEMASIGA EGA SO‘ZLARINGRUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI O‘ZARO MUTANOSIBLARI	
безукоризненность – barkamollik	Угодный – ma'qul, qobil
великодушный – himmatli	пустозвон – mahmadona
воспитание – tarbiya	Улыбчивый – jilmayuvchi
прямодушие – samimiyat	Удалец – botir, jasur
равнодушие – loqaydlik	самовлюблённость – kibr-u havo
радушный – iltifotli, serlutf	самолюбие – izzattalablik
самоволие – o'zboshimchalik	тактичный – odobli, andishali
суровый – qattiqqo'l, badjahl	простодушие – soddalik
тонкий – noziktab	бескорыстный – ochiqko'ngil
топорность – qo'pollik, dag'allik	Приветливый – xushmuomala
трусость – qo'rzoqlik	Увиливать – haqiqatni tan olmaslik
Угодничать – laganbardorlik qilmoq	Усердие – g'ayrat
целомудренность (Строгая нравственность, чистота.)– axloqiy poklik.	

“Axloq” umumiy semali so'zlardan farqli o'laroq

“ma'rifat” ma'nosini o'zida tashigan leksemalar rus va o'zbek tillarida assimetrik bo'lishi mumkin. Chunki ushbu guruhga oid so'zlar tafakkur faoliyati bilan bog'liq leksemalar hamda e'tiqodiy tushunchalarni qamrab oladi. Aqliy faoliyatga oid leksemalarning aksariyati lisoniy universalialar bo'lgani holda e'tiqodiy tushuncha va konseptlarni ifodalovchi leksik birliklar har bir din uchun xususiy bo'lgan ma'nolarga ega. Rus va o'zbek tillarida ham diniy-e'tiqodiy tushunchalar farqli qutblarga borib taqaladi. Demak, rus va o'zbek tillarida ma'nosi va grammatik vazifasiga ko'ra to'laqonli parallel bo'lgan vositalar tarjimasida mutanosiblarni qo'llash talab etiladi. Bil-aks o'zbek tilda mavjud bo'lgan “ma'rifiy” leksemalar rus tilida o'z muqobiliga ega bo'lmagan holda ularni realiya sifatida izohlab tarjima qilish, yoki shu leksema ma'nosiga maksimal darajada yaqin so'z qo'llashni tavsiya etish o'rindir. Quyida o'zaro muqobil o'zbek va rus “ma'rifat” atov birliklari hamda o'zaro semantik jihatdan to'laqonli mutanosib bo'lmagan, biroq tarjimada variantdosh sifatida qo'llanishi mumkin bo'lgan juft leksemalarga misol keltiriladi

“MA'RIFAT” SEMASIGA EGA SO‘ZLARINGRUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI O‘ZARO MUTANOSIBLARI HAMDA VARIANTDOSHLARI	
Безрассудный – aqlsiz, befarosat	пытливый – serhafsula, sinchkov
Граммотей – bilimdon, savodxon	Полонничество – ziyoratchilik
Рассудок – aql, fahm, ong	Самодур – o'zboshimcha, kaltafahm
Расцветание – barq urish	Взвешенный – serfikir, sermulohaza
Самодетельный – tashabbuskor	Омовение – poklanish, tahorat
Самосозерцание – o'z-o'zini o'ylash	Умозаключение – mulohaza
Самосознание – o'zlikni anglash	Укоренить – ildiz o'tmoq
Таинство – sirlil ibodat	Просветитель – ma'rifatparvar
Твердолобый – kallavaram	Невежество – bilmaslik, jaholat
Творение – ijod mahsuli	Исповедь – iqror, tavba
Толковый – bama'ni, fahmli	Верующий – e'tiqodli, imonli
Философствование – falsafiy mushohada qilmoq	Чистилище – araf, poklanish makoni

Tarjimonning asliyatdan aynan nusxa ko'chirishi, hajman, mazmunan va grammatik konstruksiyasiga ko'ra aynan bir xil matnni boshqa til vositalari bilan yaratishi imkonsizdir. Badiiy tarjima muallifi qarshisida ba'zi hollarda tilning struktur o'ziga xosliklari, boshqa hollarda matn bayon uslubi turli chegara va cheklovlarni yaratadi. Shunday ekan, tarjimada to'liq shakliy, leksik birliklar soniga ko'ra muvofiqlikka erishish mutaxas-



sis uchun vazifa sifatida belgilanmaydi. Tarjimonning asosiy ishi badiiy matndagi mazmunni saqlab qolish, undagi ekspressiv vositalar uslubiy bo'yoqdorligini tarjimada aks ettirish va eng muhimi tarjima matnini o'quvchi uchun tushunarli, ravon hamda informativ bo'lishi ta'minlashdan iboratdir. Shunday ekan, lisoniy leksik

universaliya bo'lgan "ma'naviyat" umumiy semali so'zlar o'z ekvivalenti orqali, milliy lisoniy o'ziga xoslikni namoyon etuvchi leksemalar variantdoshlari yoki izohli tarjima vositasida o'girilsa, bu tarjimaning adekvatlik darajasiga salbiy ta'sir o'tkazmaydi deb ta'kidlash mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ikramova S. Alimdjanoynva olamning lisoniy manzarasida makon kategoriyasi va milliy o'ziga xoslik f.f.f.d (PhD) dis. avt. – Farg'ona, 2018-bet.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2006.
3. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom, 2010. 4-bet.
4. <https://ozhegov.slovaronline.com>
5. <https://ozhegov.slovaronline.com/27641M-PROSVESCHENIE>
6. <https://rus-ideographic-dict.slovaronline.com/4073-просвещение>
7. <https://ozhegov.slovaronline.com>: словарь терминов по общей и социальной педагогике

Murotali LATIPOV,  
GulDU mustaqil tadqiqotchisi

## IS'HOQXON IBRAT ASARLARI LEKSIKASIDA O'ZLASHMA QATLAM SO'ZLAR VA DAVR NEOLOGIZMLARI

**Annotatsiya.** Maqolada Is'hoqxon Ibrat asarlaridagi o'zlashma qatlam so'zlari, ularning mavzuviy tasnifi hamda nasriy va nazmiy asarlarida uchraydigan davr neologizmlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** leksik fond, o'zlashma qatlam, grammatik elementlar, neologizm, arabizm, ruscha-baynalmilal o'zlashmalar, til sathi, zoonim, antroponim, termin.

**Annotation.** The article deals with the words of the assimilation layer in the works of Ishak Khan Ibrat, their thematic classification, as well as neologisms of the period found in his prose and poetry.

**Keywords:** lexical fund, layer of assimilation, grammatical elements, neologism, Arabism, Russian-international assimilations, language level, zoonym, anthroponym, term

**Аннотация:** В статье рассматриваются слова ассимиляционного пласта в произведениях Исхак-хана Ибрата, их тематическая классификация, а также неологизмы периода, встречающиеся в его прозаическом и поэтическом творчестве.

**Ключевые слова:** лексический фонд, пласт ассимиляции, грамматические элементы, неологизм, арабизм, русско-международные ассимиляции, языковой уровень, зoonим, антропоним, термин

Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu esa o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tilida ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazgan va tilning deyarli barcha sathlarida o'zgarishlarni yuzaga keltirgan. Tildagi bunday o'zgarish boshqa sathlarga qaraganda leksikologiya bo'limida yaqqol namoyon bo'lgan.

Tilda ba'zi so'zlarning eskirishi natijasida iste'moldan chiqishi qonuniy holat bo'lgani kabi, yangi leksemalarning yuzaga kelishi ham tabiiydir. Yangilik buyog'i bor bo'lgan til birligiga neologizm deyiladi. Neologizm yunoncha neos – "yangi" demakdir. Tilda ikki holatda neologizmlar yuzaga kelishi kuzatiladi: 1) yangi voqelikning nomi sifatida; 2) avvalda nomlangan voqelikning yangi nomi sifatida.

Til birliklarining yangilik bo'yog'iga egaligi nisbiy holatdir. So'z har doim neologizm bo'lib turavermaydi. U keng iste'molga o'tishi bilan yangilik bo'yog'ini yo'qotib, odatdagi so'zlarga aylanadi<sup>1</sup>.

Is'hoqxon Ibrat asarlarida qo'llangan o'zlashma so'zlar ham o'sha davr uchun neologizm hisoblangan. Chunki o'zlashma so'z dastlabki davrda neologizm xarakterida bo'lsa-da, keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo'ysunishi, xuddi o'z so'zidek tabiiy va aniq bo'lishi, fonetik qayta shakllanishi, grammatik singishi, so'z yasash tizimida faol ishtirok etishi tufayli uning yot elementligi sezilmay qoladi. Is'hoqxon Ibratning "Lug'oti sitta alsina" ("Olti tilli lug'at") asarida o'sha davr uchun o'zlashma sifatida qabul qilish mumkin bo'lgan *kraxmal*, *kursi*, *qandil*, *kasalxona*, *limon*, *dorishunos* kabi ko'pgina leksik birliklar ham uchraydiki, bu holat Is'hoqxon Ibratni XX asr boshlaridagi o'zbek tili lug'at boyligini rivojlantirishga ham muayyan darajada hissa qo'shgan olim deyishimizga asos bo'la oladi<sup>2</sup>. O'zlashgan qatlam – o'zbek tiliga qardosh bo'lmagan tillardan turli davrlarda o'zlashgan so'zlardan tarkib topadi. Tarixda fors-tojik, arab tillaridan ko'plab so'zlar o'zlashgan. Keyingi davrlarda rus tilidan so'z o'zlash-

tirish kuchli bo'lgan<sup>3</sup>. Dunyo tillari orasida faqat o'z lug'at boyligiga tayanib, og'zaki va yozma muloqotni amalga oshiradigan birorta til yo'q. Til sathlari orasida eng o'zgaruvchan sath leksik qatlam hisoblanib, xalq va elatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy munosabatlarini, hududiy birlik, madaniyatdagi yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji sababli bir tildan boshqasiga so'zlar o'zlashadi.

O'zbek tilshunosligida leksikologiya bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarda yot tillardan o'zlashgan so'zlar, asosan, uch guruhga, ya'ni arabiy, forsiy va ruscha-yevropacha so'zlarga ajratilib tadqiq etiladi. Tilshunos olimlar G. Abdurahmonov hamda S. Mamajonovlar ham o'zbek tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni tizimlashtirgan holda quyidagicha tasniflashgan: 1) arab tilidan o'zlashgan so'zlar; 2) fors-tojik tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar; 3) 1917-yilgi oktyabr to'ntarishidan keyin o'zbek tilida paydo bo'lgan rus-baynalmilal so'zlari.

Is'hoqxon Ibrat nasriy va nazmiy asarlarining lug'aviy tarkibidagi forscha, arabcha va ruscha o'zlashma so'zlarni mavzuviy guruhlar bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin. Forscha o'zlashmalar:

**1. Narsa-buyum nomlarini ifodalovchi so'zlar:** *parda, toj, taxt, xirmon, xok, gavhar, chimmat, zanjir, zahar, qog'oz, kamar, sham, durbin//durobin, chodir, gardish, domon//doman, ro'mol, zar, tarozu, belbog', aroba, gugird, dom, dori, ful//pul, giribon, dar, dahana, xisht, gard, paymona, darvoza, xas, surma, pul, namak, noma, rishta, afsar, ohan, otash, charx, dud, oyna, guhar, dor, rishta, sim, chimmat, ko'za va b.*

**2. Qarindoshlikni anglatuvchi nomlar:** *birodar, do'st, farzand, hamroh, oshno, jigarpora, domod, zan, pusht, mehmon, mezbon, damsoz, xesh, oshno, padar va b.*

**3. Mansab va kasb-kor nomlari:** *shoh, savdogar, dehqon, so'fi, podshoh, usta, xo'ja, rahbar, do'kondor, eshon, sozanda, duradgor, gado, nonvoy, dahogin, xoja, ustoz, mardikor, dahon, ohangar, payk, joh, sarkor va b.*

**4. Tabiat hodisalari va koinot jismlarining nomlari:** *bahor, gardun, hur, axtar, osmon, moh, sitora va b.*

**5. Fitonimlarni ifodalovchi tushunchalar nomi:** *sarv, gul, nargis, sabza, paxta, alaf, giyoh, dona, kunjut, bang, barg, daraxt, xirmon, lola, meva, g'uncha, rayhon, karam va b.*

**6. Zoonimlar:** *ohu, murg', darranda, mohi, sher, zog' va b.*

**7. Mavhum tushunchalarni bildiruvchi so'zlar:** *dard, umid, baxt, anduh, andisha, afg'on, bahona, gumon, gunoh, fig'on, sharm, ozod, motam, bazm, orzu.*

**8. Oziq-ovqat nomlari:** *non, osh, go'sht, xo'rdani, xo'rish, palov va b.*

**9. Diniy tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi so'zlar:** *Xudo, pari, motam, namoz, musulmon, afsona, payg'ambar, jon, parizod, banda, behisht, gunoh, ajdaho, zunnor va b.*

**10. Harbiy terminlar:** *sipoh, tiyr, nayza.*

**11. Odam va hayvon a'zolari nomi:** *tan, chehra, dil, lab, zulf, chashm, zagon, ustuxon, xol, poy, diyda,*

*dandon, miyon, go'sh, gardan, og'ush, panja, badan, xun, dimog', bozu, ruh, mardum, ro'y, kokil, dahan, dast, kamar, sar.*

**12. Belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar:** *sho'r, guliston, toza, mehribon, dilbar, bemor, kambag'al, parishon, bandi, barno, durdona, daroz, baland, past, xo'b, dardkash, shirin, biyobon, mastona, xasta, sargardon, parvona, aftoda, ko'hna, xursand, mast, mardona, dilozor, pokiza, gung.*

**13. Vaqt, zamon tushunchasi bilan bog'liq so'zlar:** *bahor, dam, shom, hafta, jahon, zamon, shab, yaldo, shabiston, goh.*

**14. Shaxsni anglatuvchi so'zlar:** *jonon, yor, juvon, mardum, banda, kas, mard, bonu, bachcha.*

**15. Joy tushunchasini ifodalovchi so'zlar:** *zamin, saroy, ko'cha, shahar, gulzor, bog', hovli, biyobon, mozor, maydon, joy, mayxona, dasht, ko'h, go'r, bozor, korxon.*

**16. Bog'lovchilar:** *chunki, garchi, yoki.*

Ko'rinadiki, mazkur davrda tojik tilidan o'zlashgan so'zlar o'zbek tilining o'z so'zlari qatorida turmush uchun zarur tushunchalarni anglatgan. Ibrat asarlarida forsiy so'zlar qatnashgan misollarni kuzatsak: 1) **Ansorki ahli Madina, muhojirki ahli Makkadurlar, o'rtalariga birodarlik solub, birodari zohiriyni birodari botiniy arqoni bila boyladilar, mahkam qildilar, chunonchi, akdi rasul botin edi, payg'ambarlikki rasuli zohirdur, muayyad qildilar<sup>4</sup>;** 2) **Forsiy lafzi birla namakon – namak kondur. Muni(ng) ma'nisi shul eskanki, bizni Chig'atoy tilida asli gon yo'q, bu shevai forsiydur (TA, 96-bet);** 3) **Har kim o'lganini aytub yig'lar. Uchinchi kuni yetti degan ish. Xotunlarga munda ham yig'i-sig'i, tavajjuhgirlar kelur. Munda yana sarf. Panjshanba kuni kelib, shabi panjshanba degan osh...emdi o'likka (TA, 115-bet);** 4) **Kassobu qo'yfurushlar – jangu jadal urushlar, bechoralar fuliga go'sht ustixon bo'lubdur (TA, 33-bet).**

Yuqoridagi nasriy va nazmiy asarlari matnidan olingan misollarda *birodar, namak, shab, ustixon* kabi forscha so'zlar qatnashgan. Muallif *namak* so'zining forsiy ekanligiga o'zi izoh berib o'tgan.

Turkiy tillarga arabcha o'zlashmalar va grammatik elementlar o'sha davrda islom dinining targ'iboti ta'sirida kirib kelgan. VIII-XV asrlarda ulkan xalifalik davlatining barpo etilishi va Markaziy Osiyo xalqlariga islom sivilizatsiyasi kirib kelishi natijasida boshqa tillar qatorida turkiy tillarga ham arabizmlar o'zlashishiga qulay sharoit yaratildi. Bugungi kunda, xususan, o'zbek tili leksikasida arabcha o'zlashmalar 20 % ni tashkil etadi<sup>5</sup>.

Ibrat qo'llagan arabiy so'zlarni quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratish mumkin:

**1. Diniy-afsonaviy tushuncha va tasavvur nomlari:** *ruh, fol, abul bashar, ahodis, vahdat, vojib, vojib ul-vujud, zulfiqor, kalomi qadim, kuffor, muvahhid, mushrik, sahoba, sirot, sunniy ul-mazhab, tavhid, xatmi Qur'on, mo'min, g'ayb, jannat.*

**2. Ilm-fan bilan bog'liq tushunchalar nomi:** *kutub, manqaba, ma'ol, maoniy, muxobara, sanoe', tadvin, funun, ariza, fan, qalam, madaniyat, ilm, sahna, san'at, sahifa, kitob, rasm.*

**3. Makon-zamon tushunchalari bilan bog'liq so'zlar:** *avon, azal, aknof, alhol, arz, aflok, kurrai arz, mavzi', maqarri hukumat, tavorix, Mag'rib, Mashriq, mamlakat, qal'a, masjid, sahar.*

**4. Belgi-xususiyat anglatuvchi so'zlar:** *zolim, mazlum, munis, qallob, harom, faqir, aziz, ahmoq, mag'rur, asir, mag'lub, asabiy, qimmat, vahshiy, g'ofil, miskin, ulfat, mahbus, fotih.*

**5. Antroponim va toponimlar:** *Laylo, Ra'no, Adan, Rasul, Huvaydo, Sulaymon, Misr, Ayman, Rahim, Shirin, Ka'ba, Shom, Fir'avn, Mashrab, Sa'diy, Odam, Ismoil, Umar, Usmon, Yasor.*

**6. Mavhum tushuncha ifodalovchi so'zlar:** *balo, davo, xayol, qimmat, hayot, qadr, hol, haq, la'nat, fikr, ta'sir, nur, alam, zulm, muqaddas, saodat, jahl, umr, g'am, arz.*

**7. Mansab, unvon, kasb-hunar tushunchalarini anglatuvchi so'zlar:** *tolib, kotib, sulton, hoji, noshir, xodim, tujjor, muxbir, jarroh, muhandis, hakim, mudarris.*

**8. Inson tomonidan yaratilgan narsa-buyumlar nomi:** *marqat, ma'vo, ma'kulot, qabr, rasm, taom, sandal, imorat, sandiq, kabob, libos, xamir, shakar, atlas, mato, sikka, mansujot.*

**9. Qush, parranda va hayvon nomi:** *bulbul, tovus, hayvon, mol.*

**10. O'simlik va daraxt nomlari:** *sunbul, rayhon.*

**11. Inson va jamiyat tushunchasi bilan bog'liq so'zlar:** *anom, a'lam, ahkom, ahvod, mannuha, ma'shar, millat, ism, odam, inson, majlis, xalq, xaloyiq.*

**12. Etikaga oid nomlar:** *shukur, hazrat, taklif, tabassum, va'da, muborak, hurmat, xayr, tasadduq, takalluf, marhamat.*

**13. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari:** *alfoz, lafz, lison, sukun, tavzih, hikoyat, taxallus, alifbo, ijod.*

**14. Harbiy terminlar:** *asbobi harb, zobit, muxoraba, muhosara, muqofizat, solor, g'oziy, sayf.*

**15. Ijtimoiy-siyosiy terminlar:** *sarir, inqilob, iqtisod, istiqloq, ittihad, hukumat, muxolif, muqovola, muxtor, davlat.*

Ibrat asarlarida qo'llangan arabcha o'zlashmalar kishilik jamiyati hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga kirib kelgan. Tadqiqotchi M.Amonov arabcha o'zlashmalar bugungi kunda ham barcha sohalarida faol qo'llanishini ta'kidlaydi<sup>6</sup>.

O'zbek tiliga rus tili orqali o'zlashgan so'zlar bir qancha fonetik hamda morfologik belgilarga ega<sup>7</sup>. Ibrat asarlarida rus va u orqali o'zlashgan yevropaviy leksik

birliklar alohida lug'aviy qatlamni tashkil etadi. Ularni quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratish mumkin:

**1. Antroponimlar:** *Kaufman, Samsu'nov.*

**2. Toponimlar:** *Maskov, Rusiya, Petrograd// Petrograd, Ades, Fransiya, Faris//Farish, Berlin, Vena, Madrid.*

**3. Vaqt, son-miqdor tushunchalarini ifodalovchi so'zlar:** *mart, desyat.*

**4. Savdo va moliya sohasiga oid terminlar:** *belat, kridit//kredit, summa, zakaz, torgovli.*

**5. Ijtimoiy-siyosiy terminlar:** *rayon, sud, partiya, zakun, sud, rapurt.*

**6. Sanoat va transport sohalariga oid nomlar:** *vagon, traktur, avtomobel // aftomobel, konka // ko'nka, foyiz, iliktr // elektr, ayruflon.*

**7. Narsa-buyum nomlari:** *kamzul, tort, samovar // samovar, ko'fiya, lampa // lamfa, gramafon, fonar.*

**8. Mansab-martaba va kasb-kor tushunchalarini anglatuvchi so'zlar:** *general, gubernator, imperatur, do'xtir, gosudar.*

**9. Oziq-ovqat va ichimliklar nomi:** *tort, fiva.*

**10. Aloqa sohasi leksikasi:** *tilifonist, tilifun, tilgirom // telegram, tilfonogram.*

**11. Etnik nomlar:** *o'rus, farang, yunon, lotin, nemis.*

**12. Harbiy sohaga oid terminlar:** *geniral.*

**13. O'rin-joy tushunchasini ifodalovchi so'zlar:** *vokzol, adres.*

**14. Madaniyat, san'at va maorifga oid terminlar:** *jaz, ro'l, gimnastika, gazet, jurnal // jurnol, slovar.*

**15. O'simlik tushunchasini ifodalovchi so'zlar:** *pomidor, karto'shka.*

XX asr boshlarida rus tilidan o'zlashtirilgan aksariyat so'zlar o'z talaffuzida berilmay, o'zbekchaga moslab yozish hodisasi kuchli bo'lgan. Bu xususiyat Ibrat asarlari tilida ham o'z ifodasini topgan. Ular o'sha davr tilida bunday nomlarning udum bo'lgan talaffuz va yozma shakllari haqida xabar beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'sha vaqtda rus tilining ta'siri kuchaya borayotganiga qaramay, Is'hoqxon Ibrat ruscha va Yevropa tillariga oid so'zlarni qo'llashda ehtiyotlik yo'lini tutgan, ularni asarlari matniga ko'p kiritmagan. Adib chet so'zlarni o'zbek tilida muqobili topilmagan hollardagina iste'molga kiritgan. Shu bois, adib asarlari tilida uchraydigan ruscha va boshqa chet til so'zlari o'sha davr o'zbek tili uchun me'yor emas, balki juz'iy qo'llanishlardir.

Xulosa qilish mumkinki, Is'hoqxon Ibrat asarlarida genetik manbayi forscha, arabcha, ruscha bo'lgan o'zlashma leksik birliklar salmoqli o'rin egallaydi.

1. O'zbek tili praktikumi. 1-qism. // Mas'ul muharrir: Sapayev Q. – Toshkent, 2005. 71-bet.

2. Normamatov S. O'zbek lug'atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. 66-bet.

3. O'zbek tili praktikumi. 1-qism. // Mas'ul muharrir: Sapayev Q. – Toshkent, 2005. 96-bet.

4. Is'hoqxon Ibrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. 110-bet. Keyingi misollar ham shu manbadan olindi, qavs ichida sahifasi ko'rsatildi.

5. Amonov M. Turkiy tillardagi arabcha o'zlashmalar xususida // <https://zenodo.org/record/6528471>

6. Amonov M. Turkiy tillardagi arabcha o'zlashmalar xususida // <https://zenodo.org/record/6528471>

7. O'zbek tili praktikumi. 1-qism. // Mas'ul muharrir: Sapayev Q. – Toshkent, 2005. 70-bet.

Raxmatulla NORBEKOV,  
Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti doktranti

## SO‘Z SAN‘ATINI MAKTABDA GERMENEVTIK MEZONLAR BILAN O‘RGANISH

**Annotatsiya.** Maqolada poetik tilning san‘at yaratish imkoniyatlari hamda bu borada ijtimoiy-siyosiy faktor mezonlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** so‘z san‘ati, milliy til, induksiya, deduksiya, individualizm, g‘oya, yolqin, ommaviylik, badiiy ijod.

**Annotation.** The article analyzes the principles of social and political factors in the creation of art poetic language.

**Key words:** art of the word, the national language, induction, deduction, individualism, the idea, yalqin, publicity, poetry.

**Аннотация.** В статье анализируются принципы социально-политические факторы при создании искусства поэтическим языком.

**Ключевые слова:** искусство слова, национальный язык, индукция, дедукция, индивидуализм, идея, ялкин, публичность, поэтическое творчество.

Yoshlarda ona-Vatanga muhabbat ruhini paydo qilish va uni tarbiyalash, takomillashtirish shu zaminda yaratilgan milliy – ma’naviy yodgorliklar, adabiyot namunalari mohiyatini ochib berish, ularning milliy mentalitet va o‘zbekona dunyoqarashni shakllanishidagi o‘rni va ahamiyatini yoshlarga tushuntirish orqali ham amalga oshadi. Milliy san‘atga muhabbat ruhida tarbiyalangan inson o‘zida ona zaminga nisbatan chuqur muhabbat, uning o‘tmishi, buguni va ertasi uchun o‘zida ulkan mas’uliyat his qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati va hukumati tomonidan bu borada olib borilayotgan tadbirlar tahsinga sazovor, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan yoshlarda milliy ruh va mentalitetni oshirish borasida o‘tmish va zamonaviy madaniyat yodgorliklarini, buyuk shaxslar hayoti va ijodini keng targ‘ib qilish zarurligi ta’kidlangan edi. Uning yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlangan asarlarida, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an‘analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar, osori-atiqalar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilishi, alohida ta’kidlangan edi.

Har bir davlat sivilizatsiyaga erishgan mamlakat sifatida zamonaviy madaniyatga millat eshiklarini keng ochib boshqa davlatlar bilan san‘at borasida ijodiy hamkorlikka intilar ekan unday davlat, millat, binobarin, xalq eng avvalo milliy qadriyatlarni saqlash, ularni baholash, san‘at namunasi sifatida badiiy – estetik qirralarini aniqlovchi milliy mutaxassislariga ehtiyoj sezishi tabiiy.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi qadimiy san‘at o‘choqlaridan biri sifatida o‘ziga xos an‘ana va mahorat maktablariga ega. Agarda Buxoro va Samarqand san‘at maktablari o‘zlarining ko‘hna shakl va falsafasi bilan ajralib tursa, Farg‘ona, Toshkent, Qo‘qon san‘at maktablarida zamonaviy san‘at milliy an‘analarga uyg‘unlash-

gan. San‘at asarlarining uslubi, badiiy–estetik ahamiyati, uning davri, aslligi, qaysi uslubda ishlanganligi, qaysi maktabga, sulolaga oidligi, shuningdek, millat mentalitetini belgilashdagi o‘rni va rolini aniqlash bevosita san‘atni tashkil jarayonini o‘rganish bilan bog‘liq.

Vatanimizda aniqlangan san‘at yodgorliklari ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lib, dunyo sivilizatsiyasida o‘zining o‘rni va roli bilan ahamiyatlidir. Xolchayon, Baqtriya, Kushon davlati, xorazmiylar, temuriylar, shayboniylar davrida yaratilgan madaniy va tarixiy obidalar, zardo‘shiylik dini yodgorliklari va san‘at asarlari dunyo san‘atshunoslari tomonidan nihoyatda qadrlanadi.

Adabiyot insoniyat tafakkurining eng jozibali mahsullaridan biri hisoblanadi, u insonning tasavvur olami bilan yaratilgan mo‘jiza, ikkilamchi olam, insonning nafaqat o‘tmishini, buguni va ertasini, u erishgan yutuqlar, yo‘l qo‘ygan kamchiliklarga obyektiv, tanqidiy nazar bilan qarash imkonini beruvchi manba hamdir.

Insoniyat tarixi davomida adabiyot turli rivojlanish bosqichlarni kechirib kelgan. Xalq og‘zaki ijodi sifatida, asosan diniy marosimlarni ado etish jarayonida paydo bo‘lgan adabiyotning ibtidoiy ko‘rinishlari yillar, asrlar, ming yilliklar o‘tishi bilan insoniyat taraqqiyoti bilan hamohang taraqqiy etib, murakkab shakllarni, ko‘rinishlarni qabul qildi. Bugungi kunda adabiyot nafaqat inson tafakkurining mahsuli, balki inson hayotining ajralmas qismi, insonni inson ekanligini ko‘rsatib turuvchi, uning aqli, uning tasavvur olami nimalarga qodir ekanligini namoyon etuvchi vositaga aylangan. Asrlar davomida adabiyot o‘zining tarbiyalovchi, ilm-ma’rifat taratuvchi xususiyatlari, insonlarni ezgulikka yetaklovchi kuchi bilan boshqa san‘at sohalaridan ajralib turgan. Adabiyot barcha xalqlar madaniyatini tashkil qiluvchi san‘atning boshqa yo‘nalishlari, jahon xalqlari hayoti davomida yaratilgan madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda turuvchi omillardan biridir.

Antik adabiyotdagi mifologik tafakkur o'рта asrlarda realistik manzaralarda, yangi davrda esa romantizm va realistik tasvir usulining chatishgan mezonlarini shakllantirdi. XIX asr adabiyotida bosh planga ko'tarilgan hol bu- inson ichki dunyosining poetik tasviri edi. Inson ichki dunyosining individual qirralarini topish, uning yangi shtrixlarini kashf qilish, binobarin, ijtimoiy psixologiya-ning yangi-yangi tamoyillarini shakllantirish badiiy adabiyot, tafakkurning faqatgina falsafiy – estetik hodisa holatini istisno qildi.

XX asrning 90-yillarida insoniyat ikkita buyuk inqilobni boshdan kechirdi. Bulardan birinchisi siyosatda, ikkinchisi texnologiyada amalga oshirildi. Siyosiy inqilob sotsialistik lagerni barbod qildi, chegaralarni ochib yubordi yoki intizomni bo'shashtirdi. Odamlarning dunyo bo'ylab erkin aylanib yurishlari uchun sharoit yaratdi. Ilm-fan natijalarining inson faktori yoki ommaviy nashr, kitob vositasida xalqaro istilohga kirishi tezlashdi. Kommunikatsiyaning kuchayishi yangi badiiy asarlar bilan birga, yangi adabiy qarashlarning ham o'zlashtirilishida hududiy to'siqlarni olib tashladi. Shu o'rinda ikkinchi – texnologiya sohasidagi inqilobning ham o'rni va ahamiyati buyuk. Odamlar kompyuter, mobil aloqa vositalari orqali qisqa muddatlarda borliqning turli chekasida yuz bergan, berayotgan yoki hattoki yuz berishi mumkin bo'lgan yangilikdan xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib qoldilar.

Imkoniyatlarning kengayishi inson ongi, tafakkuri, badiiy-estetik qarashida ulkan o'zgarishlar yasadi. Natijada odamlar borliqqa, hayotga, jamiyatga tamomila yangi ko'z, yangi nigoh bilan qaray boshladilar. Avvallari inson mentalitetida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy faktor bosh rol o'ynagan bo'lsa, endilikda inson ichki dunyosi, individual psixologiya, uning qalb manzaralarini o'rganish, shu orqali borliqning, jamiyatning yangi ranglarini kashf qilish muhimroq bo'lib qoldi. Badiiy asarning ham san'at namunasi, ham ijtimoiy – estetik ong namunasi sifatidagi imkoniyatidan foydalangan holda jamiyat psixologiyasining yangi ranglarini topish, yaratish va shakllantirish borasidagi imkoniyatlari germenevtikaning asosida yotadi. Badiiy matn tahlili orqali inson asarda aks etgan hayot manzarasini o'zi imkoniyati darajasida o'z mentalitetiga muvofiq shaklda qabul qilishi mumkin. Tasavvurda yaratilgan hayot manzaralari romantizm, hayot haqiqati aks ettirganlarini esa realizm maktablarining oqimlarini yaratadi.

O'zbek mumtoz adabiyoti poetikasining tadqiqi ko'lamini beqiyos. Uning izlanish obyektlari va aspektlari badiiy jarayonning deyarli barcha xususiyatlarini qamrab olgan. Navoiy, Bobur, Shaboniy, Mashrab, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat va yana qator klassiklarning ijodiy merosi tadqiqot doirasi kengligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, navoiyshunoslik, navoiyxonlik nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida keng masshtabga egaligi tahsinga sazovor. Klassiklarning ijodiy merosi to'la yoki ayrim to'plam va alohida asarlari misolida amalga oshirilgan. Bunday ishlarda asosiy

e'tibor eng avvalo ijodkor adabiy merosining g'oyaviy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan edi.

O'zbek mumtoz badiiy adabiyoti tilini o'rganish xususida aytish mumkinki, adabiy til umumxalq tilining muayyan qolipga solingan shakli bo'lib, uning barcha lisoniy xususiyatlarini qamrab oladi, o'zining barcha qirralari bilan badiiy adabiyotda namoyon bo'ladi. Biroq har qanday badiiy asarni adabiy til namunasi deb hisoblash noto'g'ri bo'lgan edi, chunki bu hol badiiy asarning individual ijod namunasi ekanligini istisno qiladi. Shoir (ijodkor) o'z asarlarida goh hazil, goh chuqur falsafiy ma'noli fikrlarga tayangan holda tasodifan yangi, kutilmagan fikrlarni, tushunchalarni kashf qiladi. Ijodkorning badiiy fantaziyasi uning lisoniy imkoniyatlari, xalq tilidan qanchalar bahramand ekanligi va o'zi egallab turgan til xususiyatlarini badiiy matnda qanchalar mahorat bilan qo'llay olishidan iborat. Biroq yolg'iz bilish va qo'llashning o'zi muallifning cheklangan imkoniyati xolos, u shuning uchun ham ijodkorki, tilning yangi badiiy imkoniyatlarini hosil qilishi, yaratishi lozim. Xuddi mana shu o'rinda ijodkor okkazonal holatlar vujudga keltiradi, badiiy fantaziya yaratadi, badiiy tafakkurning yangi qirralarini shakllantiradi. Binobarin inson ijodiyoti imkoniyatlarini kengaytiradi. Tilning leksik-semantik imkoniyati, o'quvchi-kitobxon mentaliteti va uning ijodiy tayyorgarligi mana shunday sharoitda badiiy matn ifoda imkoniyatlarining germenevtik taraqqiyoti asosida yotadi.

Adabiyot madaniyatni yaratuvchi omillardan biri, uni tashkil qiluvchi asosiy tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralar ekan, shu o'rinda germenevtika san'atini ta'kidlab o'tish joiz. Germenevtika madaniyatni matnlarda ko'radi. Germenevtika uchun borliq matnlar yig'indisi, aniqrog'i matnlar yig'indisini yaratuvchi mexanizmdir. Matn bu – borliqdagi voqea-hodisalarning shakl va mazmuni yoki tani va jonidir, bizning tasavvur va ongimizda aks etgan har qanday hodisa. Matn olinishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni saqlovchi vosita sifatida, hamda takrorlanmas, muallifning o'ziga xosligi bilan yaratilgan san'at asari sifatida ham qaralishi mumkin.

San'at germenevtikasida inson tomonidan yaratilgan san'at vositalarining xayoliy fantaziyasi tasavvur qilinadi hamda uning estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati baholanadi. Turli xalqlar madaniyati namunalarining turli davrlarda yaratilgan san'at namunalarini matn sifatida o'sha davr ruhi va mentalitetiga mos kolorit bilan turlicha talqin qilinadi. Bir xalq madaniyatining mahsuli sifatida yaralgan badiiy asar boshqa xalq madaniyatida umuman boshqacha yondashuv bilan talqin qilinishi mumkin. Badiiy asar matni o'ziga uni yaratgan madaniyatni singdirib olgan mahsulot hisoblanadi. O'quvchining butun e'tiborini talab qiladigan va shundagina tushunib yetish mumkin bo'lgan asarlarni tushunish ular o'qilayotgan davr va o'quvchilarning bilim saviyasiga bog'liq bo'ladi. Endi bu asarni tushunishda ijtimoiy- madaniy layoqat degan tushunchaning ahamiyati oldinga chiqadi. Ijtimoiy-madaniy layoqat

insonning universal va shaxsiy, madaniy bilimlari, eruditsiyasi yig'indisidir. Bu layoqat individ yashayotgan ijtimoiy guruh ichida erta yoshligidan shakllana boshlaydi, u tug'ma bo'lmasdan, balki bosqichma-bosqich, atrof-dagi jamiyat bilan doimiy muloqotda bo'lish orqali shakllanadi. Bu layoqatning shakllanishi birmuncha ongsiz xarakterda kechadi, chunki inson hayoti davomida etnik-madaniy bilimlarni qachon va qaysi manbadan o'zlashtirganligini doim ham esda saqlab qolavermaydi. Shuning uchun ham boshqa mamlakatda, madaniyatda va davrda yaratilgan badiiy asarni tushunish birmuncha qiyin jarayon hisoblanadi, chunki boshqa madaniyatda vujudga kelgan lisoniy vositalar, asarda aksini topgan xalq mentaliteti o'quvchiga notanish bo'lishi mumkin. Hattoki bitta madaniy sotsium ichida ham universal, ko'pchilik tushuna oladigan yoki ma'lum madaniy sotsium ichida yashovchi ma'lum bir guruhgina tushuna oladigan madaniy allyuziyalar mavjud bo'lishi mumkin.

Shoir Muhammad Yusuf doimo xalq diliga, ko'ngliga yaqin gaplarni juda topib va ravon aytgan. Uning she'rlari o'z ohanggi bilan yozilgan. Hali siyohi qurilmagan satrlarning hofizlar tomonidan ijro etilishining sababi ham shunda bo'lsa kerak. Qolaversa, shoir ijodida vatan mavzusining ko'lamini keng. U Vatan, yurt go'zalligi, muhabbat, ona, do'stlik va sadoqat haqida takrorlanmas asarlar yaratdi. Shoir o'zining ichki his-tuyg'ularini kuylamadi, aksincha xalq quvonchini o'z quvonchi, xalq dardini o'z dardi deb bildi. Asosan o'lmas mavzularda asarlar yozdi.

Muhammad Yusufning "Ulug'imsan Vatanim" she'rlar to'plamini o'qigan har bir kitobxon, har bir inson Vatanni, yorni sevish uchun o'z borlig'idan fakt izlaydi, ardoqlashni o'rganadi. Uning "Bizdan ozod Vatan qoladi", "Vatan", "Ona Turkiston", "O'zbekiston", "Vatan yagonasan", "Yoshlar madhiyasi", "Vatanni seving", "Vatan madhi" kabi she'rlarini eslash kifoya. Ulardagi har bir o'zbek qalbida yashiringan milliy ruh so'z orqali gavdalanadi. "Vatan madhi" she'rida shoir oddiy, sodda ravon misralarda Vatanni sevishga undaydi:

O'ping, ko'zingizga suring tuprog'in,  
Har so'zin muqaddas duodek seving.  
Qadang yuraklarga millat bayrog'in,  
Vatanni Najmiddin Kubrodek seving.

Bu misralarda shoir ulug' vatanparvar, vatan ozodligi uchun ongli ravishda jon fido qilgan Kubroni namuna qiladi va uning timsoli insonga ozodlik so'zi uforidagi baxt tasavvurini uyg'otadi. Zotan baxtli inson har nar-saga tayyor.

...“To jahon bor ekan, hamisha bor bo'l,  
Temurning yurtisan, doim tojkor bo'l.  
Poyingga baxshida jonimga yor bo'l,  
Vatan yagonasan dilimda doim”...

Bu jo'shqin misralarni o'qir ekanmiz, Vatanning chinakam oshig'i bo'lgan fidoyi farzandning dil izhorlarini tinglaymiz. Shoir Vatanning dunyo turguncha turishini, bor bo'lishini istaydi. Shoir to'plamining "Shaharlar madhi" bo'limida azim Toshkentga bo'lgan muhabbatini oddiy o'zbekning haqiqiy vatanparvarlik izhoriga aylantiradi, uni shunday oddiy, o'zbekona luqmada beradiki, she'r ruhiy istig'forgia aylanadi:

Ey quyoshga qarindosh shahar,  
Tinglamassam balki arzimni.  
Qirq yil qulluq qilsam ham agar,  
Uzolmasman sendan qarzimni.

Muhammad Yusufdagi ona Vatan uning barcha burchaklari tavsifi bilan uyg'un. Binobarin, Vatanni boricha, uning bor bo'y-basti bilan sev. Xuddi shu niyat unda vatanning turli nuqtalaridagi ona zaminga atab qo'yilgan madhiyalar haykaliga o'xshaydi. Muhammad Yusufning "Mingtepa qo'shig'i", "Andijon", "Mahalla", "Shahrixon" she'rlarini farzandning onaga minnatdorchilik madhiyasi deyish mumkin.

Shoir ijodini e'tirof etgan ustoz Abdulla Oripov quyidagicha yozadi: "... Darhaqiqat, o'z elini, xalqini, Vatanni chin farzandday, beg'araz sidqidildan yaxshi ko'rar edi. Shu mehrning natijasi o'laroq, uning she'riyat ham xuddi shundoq beminnat va beg'araz she'riyat sifatida maydonga keldi. San'atkorlar-ku uning har bir misrasini sozga solishga tayyor edilar. Haqiqiy ma'nodagi barhayotlik, zavol bilmaslik Muhammad Yusuf ijodiga ham taalluqli bo'lgay desam, inshoolloh, xato qilmagaydirman".

Badiiy adabiyot namunalari u yoki bu shaklda inson ongiga milliy – ma'naviy ruhini singdiradi. Insonni ruhan va psixologik tarbiyasi orqali unda atrof-muhitdagi turli g'oyalarga nisbatan o'ziga xos immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tiselton E. Germenevtika. – Minsk: 2008.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: 1985.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz so'z san'ati. – Toshkent: 1998.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: 2002.
5. Xalizev V.A. Teoriya literaturi. – Moskva: 2008.

Mansurbek Masharipov,  
 TDPU erkin tadqiqotchisi

## MAHMUDXO'JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA ARABCHA O'ZLASHMA SINONIM BIRLIKLAR

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvar adibi Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida qo'llangan arabcha o'zlashmalarning semantik voqelanishidagi sinonimik munosabat tahlil qilingan. Bunda sinonimik qator hosil qilgan arabcha o'zlashmalarning o'zbek tilining leksik qatlamida me'yor sifatida qabul qilinishining lingvistik omillari, XX asr boshlaridagi davr adabiy tilida ma'nodoshlikni yuzaga keltirishi kabi masalalar ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** leksik-semantik munosabat, ma'nodoshlik, tasviriy vosita, hissiy-ta'siriy bo'yoq, uslubiy xoslanganlik, denotat, oraliq uslub, leksik qatlam, sinonimik qator, sinonim dublet, adabiy me'yor.

**Аннотация.** В этой статье проанализировано синонимическое отношение в придании семантической реальности в арабских заимствованиях, использованных в публицистике представителя джадидского просвещения Махмудходжа Бехбуди. Научно проанализированы лингвистические факторы использования арабских заимствований, образующих синонимический ряд, в лексическом пласте узбекского языка в качестве нормы, вопросы образования ими синонимичности в литературном языке периода начала XX века.

**Ключевые слова:** лексико-семантические отношения, синонимичность, изобразительное средство, эмоционально-экспрессивный оттенок, стилистическое соответствие, денотат, межстилевой, лексический пласт, синонимический ряд, дублет, литературная норма

**Abstract.** This article analyzes the synonymous relationship in the semantic realization of the Arabic appropriations used in the publicism of the late enlightened writer Mahmudkhoja Behbudi. In this, issues such as the linguistic factors of acceptance of the Arabic borrowings that formed a synonymous line as a standard in the lexical layer of the Uzbek language, and the creation of synonymy in the literary language of the early 20th century were scientifically analyzed.

**Key words:** lexical-semantic relationship, semantics, visual means, emotional-affective color, stylistic specificity, denotation, intermediate style, lexical layer, synonymous line, synonymous doublet, literary norm.

Leksik-semantik vositalar har qanday tilning badiiy, publitsistik uslubi imkoniyatlarini belgilaydi. Muayyan davr tilini o'rganishda o'sha davr adabiy tilidagi leksik-semantik munosabatlar voqelanishi holati ham kuzatiladi. XX asrning 20-30-yillari davri hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlarining shakllanish davri hisoblana-di. Ma'lum til me'yorlarining shakllanishida publitsistik uslubning roli kattadir. Chunki til me'yorlarini belgilashda boshqa funksional uslublarga qaraganda publitsistik uslub tili alohida ahamiyat kasb etadi. Publitsistik uslub tilining asosiy xususiyatlaridan biri ham xuddi badiiy uslub singari undagi tasvirlash vositalarining estetik vazifa bajarishidir.

Uslub mohiyatiga asoslanib aytish mumkinki, publitsistik uslubda ekspressivlikka erishishning vositalari boshqa uslublarga qaraganda ko'p. Mana shu jihatlari bilan u badiiy uslubga juda yaqinlashadi. Shuning uchun ham, mazkur uslubning lingvostilistik xususiyatlari haqida gapirganda asosiy e'tibor ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi tasviriy vositalarga qaratiladi. Publitsistik matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, muallif hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirishda, isbotlashda, o'quvchini bunga ishontirishda, his-tuyg'ulariga ta'sir etishda emotsional bo'yoqdor so'zlarga, tarixiy va arxaik so'zlarga, ko'chma ma'noli so'zlarga, ma'nodosh, shakldosh, o'xshash talaffuzli va zid ma'noli so'zlarga, shuningdek, ibora, maqol-matal va aforizm kabi birliklarga ham murojaat qiladi.

Sinonimlar fikrni aniq va ta'sirchan qilib ifodalash nuqtayi nazaridan publitsistik uslub tilining ham boy va rang-barangligini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblana-

di. Shu sababli, badiiy so'z san'atkorlari qatori publitsistlar ham ulardan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar.

Tilshunoslik ilmida shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ma'no noziklari bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi (gr. *synonymos* – "bir nomli"). Sinonim leksemalar orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi<sup>1</sup>. S.Usmonov, A.Hojiyev, I.Qo'chqortoyev, S.Isomuhamedova, M.Rahmatullayeva<sup>2</sup> va boshqalarning sinonimlarga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarida sinonim so'zlarning ma'nolari, hosil bo'lish yo'llari, uslubiy qo'llanishlari tadqiqqa tortilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida muallifning ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy maqsadidan kelib chiqqan holda tilning maxsus vositasi hisoblangan leksik-semantik munosabatlar voqelanishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Ya'ni leksemalararo sinonimlik, antonimlik, graduonimlik, o'xshatish vositalaridan o'rinli foydalanilgan. Jumladan, ma'nodosh so'zlar, ya'ni sinonimlarning qo'llanishi ham publitsistik uslub rang-barangligini ta'minlashning asosiy vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etgan. Shuni ta'kidlash lozimki, davr o'zgarishi, jamiyat taraqqiyoti tilda ham o'z aksini topgani holda tasviriy vosita hisoblangan sinonimlarning ma'no taraqqiyoti, geneologik tarkibida doimo yangilanishlar bo'lib turishini taqozo qiladi. Tahlilga tortilayotgan Behbudiy publitsistikasi tilida ham bu holatni kuzatish mumkin. Maqolalar matnida geneologik tarkibi jihatdan arabcha o'zlashma qatlamga mansub sinonim birliklar salmoqli miqdorni tashkil etishi kuzatiladi.

Adib ijod qilgan davrda o'zbek tiliga arab tilidan kirgan hamda uzoq davrlar mobaynida o'zbek mumtoz adabiyoti va tarixiy manbalarda qo'llanib kelgan arabcha o'zlashmalarga munosabat ancha murakkab hamda chalkash edi. Bir qator ziyolilar genetik jihatdan arab tiliga mansub so'zlarni qo'llash, arab tilini fan va din tili sifatida o'qitish tarafdori bo'lsalar, boshqa bir guruh ziyolilar arab tili ta'limiga keng o'rin berishga qarshi edilar va o'zbek tiliga arab tilidan kirgan so'zlarni kamroq qo'llash, ona tili, umumturkiy til so'zlarini keng iste'molga kiritish, o'zbek tilini chet tili so'zlaridan tozalash tarafdori edilar. Ammo ular o'z asarlari tilida o'zbek tilining lug'aviy boyligidan foydalanganlari holda, an'anaviy arab tili so'zlarini ham keng istifoda qilishar edi. Buning quyidagi sabablari bor edi: a) islom dini tili – arab tili edi. Madrasa va maktablarda shu til-da ta'lim berilardi; b) ta'lim tizimidagi o'quv adabiyotlari va umuman adabiyotning ko'pchiligi arab tilida edi; d) o'zbek mumtoz adabiyoti va boshqa manbalarda ishlatilib kelingan arabcha so'zlarni qo'llash an'anasi hali o'z kuchini yo'qotmagandi; e) ko'pgina ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'rifiy, diniy, falsafiy va boshqa xil tushunchalar arabcha so'z va terminlar yordamida ifodalanar edi. Bu leksemalar tarixan o'zbek tilining lug'aviy me'yorlari sifatida qat'iylashgan edi. Ularni iste'moldan chiqarish uchun o'zbek tilidagi muqobillarini topish talab qilinar edi. Mana shu sabablar ta'siri o'laroq M.Behbudiy publitsistik maqolalarida arabcha o'zlashmalar asosidagi sinonimlarni keng qo'llaydi: "Lozimki, o'zimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo'lsun, ul milliy askarlarimizning vazifasini, **qiyofat, shaklini, libos va tarz maishatini o'zimiz tayin qilurmiz**".<sup>3</sup> Muallifning "Bayoni haqiqat" nomli maqolasidan olingan mazkur parchada **qiyofat, shakl** leksemalari sinonim tarzida qo'llangan. Bu ikki leksemaning geneolik tarkibi, ma'no xususiyati haqida lug'atlarda quyidagicha ma'lumot mavjud: QIYOFAT. Bu arabcha so'z "izidan topib oldi" ma'nosini anglatuvchi **qayyafa** fe'li asosida hosil qilingan bo'lib, "tashqi ko'rinish" ma'nosini anglatadi<sup>4</sup>; ShAKL. Bu arabcha so'z **shakla** fe'lining "ko'rinish berdi" ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, "ko'rinish" ma'nosini anglatadi (O'TIL, IIT, 496-b). "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" hamda "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati"da **qiyofa, shakl** leksemalari bir sinonimik qatorda berilmagan: **Ko'rinish, tus, qiyofa [a], avzo [a], vajohat [a], siyoh, turq**<sup>5</sup>. Demak, anglash mumkinki, muallif qo'llagan **qiyofa, shakl** leksemalari bir umumiy ma'no, ya'ni "ko'rinish" semasini ifoda etishi bilan o'sha davr adabiy tilida sinonimlik kasb etgan. Hozirgi adabiy tilimizda esa **shakl** leksemasi bu sinonimik qatorda mavjud emas.

"Quvvai hokimaga molik ruslardan boshqa unsur-lar ham bizlarg'a din, **mulk va sarvatimizg'a g'alaba qiladurlarki, Rusiya davlati emas, o'zimiz sabab bo'lamiz**" (TA, IT, 300-b). Bu misolda **mulk, sarvat** leksemalari o'zaro sinonim sifatida qo'llangan. **MULK**. Bu arabcha so'z **malaka** fe'lining "ega bo'ldi" ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, "xususiy mol-dunyo, boylik" ma'nolarini anglatadi (O'TIL, IIT, 285 b); **SARVAT**. Arabcha "boylik, davlat, mol-dunyo". "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati"da **sarvat** so'zi **mulk** so'ziga nisbatan sinonim sifatida keltirilmagan **boylik,**

**davlat [a], dunyo [a], mol-mulk [a], bisot [a], bizoat [a]**<sup>6</sup>. Matn tarkibida qo'llanishi esa asosli bo'lib, **sarvat** so'zi ham mumtoz adabiy tilimizda **mol-mulk, boylik** semasini ifodalagan, hozirda esa eskirgan lug'aviy qatlam tarkibiga o'tgan.

"Hurriyat" gazetasining 1917-yil 23-iyuldagi sonida e'lon qilingan "Samarqandda milliy ishlar haqida" nomli maqoladan olingan quyidagi misollarga diqqat qilaylik: "**iltimos, rijo shulkim, bu qadar imkon telegrafdan so'ngra bu biror kishi jamlamoq va, hatto, sahro va qishloqlardan xalqni jamlamoq harakatida bo'linsalar edi, deb milliy xodimlardan umidvormiz**" (TA, IT, 487-b); "**Kelaylik matlabg'a! Samarqandda ikki jamiyat bor, biri "Sho'roi islom"ki ulamoning aksari munga a'zodurlar**" (TA, IT, 486-b). Birinchi misolda ot turkumiga mansub **iltimos, rijo** arabcha leksemalari yonma-yon keltirilib, sinonimik qator hosil qilingan. **ILTIMOS**. Bu arabcha so'z **lamasa** fe'ldan olingan bo'lib, "nimanidir so'rab qilingan murojaat" ma'nosini anglatadi (O'TIL, IIT, 163); **RJO**. "umid, orzu, tilak; iltimos, o'tinch"<sup>7</sup>.

Sinonimiya hodisasi muayyan til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi nuqtayi nazaridan belgilanadi. Til taraqqiyoti jarayonida leksemalarning sinonimik munosabatida ham o'zgarish bo'lishi mumkin. Bunda ma'lum davrlarda sinonimik munosabatda bo'lgan so'zlardan biri iste'moldan chiqishi yoki ulardan birining sinonimik munosabat hosil qiluvchi semasi yo'qolishi, aksincha, tilda yangi-yangi sinonimik munosabatli so'zlar, sinonimik qatorlar paydo bo'lishi mumkin. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da **iltimos – iltijo – o'tinch – zor – tavallo** leksemalari "biror istak-maqсадning qondirilishini so'rab qilinadigan murojaat" ma'nosi atrofida birlashishi nuqtayi nazaridan bir sinonimik qatorni tashkil etishi qayd etiladi<sup>8</sup>. Yuqorida kuzatganimizdek, arabcha **rijo** leksemasi ham aynan shu ma'noni ifodalay olishini nazarda tutsak, muallif bu o'rinda **iltimos** leksemasining sinonimi bo'lgan, hozirda arxaiklashgan **rijo** leksemasini yonma-yon keltirib sinonimik qator hosil qilganligini noto'g'ri deb bo'lmaydi.

**MATLAB**. Bu arabcha so'z asli **talaba** fe'lining "so'radi", istadi" ma'nosi bilan yasalgan bo'lib, arab tilida "talab", "ehtijo", "maqsad", "o'rganilayotgan masala" ma'nolarini anglatadi (O'TIL, IIT, 244). Matn tarkibida bu so'zning semantik voqelanishi asosli bo'lib, muallif bu leksemani "maqsad", "o'rganilayotgan masala" leksemalariga ma'nodosh sifatida o'rinni qo'llagan. Ba'zi o'rinda esa **maqsad** leksemasining hozirgi adabiy tilga xos bo'lgan **muddao, murod** kabi sinonimlari ham keltiriladi: "**Va hech ahadi ushbu muddaou murodni orqasidin yugurmoqdan xoli emas. Ana shul muddao va murodlarni ilmiy istiloh ila omol etar**" (TA, IT, 412-b). Aytish kerakki, adib publitsistikasi tilida dominantalik xususiyatiga ega bo'lgan **maqsad** leksemasiga **muddao, murod, matlab** leksemalari sinonim sifatida voqelangan. Bu sinonimik qatordagi **matlab** leksemasi hozirgi adabiy tilimizda norma sifatida mavjud bo'lmay, arxaiklashgan variant hisoblanadi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning turli ijtimoiy mavzular-da yozilgan maqolalari matnida sinonimlarning aynan hozirgi o'zbek adabiy tiliga xos variantlari qo'llangan o'rinlar ham kuzatiladi: "**Tiyotr va'z va tanbih etguvchi**



hamda zararlik **odat, urf va taomilning qabh va zararini aynan ko'rsatguvchidir**" (TA, IT, 412-b). Keltirilgan jumladagi **odat, urf, taomil** so'zlarining barchasi arabcha o'zlashmalar hisoblanib, hozirgi adabiy tilimizda "umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan xatti-harakat va axloqdagi tartib-qoida" ma'nosini ifodalaydi<sup>9</sup> va bir sinonimik qatorni tashkil etadi. Xuddi shu kabi belgi semasiga ega bo'lgan **muloyim, yumshoq** leksemalarining sinonim sifatida voqelanishi ham hozirgi o'zbek adabiy tilidagi holati bilan aynanlik kasb etadi: "*Na uchun toqat qilsunkim, musulmonlar soldatxonalariga kelib, qo'llari ila olib, ya'ni cho'qungan shakliga kirib, bir parcha non tilasunlar, boshqalar g'ofil o'z ishi va farog'atlariga muloyim va yumshoq bastarlar ustida istirohat etsunlar. Oh, na badbaxtlikdur!*" (TA, IT, 488-b).

Tilshunoslik ilmida publitsistik uslubga badiiy uslub va so'zlashuv uslubi o'rtasidagi oraliq uslub sifatida ham baho beriladi. Bunga sabab shuki, mazkur uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashadi. Aynan ma'nodosh so'zlar qo'llanishidagi uslubiy o'ziga xoslik ham bu fikrni tasdiqlaydi. M.Behbudiyning publitsistik maqolalarida adresat ongi va hissiyotiga ta'sir o'tkazuvchi lingvistik vosita sifatida ma'nodosh so'zlarning uslubiy xoslangan shakllaridan ham o'rinli foydalanilgan: "*Muharrirning asari yaxshi chiqsa, har kim tabrik etar. Va shuhrati ziyoda bo'lur. Va bul boshqa muharrirni harakatga kelishib, yaxshi yozmoqlariga bois bo'lur*" (TA, IIT, 16-b). Lug'atda o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan BOIS so'ziga "*sabab – vaj – bahona* leksemalari bilan sinonimlik hosil qilib, biror narsa, hodisa yoki harakatning ro'y berishini taqozo etuvchi narsa, hodisa, uni keltirib chiqaruvchi asos" sifatida ta'rif berilgan va bu so'zning badiiy uslubga xosligi ta'kidlangan<sup>10</sup>. Ko'rinadiki, muallif aytilayotgan fikrning obrazlilik, ta'sirchanligini oshirish maqsadida publitsistik uslub talabidan kelib chiqqan holda sinonim leksemalarning uslubiy xoslangan shakllaridan foydalanishga harakat qilgan. Bu kabi qo'llanishlarni yana quyidagi misollarda kuzatish mumkin: "*Yoshlardan himmat va g'ayrat, boylardan shafqat va*

*marhamat kerak*" (TA, IIT, 16-b); "*Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizning boylari doimo o'z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladurlar...*" (TA, IT, 390-b); "*Bizning murodimiz shul, ushbu yillimizning natija va mahsulini ko'rmoqdir...*" (TA, IT, 310-b). Bu misollardagi *shafqat – marhamat; xayr – ehson; natija – mahsul* sinonimik qatorlari o'zbek tilining badiiy uslubi uchun xoslangan shakllardir. Shuningdek, ma'no hajmida qo'shimcha o'ttenka bo'lmagan yoki so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan ma'nodosh so'zlarning qo'llanishi ham publitsistik maqolalar matnida uchraydi: "*Kundan-kun muhim tarixiy kitoblarimiz ko'zdan tushub, esdan chiqib ketmaktadurki, muning aybi va gunohi Turkistondagi manfaatparast kitobchilar bo'yniga tushsa kerak*" (TA, IT, 438-b). Bu misolda arab tilidan o'zlashgan *ayb* leksemasiga fors-tojikcha *gunoh* so'zi sinonim sifatida keltirilgan. Aytish kerakki, *ayb – gunoh – jinoyat – yoziq* leksemalari sinonimik qatorida *ayb* leksemasi "rasm-odat normalariga, qonun-qoidaga qarshi xatti-harakat" ma'nosini ifodalashda uslubiy betaraf hisoblanadi<sup>11</sup>.

"Oyina" jurnalining 1914-yil 19-yanvardagi 3-sonida e'lon qilingan "Bizni hollar va ishlar" maqolasida muallif ma'nodosh so'zlarning so'zlashuv uslubiga xos variantini qo'llaydi: "*Anjumani arvoh*" risolasi haqida ham janob qozi mullo Muhammad Isoxo'janing "*so'zlarining hammasi durust, tuzuk*", deganlari rivoyat qilinur..." (TA, IT, 418-b). "Belgi-xususiyatlari ijobiy, talab qilingan darajaga yaqin yoki undan yuqori" semasiga ega bo'lgan leksemalar quyidagicha sinonimik qatorida birlashadi: *yaxshi – durust – tuzuk – binoyi – binoyidek – joyida – soz – nozanday – bop – ajabtovur – avlo – poshshaxon – qoyil – qoyilmaqom*. Sinonimik qatorida dominanta hisoblangan *yaxshi* so'ziga nisbatan *durust, tuzuk* so'zlarida belgi darajasi kuchsiz, shuningdek, bu so'zlar ko'proq so'zlashuv uslubi tilida keng qo'llanishi bilan o'zaro farqlanadi.

Demak, tasviriylik publitsistik matnlarning jozibali va ta'sirchan bo'lishi bilan bog'liq ekan, muallif arabcha o'zlashma sinonimlarning uslubiy xoslangan shakllarini matnning mazmun-mohiyatiga ko'ra tanlagan va leksik vosita sifatida o'rinli qo'llagan.

1. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 150-bet.

2. Usmonov S. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida omonim va sinonimlar. – Toshkent: TDPIning ilmiy asarlari, №12, 1959. – 178-bet; Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1963. 118-bet; Qo'chqortoyev I. Sinonim so'zlar va ularning ba'zi bir xususiyatlari. "Tilshunoslik masalalari", 1-kitob. – Toshkent: ToshDU, 1960. 166-bet; Isamuhamedova S. Sinonimlarning vujudga kelish yo'llari haqida ba'zi mulohazalar. Tilshunoslik masalalari, 1-kitob. – Toshkent: 1960. 212-bet;

3. Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jild. (nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Akademnashr, 2018. 475-bet. Bundan keyingi misollar ham shu manbadan olindi va manba sahifasi qavs ichida ko'rsatildi.

4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. II tom. – Toshkent: "Universitet", 2003. 534-bet. Keyingi misollarda manba O'TEL tarzida qisqartma shaklida olindi va sahifasi ko'rsatildi.

5. Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007. 28-bet.

6. Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007. 28-bet.

7. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. 105-bet.

8. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jildli. III jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. 341-bet. Keyingi misollarda manba O'TIL tarzida qisqartma shaklida olindi va sahifasi ko'rsatildi.

9. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. 154-bet.

10. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. 169-bet.

11. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. 17-bet.

Farrux Yuldashev,  
Navoiy davlat pedagogika instituti f.f.f.d

## LINGVOMA'NAVIYATSHUNOSLIK: LINGVOKULTUROLOGIYA VA AKSIOLINGVISTIKAGA MUNOSABAT

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Ma'naviyat" leksik kategoriyasining lingvistik qamrovi, shaxs ma'naviy sifatlarini qamrab oladigan birliklarning lingvokulturologiya va aksiolingvistikaga munosabati aks etgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, shaxs ma'naviy sifati, leksik kategoriya, qadriyat, maydon, lingvokulturologiya, axloq, e'tiqod, aksiolingvistika, lisoniy tizim.

**Abstract.** This article reflects the linguistic coverage of the lexical category "Spirituality", the relationship of the units covering the spiritual qualities of a person to linguo-cultural and axiolinguistics.

**Key words:** spirituality, spiritual quality of a person, lexical category, value, field, linguoculturalology, morality, belief, axiolinguistics, linguistic system.

**Аннотация.** В данной статье отражено языковое покрытие лексической категории «Духовность», отношение единиц, охватывающих духовные качества человека, к лингвокультурологии и аксиолингвистике.

**Ключевые слова:** духовность, духовное качество человека, лексическая категория, значение, поле, лингвокультурология, нравственность, вера, аксиолингвистика, языковая система.

**Kirish.** Yashab turgan jamiyatimiz cheksiz, serqirra. Uni tushunish, anglash, unga shaxsiy munosabat bildirish ham xilma-xil. Bu xilma-xillik olamda inson qadriyati, inson qadriyatiga munosabat, ma'naviy faollik va madaniyatni ham o'zida aks ettiradi. Ma'naviy faollik esa o'z-o'zidan shakllanmaydi, unga oid tushunchalar yillar davomida insonlarning ijtimoiy va ma'naviy hayotida faollashib boradi.

Ma'naviy salohiyat esa jamiyatning ma'naviyatga bo'lgan e'tibori, ma'naviy muhitning ijobiy shakllanganligi bilan asoslanadi. Bunday muhitning shakllanganligi ma'naviy qarashlarning nutqiy, lisoniy, amaliy faolligida aks etadi. Bularning barchasi zamirida "ma'naviyat" tushunchasi asosiy o'rinda turadi. Ushbu tushunchaning lingvistik tadqiqi bugungi globalashuv davrining eng muhim masalalaridan biridir.

**Adabiyotlar tahlili va metod.** "Tilshunoslikning sistem yo'nalishida ilk marotaba "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasining mohiyati, strukturasi, tarkibiy qismlari va elementlari, ular orasidagi munosabatlar, kategoriyaga bevosita yoki bilvosita mansub alohida birlik(so'z, ibora, birikma kabi) ning xususiy ma'nosi, umuman olganda, alohida birliklarning sistema tashkil etish va sistemada vujudga keluvchi barqaror lisoniy belgi-xususiyatlari ochilib, davriy tabiatli bo'ladi. Bu yo'nalish boshqa yo'nalish va sohalar uchun poydevor qo'yish vazifasi bilan yetakchi o'rinda turadi"[1]. "Ma'naviyat" leksik kategoriyasining lingvistik qamrovi keng. Bu kategoriya shaxs ma'naviy sifatlarini qamrab oladigan barcha til birliklarini lingvistik tadqiqini o'z ichiga oladi. Zero, ma'naviyatning ichki sistemalariga kishining ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi barcha til birliklari kiradi va ularning o'rganish obyekti tarmoqlanadi.

Avvalo, ma'naviyatga oid tushunchalarning mohiyati Lingvoma'naviyatshunoslik bo'limiga oid bo'ladi. Ushbu bo'limning asosiy tushunchalaridan hisoblangan shaxs ma'naviy sifati birikmasi alohida ahamiyatga ega. "Ma'naviy" leksemasi "O'zbek tilining izohli lug'atida"da quyidagicha izohlangan. "Ma'naviy [a.] – ma'naviyatga oid, ma'naviyat, axloq bilan bog'liq. Ma'naviy qiyofa. Ma'naviy kamolot[2]. Shaxs ma'naviy sifati birikmasidagi sifat leksemasining polesemantik ma'nosi "narsaning, kimsaning ijobiy yoki salbiy xususiyati, fazilati, xislati" ma'nolariga ega[3]. Ko'rinadiki, Lingvoma'naviyatshunoslik yo'nalishi shaxs ma'naviyati rivojiga, yosh avlodning ma'naviy takomillashuviga ko'maklashadigan, ularning axloqiy sifatlarini aniqlashga, ijobiy axloq sifatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadigan lingvistik yo'nalish.

"O'zbek tilining izohli lug'atida"da har bir leksemaning o'ziga tegishli ma'noviy guruhi bo'ladi, hech qaysi so'z o'ziga tegishli guruhdan "uzilib" qolmaydi. Shunday ekan ma'naviyatga oid leksemalarning ichki sistemasini tahlilga qaraydigan bo'lsak, o'zgacha tahlil va ma'noviy serqirraligiga guvoh bo'lamiz. Badiiy matnning aksiologik imkoniyatlari haqidagi tadqiqotlarda "lingvoaksiologiya" termini qo'llanilgan. "Lingvoaksiologiya badiiy va boshqa matnlar, dialog, suhbatlarni tadqiq etish orqali har xil yosh, jins, kasbiy hamda sinfiy yoki individual qadriyatlarni aniqlash imkonini beradi. Matnlarga estetik qadriyatlar ifodasi sifatida yondashuvlardan biri I.Galperin asarlarida ko'rinadi" [4]. Bu esa birliklar orasidagi farqni ko'rsata oladi.

**Muhokama.** Aksiologik tahlil shaxsning ijtimoiy hayotdagi aniq bir voqea-hodisa, jamiyat, hudud uchun

ahamiatli bo'lgan qarashlarida aks etadi. Bu jaryon bevosita lingvistik qarashlar orqali batafsil yoritiladi hamda aksiolingvistika yo'nalishida o'rganiladi. Qadriyatga va unga oid qarashlarning muayyan lingvistik ifodalanishini tahlil qilish natijasida aksiolingvistika yo'nalishi shakllandi. Lingvokulturologiyaning tarkibiy qismi bo'lgan aksiolingvistika tillardagi umumiy va xususiy qadriyatshunoslik bilan shug'ullanadi. "Aksiolingvistika predmeti – qadriyatlarni ifodalovchi va aksiologiyani shakllantiruvchi lisoniy vositalardan iborat. Aksiolingvistikaning vazifasi – til birliklarini qadriyatning tarkibiy qismi sifatida reallashtirish bo'lib, maqsadi esa dunyoning qadriyat manzarasini tadqiq etishni belgilaydi"[5]. Aksiolingvistika har bir millatning madaniy qarashlarini ko'rsata oladigan fan hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, aksiolingvistikaning mazmuniy tizimida lingvistik tamoyil orqali hali ham aniqlashtirilmagan o'rinlar bor. Masalan, o'zbek xalq maqollari va iboralarida qo'llangan turli mavzuviy guruhlar va ularda ifodalangan moddiy turmushga oid qarashlarda shu xalqning madaniy qadriyatlarini aks ettirish, ularning milliy qadriyatlarimizga oid xususiyatlarini yoritish vazifasini bajaradi.

Maqol va iboralarimizda xalqimizga xos bo'lgan "do'stlik", "oila", "vatan", "yaxshilik", "mehmondo'stlik", "salomlashish" konseptlarining lingvistik tahlili orqali yuqori qadriyat sifatida baholaydigan ishlar aksiolingvistik tahlillarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham aksiolingvistika umumiy va xususiy qadriyatlarini o'rganadi, ya'ni yuqoridagi konseptlar boshqa millatning ham fenomeni hisoblanadi, biroq ifodalinishi va amal qilishi, nishonlanishi turli shakllarda kechadi. Masalan, *shaxsiy qadriyat, etnik qadriyat, aks qadriyat* tushunchalarida millatning moddiy qadriyatlarini shakllanadi. "Qadriyat inson bilan dunyo o'rtasida

muvofiglashtiruvchi, rag'batlantiruvchi (yo'naltiruvchi), didaktik va tartibga soluvchi vazifani bajaradi" [6]. Aksiolingvistikada ijtimoiy hayotning moddiy turmushga oid qarashlari aks etadi.

Lingvokulturologiya lingvistikaning zamonaviy ilmiy yondashuvlar paradigmasida madaniy qadriyatlar tizimini o'rganadigan bo'lim hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasida milliy madaniyat tushunchalarini anglamasdan turib, xalqlar o'rtasida to'laqonli muloqotni amalga oshirish mumkin emas. Tadqiqotchilarga til va madaniyatning o'zaro aloqasini, bir-biriga ta'sirini hisobga olish milliy madaniyatlarning "tayanch tushunchalari" deb ataladigan narsalarni aniqlashga imkon berdi. Ularning ortida milliy madaniyatning eng muhim tushunchalari turadi. Tahlil qilinayotgan "lingvokulturologiya" atamasining ta'riflardagi konseptual mazmuni, asosan, madaniyat va tilni faoliyat ko'rsatish jarayonida tavsiflash muammolariga asoslanadi.

Lingvokulturologiyaning mohiyatini uzoqroqdan kuzatish orqali ham madaniyatlararo muloqot bilan chambarchas bog'laydigan boshqa sifatlari borligini anglash mumkin. Madaniyatlararo muloqot jarayonida dunyoning milliy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyat suratlari ochiladi. Demak, aksiolingvistika va Lingvokulturologiya o'zaro bog'liq hodisa. Ko'pincha lingvokulturologiya etnik madaniyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. "Lingvomadaniyat har qanday etnomadaniyatning ajralmas qismi bo'lib, u ma'lum bir etnik-lingvistik ong tomonidan mustahkamlangan va o'zlashtirilgan madaniyat va tilning o'zaro bog'liq hodisalarining sinergik tarzda vujudga kelgan uyg'unligidir" [7].

Bu ikki yo'nalish qiyoslash va zidlashda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Quyida aksiolingvistika va lingvoma'naviyatshunoslikning o'xshash tomonlarini qiyoslaymiz.

<b>AKSIOLINGVISTIKA</b>	<b>LINGVOMA'NAVIYATSHUNOSLIK</b>
<i>Aksiolingvistika lingvokulturologiya, lingvoma'naviyatshunoslikning umumiy xususiyatlarini qamrab oladi</i>	<i>Aksiolingvistikaning har qanday lingvistik birliklari lingvoma'naviyatshunoslik yo'nalishining birliklari mazmuniy ifodalanish jihatidan farq qiladi</i>
<i>Aksiologiya kategoriya sifatida muayyan shaxs va jamiyatning hayotiy faoliyati, dunyoqarashi, xulq-atvori va madaniy stereotiplari, moddiy hayoti asosini tashkil etadi</i>	"Ma'naviyat" leksik kategoriya sifatida shaxs ma'naviy sifatlarni ifodalovchi leksemalarining lingvistik xususiyatlarini yoritadi
<i>Qadriyatlar insonning ruhiy va moddiy dunyosi, milliy-madaniy dunyoqarashining o'ziga xos jihatlari aks ettiradi</i>	<i>Ma'naviyatga oid leksemalar insonning ma'naviy va milliy dunyoqarashini o'ziga xos jihatlari aks ettiradi</i>
<i>Aksiologik tilshunoslikning vazifasi qadriyatlarining borliq va jamiyatdagi struktural yaxlitligini ijtimoiy va madaniy hayot misolida lingvistik yoritish</i>	<i>Lingvoma'naviyatshunoslikning vazifasi markazida "ma'naviyati" konseptining struktural yaxlitligini lingvistik o'rganish</i>
<i>Aksiologik antropotsentrik xarakterga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi</i>	<i>Lingvoma'naviyatshunoslik shaxs ma'naviy sifatlari antropotsentrik yo'nalishda yoritish usullari bilan umumiylik kasb etadi</i>
<i>Aksiolingvistika – qadriyatlar va ularning lingvistik xususiyatini o'rganadigan yo'nalish</i>	<i>Lingvoma'naviyatshunoslik – shaxs ma'naviy sifatlarni aks ettiruvchi atov birliklarni o'rganuvchi yo'nalish</i>

**Natijalar.** Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, lingvoma'naviyatshunoslikning lingvokulturologiya va aksiolingvistika bilan o'rganish obyekti va predmeti farqlanadi:

– *birinchidan*, har uchala yo'nalishning obyektlari so'zlar, iboralar, so'z birikmalari, maqollar, gaplar ko'rinishlarida ifodalanadi. Biroq lingvokulturologiya obyekti kulturologiya, etnografiya va aksiologiya uchun umumiy bo'lib, har bir xalqning moddiy va madaniy qadriyatlarini til vositasida ifodalashga xizmat qiladi. Lingvokulturologiya fanining predmeti insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy madaniyatlarda aks etadi. "Madaniyat" leksemasida "moddiylik" semasi bilan bog'liq xususiyatlar o'rganiladi. Lingvoma'naviyatshunoslik esa bevosita shaxs ma'naviyati bilan bog'liq bo'lib, uning tarkibiy qismlari va unsurlari bo'lgan til ifodalarini qamrab oladi. "Ma'naviyat" leksemasining tarkibida va uning tekshirish obyektida "moddiylik" semasi bilan bog'liq xususiyatlar kirmaydi;

– *ikkinchidan*, Lingvokulturologiyada ham, aksiolingvistikada ham umumiylik va xususiylik tushunchalari bor. Masalan, *tabiatni asrash*, *salomlashish*, *to'y va aza* umumiy qadriyatlar hisoblanadi. To'g'ri, ayrim jihatlari-da xususiylik bo'lishi tabiiy, bu qadriyatlar mushtarakligidan darak beradi. Lingvoma'naviyatshunoslik bir xalqqa xos bo'lgan shaxs ma'naviy sifatleri bilan bog'liq tushunchalarni aks ettiradi. "Uyat", "or-nomus", "or-nomusni saqlash", "axloq", "hayo", "andisha", "farosat" tushunchalari hamma millatga ham birdek xos emas. Chunki har millatning o'z dunyoqarashi, hayot tarzi mavjud. Maqol va iboralarimizda xalqimizga xos bo'lgan "do'stlik", "yaxshilik", "mehmondo'stlik", "oila", "vatan", "salomlashish" konseptlarining lingvistik tahlili orqali yuqori qadriyat ifodalanishini ta'kidladik. Aslida bunday qadriyatlar zahirida "ma'naviyat" leksik-semantik kat-



egoriyasining tarkibi bo'lgan "e'tiqod"ga borib taqaladi. "ixlos", "vijdon", "adolat", "mehr", "sadoqat", "muhabbat" kabi ma'naviyatga oid tushunchalar bo'lsagina bular qadriyatga aylanadi va qadriyatlar turkumidan joy oladi;

– *uchinchidan*, aksiolingvistikada hudud, narsa-hodisa, marosim, tabiat kabi moddiy tushunchalarni qadrlash aks etadi, lingvoma'naviyatshunoslik moddiyatdan yiroq bo'lib, insonlarning axloqiy sifatlarida aks etadigan insoniy fazilatlar jamlanmasi. Tabiatda, hodisada, marosimlarda ma'naviy sifatlar bo'lmaydi. Ularda madaniy qarashlar jamlanmasidan iborat;

– *to'rtinchidan*, Lingvoma'naviyatshunoslik qiyosiy o'rganilmaydi, ya'ni boshqa tilda uning ko'rinishlari, aynan muqobili yo'q. Bu bo'lim taqliddan xoli ekanligidan darak beradi.

**Xulosa.** Lingvokulturologiya yo'nalishining nomlanishida "madaniyat – til" umumiy semasi, aksiolingvistikada "qadriyat – til" umumiy semalari mavjud bo'lib, o'rganilayotgan yo'nalishlarning xususiyatlari qiyosiy shaklga ega. Demak, jamiyatning taraqqiyoti ma'naviyatning takomillashuviga bog'liq. Lingvoma'naviyatshunoslik jamiyatning ma'naviy muvozanatini saqlovchi – kuch.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mengliyev B.R. Til bag'ridagi lingvoma'naviyatshunoslik: lingvoma'naviyatshunoslik va uning istiqbollari haqida // Ma'rifat, 2018- yil, 9- mart.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. II. – Toshkent: O'zME, 2006. 565-bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. III. – Toshkent: O'zME, 2006. 528-bet.
4. Галперин И. Р. Текст – как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – С. 2
5. Павлов С. Г. Лингвоаксиологическая модель человека: научно-методический аспект // Вестник Минского университета. – Мн., 2013. – № 2. – С. 56–68.
6. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – С. 60
7. Белозерова а.в., локтионова н. м. лингвокультуроология как лингвистическая дисциплина // современные проблемы науки и образования. – 2013. – № 1. ;С– 2.

Ra'no Ashurova,  
 2 ème année de master en direction de linguistique  
 de l'Institut National des langues étrangères de Samarkand

## SYSTÈME PONCTUEL FRANÇAIS : HISTORIQUE ET ÉTAT ACTUEL.

**Annotation:** Cet article est consacré à l'étude de l'évolution du système de ponctuation français, ainsi qu'à l'analyse du fonctionnement de l'opposition typographique dans un texte littéraire à partir des œuvres de la francophonie contemporaine. auteurs récompensés par divers prix littéraires. L'un des moyens de ponctuation dans le système moderne est le caractère périphérique «*police*», qui a les propriétés sémantiques, syntaxiques et prosodiques des signes de ponctuation nucléaires. Les résultats de l'analyse nous permettent de conclure que l'opposition de police remplit diverses fonctions dans le texte, participant au processus de production du texte. On peut parler des changements qui s'opèrent dans le système de ponctuation de la langue française moderne.

**Mots et phrases clés:** français, ponctuation, système de ponctuation, signe périphérique, police d'affichage, italique.

**French point system: history and current status**

**Annotation:** This article is devoted to the study of the evolution of the French punctuation system, as well as to the analysis of the functioning of typographic opposition in a literary text from works of contemporary Francophonie. authors who have won various literary prizes. One of the means of punctuation in the modern system is the peripheral character «*font*», which has the semantic, syntactic and prosodic properties of nuclear punctuation marks. The results of the analysis allow us to conclude that the font opposition performs various functions in the text, participating in the text production process. We can talk about the changes taking place in the punctuation system of the modern French language.

**Key words:** French, punctuation, punctuation system, peripheral sign, display font, italics.

**Французская баллическая система: история и современное состояние**

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению эволюции французской пунктуационной системы, а также анализу функционирования типографской оппозиции в художественном тексте из произведений современной франкофонии. авторов, лауреатов различных литературных премий. Одним из средств пунктуации в современной системе является периферийный знак «*шрифт*», обладающий семантическими, синтаксическими и просодическими свойствами ядерных знаков препинания. Результаты анализа позволяют сделать вывод о том, что шрифтовая оппозиция выполняет в тексте различные функции, участвуя в процессе текстопорождения. Можно говорить об изменениях, происходящих в системе пунктуации современного французского языка.

**Ключевые слова:** французский язык, пунктуация, система знаков препинания, периферийный знак, акцидентный шрифт, курсив.

Au 21ème siècle, la ponctuation est devenue un objet d'intérêt constant des chercheurs. Ils étudient notamment questions de statut, finalité fonctionnelle des signes de ponctuation dans les textes, une théorie moderne est en train de se créer ponctuation basée sur la description des fonctions des signes de ponctuation dans l'organisation communicative et pragmatique du texte. Cependant, la question du système des signes de ponctuation n'est pas moins importante : considérant la ponctuation au sens large, aujourd'hui de plus en plus de personnes parlent d'élargir la liste des signes de ponctuation [3,4].

Le système de ponctuation de la langue française moderne comprend des signes de ponctuation centraux et périphériques [3,4-8]. Selon les chercheurs, les signes graphiques nucléaires non alphabétiques servent pour diviser une phrase et un texte (point, virgule, ellipse, etc.), et les signes typographiques correspondent pour l'organisation compositionnelle-spatiale du texte et, à l'opposé de la première, renvoient aux signes de la périphérie (police, paragraphe, apostrophe, etc.). Il convient de noter que les principaux critères de certain signe à la périphérie sont des «signes de fonctionnement irrégulier par rapport avec d'autres éléments du système» [5,18].

La pertinence de l'étude est causée par une connaissance insuffisante du fonctionnement des signes de ponctuation, qui appartiennent à la périphérie du système, de leur rôle dans le processus de production du texte.

La nouveauté scientifique consiste en une tentative de considérer le système de ponctuation français sous des aspects diachroniques et synchrones, changements liés au mouvement des signes de ponctuation périphériques au cœur du système.

Le but de cet article est d'étudier l'évolution du système de ponctuation français, ainsi que d'analyser fonctionnement de l'opposition de polices dans un texte littéraire. Comme matériau de recherche, les œuvres d'auteurs francophones contemporains récompensés par divers prix littéraires ont été sélectionnées. De l'histoire de la ponctuation française.

Le système de ponctuation français a parcouru un long chemin. Comme ils disent chercheurs, au IIe siècle av. J.-C. Zénodote, Aristophane de Byzance et Aristarque, gardiens Bibliothèque d'Alexandrie, ont été les premiers à décider de transférer en marge des manuscrits tous les passages qui n'appartiennent pas aux auteurs [2,11]. Ce sont eux qui ont introduit la division en chapitres, et aussi inventé les signes de ponctuation. Ainsi, Aristophane de Byzance utilisait trois signes

: un point en haut d'une ligne (le point parfait, *distinctio maxima*), c'est-à-dire un long arrêt, un point au milieu de la ligne (le point moyen, *distinctio media*), le point au bas de la ligne (le sous-point, *subdistinctio*) est le signe d'une courte pause. Ces trois caractères correspondent au point moderne, point-virgule et deux-points ou virgule. Puis ils ont commencé à utiliser le point pour séparer chaque mot du suivant. Aux IV-V siècles. commencer à utiliser un espace - chaque période majeure commence par un trait rouge et par une majuscule. Dans certains manuscrits des Ve-VIe siècles. Il y a des citations sous la forme de S, W. Dans Grégoire de Tours, le rôle d'un point est joué par le signe (;), qui, avant le début du discours de quelqu'un d'autre, joue le rôle du cōlon. Il faut dire qu'il n'existait pas encore de règles uniformes de ponctuation.

Les premiers livres français sont publiés à l'imprimerie de la Sorbonne en 1470. Au XVe siècle, la ponctuation française avait deux caractères : un point et une virgule. La ponctuation française moderne a commencé à s'imposer seulement au XVIe siècle avec l'avènement des traités typographiques : l'usage fonctionnel des fontes commence (charte, italique) et couleurs (noir, rouge). En 1533, l'apostrophe a commencé à être utilisée, et en 1540, le trait d'union [1,8-11].

Dans son travail, Dole décrit six caractères : virgule, deux-points, point, point d'interrogation, point d'exclamation et crochets. Hormis le cōlon, qui correspond au point-virgule moderne, tous les autres signes ont les mêmes fonctions que les signes qui existent aujourd'hui.

Au XVIIe siècle, le paragraphe, le point-virgule et le point d'exclamation sont apparus. Un peu plus tard – carré parenthèses et barres obliques. Les signes «ellipse» et «tiret» sont apparus pour la première fois en Allemagne en 1660, tandis que le cōlon dans son utilisation moderne s'est formé tout au long du 18ème siècle. Jusqu'à la fin du XVIIIe siècle les signes de ponctuation étaient peu utilisés, utilisant principalement quatre caractères : un point, une virgule, un point avec virgule et deux-points. Cependant, il y avait aussi des exceptions. Les chercheurs citent en exemple l'écrivain Retief de la Bretonne, qui dans son ouvrage «Mimograph» («La Mimographe»), publia en 1770, utilise largement tous les signes disponibles dans l'arsenal, et notamment les points de suspension [1,9-11]. Ponctuation, donc considéré comme un domaine peu méritant d'attention, volontairement laissé par les auteurs à l'appréciation de leurs éditeurs.

Certains grammairiens de cette époque essaient de considérer théoriquement l'utilisation de la ponctuation. Donc, Jean-Léonor de Grimarest la rebaptise «petite science», tandis que Nicolas Bozet, auteur chapitre «Ponctuation» de l'Encyclopédie de Diderot et d'Alembert, la considère comme une «métaphysique raffi-

née». Sa définition de la ponctuation se résume à deux phrases :

- 1) *l'art d'indiquer sur une lettre à l'aide de signes acceptés le rapport des pauses qui existent à l'oral;*
- 2) *il est évident que cela (la ponctuation) doit dépendre du besoin de respirer, ainsi que du sens, formant en même temps, des phrases complètes [9,11].*

Au XVIIIe siècle il y a des tentatives pour renforcer le système des signes de ponctuation et la théorisation de leur utilisation par les grammairiens. Cependant, leur utilisation n'est pas standardisée ; de plus, un seul et même un même signe pouvait avoir des significations différentes dans des livres différents, les interprétations typographiques différaient selon les éditeurs [8,11].

Le nouveau siècle marque un tournant dans l'histoire de la ponctuation française associée au développement la presse et la distribution de livres bon marché : l'imprimerie sort de l'artisanat ; livre inclus dans la vie de tous les jours (avant c'était un article de luxe) et devient accessible à une masse plus large mais moins éduquée. Ainsi, selon les chercheurs, au XIXe siècle, le système de ponctuation française a finalement pris forme et s'est enraciné dans sa forme actuelle [10].

Juliette Dubois soutient que depuis le XIXe siècle le domaine de la ponctuation appartient aux éditeurs et imprimeurs, et non aux auteurs [9]. Pour preuve, les chercheurs citent une partie de la définition donnée par Pierre Larousse (grammairiste et éditeur à la fois) dans l'article «Ponctuation» du dictionnaire «Grand Larus du XIXe siècle» : les règles de ponctuation sont fixes, basées sur la syntaxe, elles ne permettent aucune fantaisie, ni les caprices de personne [9,11]. Depuis le XIXe siècle, il y a eu plusieurs tentatives pour reconstituer le système de ponctuation français avec de nouveaux éléments. Un signe d'ironie (Alcanter de Brahm), un signe d'indignation (Raymond Queneau), demi-virgule et virgule interrogative (J. Maruso). Hervé Bazin a inventé tout un système de signes : un signe de doute, un signe de confiance ou de foi, un signe d'approbation, un signe d'amour, un signe de puissance. Cependant, aucun de ces signes de ponctuation n'a été fixé dans le système de ponctuation français [1,8].

Selon les philologues, au même XIXème siècle, l'assouplissement des normes de ponctuation du français Langue. Mallarmé a commencé à n'utiliser que le dernier point, en novembre 1912, Apollinaire a complètement abandonné les signes de ponctuation dans ses poèmes. Son exemple fut suivi par d'autres poètes et chansonniers. Louis Aragon considérait la rime comme le seul signe de ponctuation [1,10].

Au 20ème siècle, les écrivains commencent à s'accorder des «libertés» et à utiliser à volonté cette «petite science». Progressivement, l'assouplissement des normes de ponctuation est transféré à la prose artistique.

## Liste des sources:

1. Beregovskaya E.M. Essais sur la syntaxe expressive. M. : Rokhos, 2004. 208 p.
2. Vedenina L. G. Ponctuation de la langue française. Moscou : École supérieure, 1975. 168 p.
3. Glazkova A. V. La variation typographique comme outil de production de narration dans le roman de Bernard Werber « Les fourmis » : autoréf. insulter. K. philol. n.m. Voronej, 2013. 22 p.
4. Kornienko A. A. Ponctuation: changements dans le système // Bulletin de la linguistique d'État de Piatigorsk université. 2013. N° 3. P. 127-130.
5. Merkulova I. G. Signes de ponctuation périphériques dans la prose française moderne : diss. ... K. philol. n.m. M., 2001. 167 p.
6. Tkachenko L. N. Ponctuation et organisation graphique du texte narratif français moderne (basé sur les textes de P. Begbeder): diss. ... K. philol. n.m. Voronej, 2013. 169 p.
7. Aubry G. Personne. P. : Mercure de France, 2009. 159 p.
8. Catch N. La ponctuation : histoire et système. P. : Presses universitaires de France, 1996. 128 p.
9. Dubois J. Point de compréhension sans ponctuation [Ressource électronique]. URL : <http://pontt.net/2008/08/pointdecompre>
- hensionsansponctuation-j-dubois2008/ (date d'accès : 23/02/2010).
- 10 Grevisse M. Le bon usage. Grammaire française. P. : Duculot, 1993. 1762 p.
11. Houdart O., Prioul S. L'art de la ponctuation. Saint-Amand-Montrond : Éditions du Seuil, 2009. 222 p.

To'xtamurod Rajabov

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

## BADIY KO'CHIM VOSITASIDA YANGI MA'NO HOSIL QILISH SHAKLLARI

**Annotatsiya.** Ko'chimlar davr talabi, zamon ehtiyoji, kishilarning ongi va dunyoqarashiga bog'liq holda yangi ma'no qirralari bilan bo'y ko'rsatib kelavergan. Xazon ko'chimi an'anaviy ko'chim hisoblanib, o'zida turli ma'nolarni ifodalashi mumkin. Ko'chimlar poeziyada g'oya, mazmuni ifodalovchi asosiy unsurdur. Har bir ko'chimda ichki va tashqi ma'no mujassam bo'lgan bo'ladi. Zamonaviy she'riyatda ham xazon so'zi orqali ko'chimlar hosil qilingan. Ko'chim sifatida tanlangan ifoda o'zining bir qator omonimlik xususiyatlariga ega bo'lganligi sababli undan turli davrlarda, turli-tuman mavzuni yoritishda faol qo'llash mumkin.

**Kalit so'zlar:** lirika, ko'chim, tazod, obraz, tanosub, motiv, omonimlik, badiiy to'qima, estetik ta'sirdorlik, trop, bayt;

### Forms of creating new meaning through art transport

**Annotation.** Migrations have been showing up with new aspects of meaning depending on the demand of the times, the needs of the time, people's consciousness and worldview. Khazan migration is considered a traditional migration and can express different meanings. Movements are the main element expressing ideas and content in poetry. Every move has internal and external meaning. In modern poetry, migrations are created through the word hazan. Since the expression chosen as a metaphor has a number of homonymous features, it can be actively used in different periods and to cover different topics.

**Key words:** lyrics, movement, contrast, image, proportion, motif, homonymy, artistic texture, aesthetic impact, trope, stanza;

### Формы создания нового смысла через искусство транспортная

**Аннотация.** Миграции проявляются с новыми аспектами смысла в зависимости от требований времени, потребностей времени, сознания и мировоззрения людей. Хазанская миграция считается традиционной миграцией и может выражать разные значения. Движения являются основным элементом выражения идеи и содержания в поэзии. Каждое движение имеет внутреннее и внешнее значение. В современной поэзии миграции создаются через слово хазан. Поскольку выражение, выбранное в качестве метафоры, имеет ряд омонимичных признаков, оно может активно использоваться в разные периоды и для освещения разных тем.

**Ключевые слова:** лирика, движение, контраст, образ, пропорция, мотив, омонимия, художественная фактура, эстетическое воздействие, троп, строфа;

**Kirish.** Mumtoz lirika ko'chim va o'xshatishlarning tub o'zagida bunyod bo'lganligi hamda shu yo'nalishda falsafiy qarashlar majmuini paydo qilgani bilan ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida poeziya yaxlit bir san'at ko'rinishida namoyon bo'libdiki, bunda ko'chim hosil qilish, an'anasi shakllangan va bu an'anaga qat'iy

amal qilingan. Ortiqboy Abdullayev ta'kidlaganidek: "She'riyat muttasil va muntazam izlanish mevasidir. Izlangan sho'rgina hayot muammolari haqida, inson qalbining sirli sadolari haqida yangi fikrlar aytishga, yangi she'riy obrazlar yaratishga qodir. Izlanishda ham, izlanish bor".

Ko'chimlar davr talabi, zamon ehtiyoji, kishilarning ongi va dunyoqarashiga bog'liq holda yangi ma'no qirralari bilan bo'y ko'rsatib kelavergan. Misol uchun, shoh va shoir Bobur asarlarida bir mazmun ifodalagan ko'chim bugungi davr taqozosi bilan yangicha bir jilo kasb qilgan bo'lishi tabiiy hol.

*"Xazon yaprog'i yanlig' gul yuzung hajrida sarg'aydim,  
Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim,"*

Bobur anglab olish qiyin ifodalar, haddan ortiq mubolag'alardan qochib fikrni ravshan ifodalashga harakat qilgani ko'rinib turadi. Shoir qarashlarini hayotiy detallar orqali rivojlantiradi. Ma'shuqa va oshiqning o'zaro ruhiy holatini bir-biriga qarshi qo'yish orqali tazod san'atini hosil qiladi. Ushbu baytda ikkita muhim obraz – lola va xazon yaprog'i oshiq va ma'shuq holatini to'la ifodalagan. Lirik qahramon ma'shuqani lolaga, oshiqni xazonga o'xshatadi. Bu orqali ham ko'chim, ham tazod san'atini hosil qiladi. Chunki lola va xazon bir-birini inkor etuvchi tushunchalardir. Yor oshiq nazdida beparvoligi uchun guldek yashnayapti. Oshiq esa hajr o'tida yonmoqda va xazon kabi tamom bo'lmoqda. Baytda shoir ma'shuqaga nisbatan "gul yuz", "lola ruh", oshiqqa nisbatan "xazon yaprog'i", "hajrida sarg'aydim", "chehrai zardim" ko'chimlarini qo'llash orqali tanosub san'atini ham hosil qiladi. Ushbu ko'chimlar o'zaro birlashib, ishq haqida, ishq dunyosining nozozligi haqida bir hikoyaga aylanadi.

Xazon ko'chimi an'anaviy ko'chim hisoblanib, o'zida turli ma'nolarni ifodalashi mumkin. Ta'kidlab o'tish kerakki, «Har qanday adabiy-badiiy takomil u yoki bu darajada o'zigacha bo'lgan adabiyot bilan vorislik aloqalari asosida shakllanadi». O'z davrida xazon so'zi turli xil ma'nolarda qo'llangan, ya'ni bu so'z qarilik, ko'ngil, yolg'izlik, asbiylik, judolik, kuz fasli, mag'lubiyat, ziynat, boylik kabi bir qator tushunchalarni ham ifodalagan. Albatta, yangi davr she'riyatida ham muayyan bir so'z mavhumlik tug'dirmasligi uchun so'zning aniq shakli va u ifodalaydigan ma'noni anglab olish zarur bo'ladi. Chunki ko'chimlar poeziyada g'oya, mazmunni ifodalovchi asosiy unsurdir. Har bir ko'chimda ichki va tashqi ma'no mujassam bo'lgan bo'ladi. Zamonaviy she'riyatda ham xazon so'zi orqali ko'chimlar hosil qilingan. Buni, Muhammad Yusufning "O'g'lonlar" she'rida ham kuzatish mumkin.

*"Alpomishday kelbatidan gapirmay,  
O'n sakkiz yoshga ham kirib yo kirmay.  
O'n gulidan bir guli ham ochilmay,  
Umri xazon bo'lib ketgan o'g'lonlar."*

"Poetik motivlar mazmun jihatidan muayyan "uya"ni tashkil qiladi, "uya"dagi motivlar matnda aksar hollarda birga qo'llanadi yoki nazarda tutiladi". Ushbu to'rtlik orqali shoir Afg'onistonda halok bo'lgan o'zbek o'g'lonlarini yodlaydi, ularning pok ruhiga hurmat bajo keltiradi. Bu so'z Navoiy baytida "qarilik" ma'nosida, Muhammad Yusuf ijodida "o'lim" ma'nosida ishlatiladi. Badiiy g'oya, she'rdan kelib chiqadigan obrazli umum-

lashma sifatida xazon so'zi turli ma'nolarda kela oladi. Tasvirlanayotgan voqea-hodisaga muallif g'oyaviy-hissiy munosabati yetakchi rol o'ynaydi. Ijodkor so'zdan foydalanayotganda o'zini voqelikdagi qaysi jihatlar qiziqtirishi, ularga qanday g'oyaviy-hissiy munosabatda bo'lishini o'zi belgilaydi.

Ko'chim sifatida tanlangan ifoda o'zining bir qator omonimlik xususiyatlariga ega bo'lganligi sababli undan turli davrlarda, turli-tuman mavzuni yoritishda faol qo'llash mumkin. Bu holatda, avvalo, ushbu ko'chim xarakter va ma'no tomonidan shu davrning barcha xususiyatlariga javob bera olishi kerak. Bu esa ijodkor g'oyalarining aniqligi va ifodaviyligini belgilovchi omil sanaladi. Xususan, Ogahiy ijodini o'rganish jarayonida "xazon"ni kuz fasliga monand ishlatilganini ko'ramiz. Aslida, mumtoz she'riyatimizda xazon so'zi kuz faslini ifodalaydi. Umumlashtirish, individuallashtirish, badiiy to'qima va estetik ta'sirdorlik adabiy asarning hamma unsurlariga taalluqli. Umumiy ko'rinish ham badiiylarning ko'rsatgichi bo'lganidek ko'chimsiz birona san'at turini ham yaratish mumkin emas. Birgina "xazon" so'zining ko'chim sifatida yuzlab ma'nolarda qo'llanilishining o'zigina fikrimizni tasdiqlay oladi.

*"Xazoni g'am aro afsurdaman qish yanglig', ey soqiy,  
Bahori lutf ila may gullarin ochg'ilki yoz o'lsun"*

Yuqorida xazon so'zining qarilik, o'lim kabi tushunchalarni ifodalashini ko'rgan edik. Bu yerda Ogahiy "xazon"ni qo'llash orqali kuzni ifoda etgan. Ishqiy mavzuda yozilgan bu baytda shoir yoridan kelayotgan azoblarni rohat deb qabul qiladi. Ma'shuqa qancha jabr qilsa, oshiq bundan shuncha rohatlanadi.

Ko'rinadiki, "xazon"ga yuklangan ma'no turli tomonlama fikr birlashmasiga olib kirilib, turli ma'no ifodalarni yuzaga chiqargan. Baytlardagi ma'nolar ilohiy ilhom natijasi bo'lib, shoirlar ijod laboratoriyasida pishib yetilgan. Zero, she'r ilohiy ilhom samarasi, inkishofi, tajassumi, shu bois u oniy lahzada chaqinday chaqnaq, momoqaldiroqday gumburlab, aks-sado berib, qalbni ravshanlashtiradi, tozartiradi.

Poetik ko'chimni hosil qilish uchun ajratib olingan so'z yoki so'z birikmasi hamisha aniq bo'lishi va ko'chimga aylanishi uchun o'zgaruvchan harakatni sodir etishi kerak. Bir so'z ko'chim hosil qilgandan keyin turg'unlik holatini yo'qotadi va shaxsiy ifoda berishi uchun xizmat qiladi. Bir so'z yaratilgan davrda aniq ma'no ifodalaydi, ammo davrdan-davrga ko'chgan paytda ma'no qirralari o'zgarib, trop hosil qiladi. Mana shu harakat uni aniq bir ko'chim, aniq bir mavzu, aniq bir motivga aylantiradi. Zamonaviy o'zbek she'riyatining iste'dodli vakili Usmon Azim lirikasida "xazon" so'zi turli ma'nolarda qo'llanilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Albatta, shoirning ijodidagi berilgan "xazon" o'xshatishdir. O'xshatish haqida Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari" asarida quyidagicha yozadi: "Bir sifatda, bir holda o'rtoq bo'lg'an ikki narsani bir-biriga chog'ishtirish adabiyot tilida o'xshatish bo'ladi". Xazon ko'chimini Usmon Azimning quyidagi she'riy parchasi orqali kuzatamiz:



*“Iztirob – umrning xazonligida  
Kunlaring haq sari tashlarkan qadam,  
Qalb chiqib betartib to‘g‘onligidan,  
Ko‘radi: o‘limu hayot bir qadam”.*

Bu holat she‘rning estetik qimmatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shakl, mazmun va ko‘chimning uyg‘unligi ifodani ham yuksak darajaga ko‘taradi. Ijodkorda o‘zgalarning yo‘nalishidan ajralib turuvchi o‘z so‘zi, o‘z yo‘li borligini ko‘rish mumkin. Usmon Azimning poetika oldiga qo‘ygan maqsadlari ham hayotni to‘g‘ri va haqqoniy tasvirlashdan iboratdir. Yuqoridagi bandda ham shoir tuyg‘ularini qog‘ozga tushirar ekan, o‘limning haqligiga ishora qiladi. Unga tayyor turish kerakligi haqida gapiradi. O‘lim tushunchasi yashamoqning

davomi ekanligini o‘quvchiga ham singdirishga harakat qiladi. Birinchi misrada ifodalangan xazon so‘zi umrning o‘tkinchiligiga, hech nima abadiy ekanligini aytadi. Bu orqali so‘z ma‘no yuki ham oshib boraveradi. Bu fikrga yondosh holda adabiyotshunos olim Izzat Sulton quydagicha qarashlarni bayon etadi: “Badiiy asar tili go‘zalligining aniq bir sharti bor tasvir aniq ravon bo‘lishi, Ya‘ni tasvir etilayotgan xulq, harakat, yoki manzara til tufayli o‘quvchilarning ko‘z oldida aniq va yorqin namoyon bo‘lishi zarur” Demak, yozuvchi-san‘atkor hamma vaqt yangilik yaratadi. Chunki uning vazifasi – tabiat va odamning nuxsasini berish emas, balki o‘xshash qilib yaratilgan narsaga jon va harakat ato etishda, uning qalbi, mazmuni, xarakterli ko‘rinishi haqida taassurot uyg‘otishda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T.: Fan, 1983. 71-bet.
2. Tojiboyeva M.A. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an‘analari. Fil.fan.dok ...dis. avtoref. – Toshkent. 2018. 27-bet.
3. Yusuf M. Saylanma. – T.: Sharq. 2007. 54-bet.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akadernashr. 2010. 181-bet.
5. Ogahiy. Devon. – T.: G‘afur G‘ulom. 421-bet.
6. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – T.: O‘qituvchi, 1995. 62-bet.
7. Sulton I. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.: Sharq. 1980, 206-bet.
8. <https://ziyouz.uz/videoteka/bobur-xazon-yafrogi-yanglig-gul-yuzung-hajrida-sargardim-video/>

**Rashidova Madina Rahmatovna**  
Toshkent davlat agrar universiteti  
Samarqand filiali assistenti

## SO‘Z-GAPLAR TASNIFI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada odatiy gaplardan ajralib turuvchi va bir so‘z bilan ifodalanuvchi gaplar, ya‘ni so‘z-gaplarning tasnifi haqida fikr yuritganmiz. So‘z-gaplar o‘ziga xos struktur ko‘rinishga ega bo‘lib, ularni gap bo‘laklariga bog‘lab bo‘lmasligi, shu bilan birga ularning sintaktik xususiyatlariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** so‘z-gaplar, gap bo‘lagi, gap, so‘z, modal so‘zlar, undov so‘zlar, tasdiq so‘zlar, inkor so‘zlar, taklif so‘zlar, ishora so‘zlar, sintaktik xususiyat, kesimlik qo‘shimchalari.

**Annotation:** In this article, we examined the classification of sentence words that differ from ordinary sentences and are expressed in one word. Sentence words are a special structural type, in that they cannot be associated with sentence members. Their syntactic features are also discussed.

**Key words:** Sentence words, sentence, part of speech word, modal words, interjections, affirmative words, negative words, suggestive words, syntactic features, verbal suffixes.

**Аннотация:** В данной статье мы рассмотрели классификацию слов-предложений, которые отличаются от обычных предложений и выражаются одним словом. Слова-предложения представляют собой особый структурный тип, то, что они не могут быть связаны с членами предложения. Также обсуждаются их синтаксические особенности.

**Ключевые слова:** Слова-предложения, предложение, часть речи слово, модальные слова, междометия, утвердительные слова, отрицательные слова, суггестивные слова, синтаксические особенности, глагольные суффиксы.

Biz nutqimizda qo‘llaydigan gaplarning aksariyat qismi, bir vaqtning o‘zida ham kommunikativ birlik, ya‘ni, muloqot vositasi ham sintaktik elementlardan qurilgan grammatik struktura hisoblanadi. Bular ikki bosh bo‘lakli sintaktik tarkib hisoblanib, ega va kesimdan iborat bo‘lgan gaplar: *Baxshi bor joyda yaxshi bor (maqol)*; yoki izohda mutloq mustaqil va kontekstga murojaat talab etmaydigan asosiy gap bo‘lagining yagona sintaksis pozitsiyasi namoyon bo‘lgan bir bosh bo‘lakli gaplar: *Yirtqichni uyasida yanch (maqol)* bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari ikki bosh bo‘lakli elliptik, ya‘ni to‘liqsiz gaplar ham bor. Ularda asosiy bosh bo‘lak tushib qolganligiga qaramasdan, gapni to‘ldirib kelayotgan ikkinchi darajali bo‘laklar aynan nima tushib qolganligini ochiqlab bera oladi. *Rassom Rashid Temurov Samarqand va Buxoro haqida (gaz.)*. Shu bilan birga bosh bo‘lak yoki ikkinchi darajali gap bo‘laklari tushirib qoldirilganda gap ma‘nosini tushunib bo‘lmaydigan to‘liqsiz gaplar ham mavjud: *“Muhtasham yuz yil”dan tortib «Ishkomli uy”gacha. Mashhur turk yulduzlari Toshkentga tashrif buyuradi (gaz.)*.

Lekin nutq jarayonida alohida soʻzlardan tashkil topgan, gapning bosh boʻlaklari yoki ikkinchi darajali boʻlaklari sifatida idrok etilmaydigan gaplar ham uchraydi. Gapning bu turini soʻz-gaplar deyimiz. Ular mustaqil gaplarga ekvivalent boʻlib, avvalambor baholash, modal xarakterlar va munosabatlarni ifodalash, matn, qolaversa, dialog xususiyatlarini saqlab qolish uchun xizmat qiladi.

Soʻz-gaplardan asosan, nafaqat soʻz, balki vaziyatga mos keluvchi noverbal vositalar – yuz ifodasi, imo-ishoralalar, intonatsiyalar bilan ham maʼno ifodalash imkoni mavjud boʻlgan dialoglarda keng foydalaniladi. Bunda suhbatdoshni tushunish uchun til strukturalarining toʻliq shaklidan foydalanish shart emas. Aksincha, munosabat yoki maqsad ixcham shaklda ifodalangan-da ham tinglovchi tomonidan toʻliq idrok etishga yetarli boʻladi.

Soʻz-gaplar uchun “grammatik struktura” atamasi qoʻllanmasligiga qaramasdan, ularning komponentlari orasidagi farqni koʻrsatish mumkin:

Bir komponentli (gap rolidagi alohida mustaqil soʻzlar): Marhamat; Ha; Yoʻq; Iltimos va boshqalar.

Koʻp komponentli (turgʻun birikmalar, his-tuygʻu ifodalovchi soʻzlar, kirish-modal soʻzlar): Ana xolos; Xush kelibsiz; Yangi yilingiz bilan! va h.k.lar.

Aralash (koʻp komponentli boʻlishiga qaramasdan, qisqargan holda ham foydalaniladigan soʻzlar):!;

Morfologiyaga asoslanib, soʻz-gaplarni asosiy soʻz turkumlari, shaxssiz predikativ soʻzlar va his-hayajon bildiruvchi soʻzlar orqali ifodalash mumkin deya olamiz. Lekin shuni yodda tutishimiz zarurki, bu turli shakldagi soʻz-gaplarga ehtiyojdan kelib chiqqan holda, toʻliq shaklini tiklashimiz mumkin boʻlgan toʻliqsiz gap sifatida qarash notoʻgʻri. Masalan, *Yangi yilingiz bilan!* jumlasini ham: *Men sizni yangi yil bilan tabriklayman!* singari muloqot jaroyoni nuqtayi nazaridan toʻla-toʻkis gap. Faqatgina ikkinchi gap struktur qurilishga ega, birinchisi esa yoʻq.

His-tuygʻularni va modallikni ifodalash tomonlama muloqotning kommunikativ maqsadlari xilma-xildir. Bu soʻz-gaplarning asosan dialogik nutqda koʻp uchrashini ifodalaydi. Shu bilan birga ularning funksiyalaridan kelib chiqib 4 guruhga ajratish mumkin:

1. Faktning modal kvalifikatsiyasi va soʻzlovchining bu faktga boʻlgan munosabati – qatʼiy ishonch, gumon, taxmin kabi maʼnolarni ifodalab keladigan soʻzlar modal soʻzlardir. Ularga xullas, demak, chamasi, tabiiy, ehtimol, shubhasiz, shekilli kabi soʻzlar misol boʻla oladi. Shu bilan birga biz oddiygina tasdiq va rozilik ifodasi:

*Ha; Albatta;* va inkorni koʻrishimiz mumkin: *Yoʻq; Hech qachon.*

Bundan tashqari soʻzlovchining holatini ifodalovchi stilistik jihatdan murakkabroq gaplarni ham uchratishimiz mumkin:

*Oʻzing bilasan* (soʻzlovchi suhbatdoshining fikriga noiloj, istamay rozi boʻlayotgani); *Qoʻysang-chi* (suhbat-

doshning soʻzlariga ishonmaslik yoki uni bajarilayotgan harakatni toʻxtatishga chaqirish).

Subyektiv modallikning stilistik boʻyoqdorlikka ega namunalari asosan soʻzlashuv nutqi va badiiy adabiyot dialoglarida koʻproq uchraydi. Stilistik jihatdan belgilangan modal mazmundagi soʻz-gaplar haqiqiy boʻlmagan dialoglar uchun ham xosdir. Bunda qahramon oʻz nutqida ikki tomon – oʻzi va xayoliy suhbatdoshi nomidan ham gapiradi:

Yongʻinga oʻxshaydimi? Yoʻgʻe, tutun koʻrinmaydi-ku! (A.P. Chexov)

2. Fakt yoki subyektini emotsional baholash asosan his-hayajon ifodalovchi soʻzlar va baho berish tipidagi shaxssiz predikativ soʻzlar bilan amalga oshiriladi.

Bu turdagi soʻz-gaplar juda xilma-xildir:

Quvonch, zavq: *Ajoyib!, Zoʻr!* Hayrat: *Ana xolos!, Voy! Afsus: Oh, Xudoyim!, Afsus Gʻazab: Jin ursin! Buyruq-xitob: Pisht!, Chuh!*

Kishilarning his-tuygʻularini, haydash, toʻxtatish kabi xitoblarni, buyruqlarni ifodalaydigan soʻz-gaplarning koʻrinishi undov soʻzlardir: *Toʻxta!, Ketdik!, Ortga! Yoʻqol!, Chiqib ket!, Jim! Qimirlama!*

*Toʻxta!* – deya baqirib uning qoʻlidan tortdim. (A.Moravia “Chaqaloq”)

Bundan tashqari, bu kabi buyruq gaplardan harbiy sohada ham keng foydalaniladi. Masalan, *Oʻt och!, Saflan!, Qadam bos! va boshqalar.*

3. Tasdiq yoki aksincha inkorni ifodalovchi soʻzlar koʻpincha modallar tarkibida oʻrganilgan. *Ha, mayli, xoʻsh, xoʻp* soʻzlari tasdiqni, *yoʻq, mutlaqo, aslo, sira* soʻzlari inkorni ifodalovchi soʻz-gaplardir.

4. Taklif-ishora soʻzlarga qoʻllanishi tana aʼzolarining maxsus harakatlari bilan uzviy bogʻliq boʻlgan ma, mang, qani, marhamat soʻzlari kiritilgan. Ular tinglovchiga qaratilgan boʻlib, uni biror ish-harakatni bajarishga undaydi.

Yuqoridagilardan tashqari yana etiket soʻzlarini ham soʻz-gaplarga misol qilib koʻrsatishimiz mumkin: *Assalomu alaykum!, Xayr!, Marhamat!, Xush kelibsiz!, Xayrli kun!, Koʻrishguncha! Oq Yoʻl! va h.k.lar.*

Soʻz-gaplar shunday hodisalar guruhiki, ularning juda koʻpchiligi boshqa soʻz turkumlaridan oʻziga xos nutqiy qoʻllanish natijasida shakllangan va rivojlangan. Masalan, *soʻzsiz, tabiiy* soʻzlari sifatdan, *albatta* ravishdan kelib chiqqan boʻlsa, *har qalay, har holda* modal soʻzlari soʻz birikmalaridan, *nasib boʻlsa, xudo xohlasa* kabilar gaplardan kelib chiqqan.

Sof soʻz-gaplarga *albatta, alhamdulillah, eh, hoy, oʻh, ha, yoʻq, mutlaqo, ma, mang* kabi modal, undov, tasdiq-inkor, taklif-ishora soʻzlari mansubdir. Oʻzbek sistem tilshunosligida soʻz-gaplar modallashgan, undovlashgan, tasdiq-inkorlashgan, taklif ishoralashgan soʻzlar, modallashayotgan, undovlashayotgan, tasdiq-inkorlashayotgan, taklif-ishoralashayotgan soʻzlar, modalsimon, undovsimon, tasdiq-inkorsimon, taklif-ishorasimon soʻzlar va ularning nutqiy voqelanishlari mufassal oʻrganilgan.

“Soʻz-gaplashgan” soʻzlar oʻz semantik-funksional xususiyatlari bilan har xil guruhning markaziy leksemalariga juda yaqin turishiga qaramasdan, boshqa soʻz turkumlardan oʻz aloqasini toʻliq uzmagani boʻladi. Modallashgan soʻzlarga: *chamasi, chogʻi, ehtimol*; undovlashgan soʻzlarga: *olgʻa, dod, voydod*; tasdiq-inkorlashgan soʻzlarga: *boʻpti, maʼqul, aksincha, mutlaqo*; taklif-ishoralashgan soʻzlarga: *qani* kabi leksema misol boʻla oladi.

“Soʻz-gaplashayotgan” soʻzlar soʻz-gaplarga toʻla-toʻkis oʻtgan boʻlmaydi va soʻz-gaplarga “oʻtish yoʻlida” turgan soʻzlardir. A.M.Peshkovskiy “ayrim sifatlar sifatlardan uzilib toʻla-toʻkis otlarga oʻtib ketgan boʻlsa, ayrim sifatlar otlarga oʻtishning yarim yoʻlida turibdi” deb ruscha “мороженое” va “больной” soʻzlarini misol keltiradi. Bu oʻrinda modallashayotganlarga *balki, hatto, aftidan*; undovlashayotganlarga *yashang, voy oʻlay*; tasdiq-inkorlashayotganlarga *durust, rost, aslo*; taklif-ishoralashayotganlarga *mana mundoq* kabi soʻzlarni misol keltirish mumkin.

**Balki**, bu qiz Ona boʻlur tugʻilajak oʻgʻlimga. (Mirtemir)

*U sodiq qul, balki undan battar odam edi. (Oybek)*

*Shunchaki, stakanni stolni ustiga qoʻyish kerak. -*

**Toʻppa-toʻgʻri**, - dedi quvonch bilan professor.

**Toʻgʻrisini** aytsam, shoshib qoldim. (Gaz)

Ushbu misollarda keltirilgan gaplarning birinchi va uchinchisida “soʻz-gaplashayotgan” soʻzlar qoʻllanilgan.

“Soʻz-gapsimon” lar deganda mohiyatan soʻz-gap boʻlmagan lugʻaviy birliklarning soʻz-gap vazifasida kelishi tushuniladi. Jumladan, modalsimonlarga *shunday qilib, baxtga qarshi, tavba, xudo saqlasin*; undovsimonlarga erkalash maʼnoli *asalim, oppogʻim* va undalma maʼnoli *ey, doʻstlar* kabi; tasdiq-inkorsimonlarga *xuddi shunday, hech qachon, notoʻgʻri* kabi; taklif-ishorasimonlarga *boshlang* koʻrinishli soʻzlar misol boʻla oladi.

Shunday qilib, soʻz-gaplarning leksik-semantik turarlari boʻlmish sof soʻz-gaplar oʻzlari tarixan kelib chiqadigan soʻz turkumlaridan batamom uzilgan boʻlib, ularning koʻpchiligi ravish, sifat, ot sifatida mutlaqo qoʻllanilmaydi. Soʻz-gaplashgan unsurlar esa oʻzlari tarixan kelib chiqqan soʻzlar bilan omonimik munosabat hosil qiladi va oʻz aloqasini boshqa turkumlardan toʻla uzmagani boʻladi. Soʻz-gaplashayotgan unsurlarga oʻzi boshqa soʻz turkumiga tegishli, lekin soʻz-gaplarga xos maʼno va vazifalarda qoʻllanila oladigan birliklar kiradi va bularning soʻz-gapsimonlardan farqi shundaki, ushbu qatlamga oid soʻzlar tarixiy taraqqiyot natijasi-

da batamom soʻz-gaplarga oʻtib ketishi mumkin. Soʻz-gapsimonlar esa oʻz turkumi doirasida qoladi [1.270].

Soʻz-gaplarning sintaktik xususiyati yuqorida taʼkidlaganimizdek ularning kesimlik qoʻshimchalarini qabul qilmasligi, bogʻlama bilan birika olmasligidadir. Soʻz-gaplar ham undalmalar, sodda gaplar kabi kengaygan yoyiq holatda boʻlishi mumkin: *Ofarin sizlarga hurmatli ustozlar! Zolimning dastidan dod! (Xoldor Vulqon) Barakalla sizga!*

Misollardan koʻrinib turganidek, soʻz-gaplar faqat bit-ta soʻzdan iborat boʻlmay, nutqda kengayish qobiliyatiga ham ega. Soʻz-gaplarning yana bir sintaktik xususiyati shundaki, [Wpm] qurilishli gaplarda kesimlik kategoriyasi va maʼnosi [W]ga [pm] orqali kiritiladi, [m]ning esa oʻzbek tilida juda koʻp koʻrsatkichlari mavjud. Shaklining oʻzgarishi bilan kesimlik kategoriyasining maʼno turlari ham oʻzgaradi. Masalan, boʻladi. Boʻlmaydi. Boʻlsa. Boʻldi va h.k. Ammo soʻz-gaplarda bunday emas. Har bir soʻz-gap shu gapga xos boʻlgan maʼnolarni ifodalashga moslashgan boʻladi. Misol uchun, “Ha” soʻzi tasdiqni bildiradi. Uning boʻlishsizligi “Ha emas” soʻzi bilan ifodalanmaydi, balki alohida soʻz “Yoʻq” bilan ifodalana-di. Albatta yoki *shubhasiz* modal soʻzi qatʼiy ishonch va tasdiqni ifodalaydi, inkor maʼnosi *mutlaqo, aslo* soʻz-gaplari bilan beriladi [1.271]

Soʻz-gaplarda zamon va shaxs maʼnolari “0” koʻrsatkichli boʻlib, matnda muayyanlashadi. Oʻzbek tilida gap (kesimlik) zamon va shaxs maʼnolaridan xoli boʻla olmaydi. Zero, soʻz-gaplarda zamon va shaxs-son maʼnolarining kontekstual aniqlash xususiyati bu soʻzlarning asosiy sintaktik xususiyati – kesimlik qoʻshimchalarini qabul qilmay gap boʻlib kela olishi bilan izohlanadi. Soʻz-gaplarning yana bir sintaktik xususiyati – ularning gap tarkibida alohida pozitsiyada turishi, yaʼni, boshqa gap boʻlaklari bilan bogʻlanmasligidir va oʻzi gap sifatida kelishi, hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qolishi bilan belgilanadi. Masalan,

Sugʻurtalash kerakmi? – Albatta! (gazeta), Yengil tortdingmi, qizim? – shukur. (A.Qahhor)

Koʻrinadiki, soʻz-gaplarning umumiy sintaktik xususiyati ular kesimlik qoʻshimchalarini qabul qilmagan holda gap va uning markazini tuza olishidadir.

Toʻrt leksik-semantik turida (modallar, undovlar, tasdiq-inkor, taklif-ishora soʻzlar) kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi maʼnolardan har biri alohida boʻrtirilgan holda yuzaga chiqadi. Modallar soʻzlovchining munosabatini, taklif-ishoralar shaxsga qaratilganlik maʼnosini, tasdiq-inkorlar tasdiq va inkorni va undovlar boʻlgʻusi harakatni ifodalashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. 2010.
2. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. -T.: Yangi asr avlodi, 2001.
3. Neʼmatov H., Rasulov R. Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: Oʻqituvchi, 1995.
4. Oʻzbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh.Gʻ.A.Abdurahmonov va boshq. –T.: Fan, 1972.
5. www.ziyonet.uz

Sardor Sherkulov,  
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti tayanch doktoranti

## U.FOLKNERNING “SHOVQIN VA G‘AZAB” ROMANIDA OBRAZ TIPOLOGIYASI VA NUQTAYI NAZARLAR XILMA XILLIGI

**Annotasiya.** Mazkur maqolada obraz tipologiyasi, obrazning xarakter va portretdan farqli tomonlari shuningdek, U.Folknerning “Shovqin va g‘azab” romanidagi obrazlar tipologik jihatdan tahlil qilingan va nuqtayi nazarlar xilma xilligi ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** obraz, xarakter, portret, nuqtayi nazarlar xilma xilligi, yozuvchining estetik ideali.

**Annotation.** This article analyzes the typology of the image, the differences between the character and the portrait, as well as the images in the novel “The Sound and the Fury” by W. Faulkner and explains the diversity of views.

**Key words:** image, character, portrait, variety of perspectives, aesthetic ideal of the writer.

**Аннотация.** В данной статье анализируется типология образа, отличия персонажа от портрета, а также образы в романе “Шум и ярость” У. Фолкнера, объясняется разнообразие взглядов.

**Ключевые слова:** образ, персонаж, портрет, разнообразие точек зрения, эстетический идеал писателя.

“Shovqin va g‘azab” romanlari obrazlari ham xuddiki syujeti va kompozitsiyasida bo‘lgani kabi an’anaviy romanlarnikidan farq qiladi. An’anaviy roman obrazlarida kuzatiladigan ijobiylik, salbiylik yoki salbiylikdan ijobiylikka, ijobiylikdan salbiylikka tomon harakat chizig‘i bu romanda yaqqol sezilmaydi. Shuning bilan birgalikda, unda obrazlarning ijtimoiy shart-sharoit, maishiy munosabatlar yoki sevgi, nafrat, maqsadlar qarama-qarshiligi yoki mushtarakligi kabi sabablarga ko‘ra o‘zgarish hodisasi ham kuzatilmaydi. Bu asarda har bir obrazning o‘zi o‘z subyekti ichida alohida orol, shunga monand holda bir roman ichidagi obrazlarning har biri o‘z nuqtayi nazariga ega. Natijada yagona romanda bir paytning o‘zida turli nuqtayi nazarlar yetakchilik qiladi. Obrazlarga xos turlicha nuqtayi nazarlarni bog‘lab turuvchi muhim vosita bo‘lib esa, bu romanlarda syujet bir butunligi xizmat qiladi.

“Shovqin va g‘azab” romani markazida to‘rt obraz turadi. Boshqa barcha personajlar, voqea-hodisalar shu to‘rt obraz nigohi orqali kuzatiladi va tasvirlanadi. Mabodoki, romanda to‘rt obrazning har biri o‘zi mansub alohida voqelik ichida tasvirlanganida biz bu roman obrazlariga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nuqtayi nazarlar xilma-xilligi degan muammoni qo‘yishimiz to‘g‘ri bo‘lmas edi. Albatta, har bir alohidalangan badiiy voqelik chizig‘i, tabiiy ravishda alohida nuqtayi nazarni talab etadi. Bu jihat an’anaviy romanlardagi ko‘p chiziqli syujet shakllariga xos va mos. Ammo asar syujeti markaziga bir voqeaning qo‘yilishi va shu yagona voqeaning turli qahramonlar tomonidan hikoya qilinishi, bir voqeani turli qahramonlarning o‘z nuqtayi nazarlariga ko‘ra tushunishi, bayonlashi va munosabat bildirishi shubhasiz obrazlar originaligiga olib kelganini qayd etishimiz lozim.

“Shovqin va g‘azab” romanida hikoya qilingan voqea Kompsonlar oilasi tarixi, yo‘qotilgan avlod, ma‘naviy va iqtisodiy inqiroz to‘rt obraz tomonidan hikoya qilinadi. Mana shu o‘ziga xos hikoyalash manerasi, voqelikni qabul qilish, talqinlash, tushunish, tasviru tahlil qilish ja-

rayonida har bir obrazning xarakteri, portreti, psixologik holati, eng muhim tomoni – shu yagona voqelikka nisbatan shaxsiy nuqtayi nazari aniq namoyon bo‘ladi.

Rus olimi A.Myasnikov “Yozuvchi hayotni badiiy obraz vositasida mushohada qiladi” degan fikrni ilgari suradi[2,241]. Bu har tomonlama to‘g‘ri va aniq xulosa deb o‘ylaymiz. An’anaviy romanlarda yozuvchining obraz vositasida fikrlashi, voqelikni badiiy mushohada qilishi ochiq-oydin ko‘rinib turadi. Buni yozuvchining o‘zi o‘z tasvir uslubi bilan yoki bironta hikoyachi obraz vositasida o‘quvchiga yetkazib beradi. Bunda voqelik mushohada qilinayotgan obraz obyektga aylanadi. Muallif yoki hikoyachi subyekt sifatida uning vositasida hayotni badiiy mushohada qiladi. “Shovqin va g‘azab” hamda “Tushda kechgan umrlar” romanlarida obyekt vazifasini ham, subyekt vazifasini ham shu obrazning o‘zi bajarib keladi. Yozuvchi bu joyda o‘zini ham, hikoyalovchi qahramon nutqini ham shu obraz zimmasiga yuklaydi.

“Badiiy asarda ozmi-ko‘pmi tafsilot bilan tasvir etilgan personaj **obraz** yoki **xarakter** deb ataladi. Xarakter (obraz) insonning tipiklashtirilgan va individualashtirilgan tasviridir. Xarakter ma‘lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishiga xos xususiyatlarni yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko‘rinadi. Xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir. Xarakterlar muayyan sotsial-psixologik sharoitda harakat etish natijasida namoyon bo‘ladilar va shakllanadilar” [3,191-192]. Ko‘rinyaptiki, akademik Izzat Sulton ham yuqoridagi fikrni tasdiqlayapti. Uningcha ham yozuvchining atrof-voqelikni mushohadalashi, unga munosabati, bir so‘z bilan uning estetik ideali obraz orqali namoyon bo‘ladi. Ammo olim bu yerda obraz va xarakter terminlarini sinonim shaklida ishlatgan. Bizningcha, bu masalada olimga to‘la qo‘shilib bo‘lmaydi. Adabiyotda shunday obrazlar bor-ki, ular xarakter darajasiga ko‘tarila olmaydi. Aksincha

shunday xarakterlar borki ular personaj darajasida qolib ketadi. Shuning bilan birlikda obraz xarakter va portret tushunchalaridan kattaroq tushuncha. U kerak bo'lsa xarakter va portretni ham o'z ichiga oladi. Obraz butunligi uning xakteri, ichki va tashqi portreti yordamida ta'minlanadi. Obraz xarakter uchun xizmat qilmaydi. Ammo xarakter va portret ma'lum obrazning to'laqonli yoritilishi uchun xizmat qiladi.

Haqiqatdan ham, Benji, Jeyson, Kventin kabi noizchil obrazlar o'z xarakter xususiyatlarini xuddi shunday noizchilikdagi izchillikda namoyon etadilar. Jeyson o'z hayotga qarashida bir daqiqa rahm-shafqatli bo'lib qolsa, uning xarakteriga putur yetadi. Obraz sifatidagi qiyofasini yo'qotadi. Yoki Benji birona aqlli gap gapirib, aqlli ish qilib qo'ysa bu obraz xarakteridagi izchillik yo'qoladi. Xuddi shuningdek, bu obrazlarga xos xarakter xususiyatlaridagi izchillik, ular nuqtayi nazarlari xilma-xilligini ham namoyon etib boradi.

Demak, bir romanda bir nechta nuqtayi nazarlarning yonma-yon ifodalanishi muallif nuqtayi nazari yakkahokimligiga barham berishi bilan birga roman obrazlari originalligini ta'minlashga ham xizmat qilgan deyish mumkin. Muallif bu joyda go'yoki o'ladi. Ammo o'z qiyofasini shu obrazlar ortiga yashiradi, aytmoqchi bo'lgan gapini shu obrazlar xakteri, qiyofasi, nutqi orqali aytadi. Bularning hammasi birgalikda yozuvchi estetik idealini yorqin namoyon bo'lishiga olib keladi.

“Shovqin va g'azab” qahramoni Benjida go'yo nuqtayi nazarning o'zi yo'qdek tuyuladi. Benji hamma yaxshi va yomon voqealarni ko'radi. Ularni boricha aytib beradi. Biroq ularga nisbatan o'z nuqtayi nazarini bildirmaydi. Munosabatini ko'rsatmaydi. Bu jihat uning obraziga xos xususiyat bo'lib hisoblanadi.

Benjining o'z-o'zi, boshqalar yoki muayyan voqelikka munosabatsizligi uning jismoniy va aqliy noqisligidan kelib chiqadi. U go'daklik paytida bu narsalarga qanday munosabat bildirgan bo'lsa, o'ttiz uch yoshida ham o'zgartmaydi, xuddi shunday munosabatida davom etadi. Boshqacharoq aytganda u bolaligida hayot va unda kechayotgan voqelikni qanday qabul qilgan, tushungan va so'zlab bergan bo'lsa, katta erkak jismi ichida turib ham shu darajasida qoladi. Shuning uchun o'quvchi uning nutqidan kelib chiqib, Benji umri vaqtining qaysi davrida turib so'zlayotganini to'la anglab olishga qiyinaladi.

Xuddi boshqa obrazlar kabi, Benjiga xos shaxsiy xususiyatlar romanning to'rtinchi qismida yorqinroq ochiladi. Dilsni nigohida hikoya qilingan bu bo'limda biz Benjiga Dilsini o'g'li Laster qarashini ochiqroq bilib olamiz. Benjining o'z nutqida esa bu jihat aniq-tiniq ochilmaydi. Benji Keddi, Jeyson, Kventin va boshqalar haqida qanday gapirsa Laster haqida ham shunday hikoya qiladi. Kitobning faqat Benji hikoyasi qismini o'qigan o'quvchi Lasterni ham Benjining biron qarindoshi yoki o'rtoqlaridan biri deb o'ylashi mumkin. Dilsni hikoyasida go'yo hamma narsani Dilsni atrofida, uning nigohi ostida

so'zlanayotgan bo'lsada, bu qismda muallif nutqi faollashadi. Asarning ba'zi o'rinlarida an'anaviy romanlardagidek qahramon ta'rif-tavsif qilinadi:

“ – Eight oclock, Dilsey said. She ceased and tilted her head upward, listening. But there was no sound save the clock and the fire. She opened the oven and looked at the pan of bread, then stooping she paused while someone descended the stairs. She heard the feet cross the dining room, then the swing door opened and Luster entered, followed by a big man who appeared to have been shaped of some substance whose particles would not or did not cohere to one another or to the frame which supported it.” [4, 217]. (“Soat sakkiz, - dedi Dilsni. Ishdan boshini ko'tardi, quloq soldi. Ammo uy jim-jit, faqat soatlar va olov. U pechni ochdi va non solingan patnisga egilib, xushyor tortdi – zinadan kimdir tushayotgan edi. Oyoq tovushlari oshxonaga o'tdi, eshik ochildi va Laster paydo bo'ldi, uning ortidan esa katta tanasi g'alati buralgan, po'k, yopishtirilganday tuyuluvchi erkak ko'rindi. – tarjima muallifga tegishli)

Keltirilgan parchadan ma'lum bo'lyaptiki, bu paytga kelib, Benji yigit yoshini yashaydi, gavdali erkakka aylangan. Lekin uning ulkan gavdasi bo'shashgan. Xuddi qotirgich(shrup)lari bo'shab qolgan yog'och qo'g'irchoqqa o'xshaydi. Bu Benji haqida real tasavvur beruvchi dastlabki tasvir. Davom etib, Benjining oldingi ko'chirmada boshlangan tasviri uning portreti tasviriga ulanib ketadi:

Hayoti uning o'z tilidan hikoya qilinganda Benji injiq, erkatoy, tantiq bolaga o'xshab ko'rinadi. U yig'laganda onasi Keddini ayblab, Keddini urishadi. Oldiga yaltiroq yulduzchalar jilvalanib turadigan o'yinchoq, qutini qo'yishadi. Shu bilan go'yo uni ovutishadi. Benji bir dam shu o'yinchoq bilan ovora bo'ladi. Yulduzchalarning uning bosh harakatiga monand jilvalanishi uni biroz chalg'itadi. Biroq shu ovutuvchi so'zlar, mehribonliklar, ayashu oldini olishlarning barchasi Keddi yonida bo'lgan paytlardagina unga kor qiladi. Keddi yonida bo'lmadimi, bas u o'zini yolg'iz his qiladi. Yig'i boshlaydi. Uning holatini, bolaga xos istaklari, nima xohlayotganini darhaqiqat Keddigina tushunadi.

Benji atrofdagilarni tabaqasi, qarindoshchilik darajasi, erkak-ayolli va boshqa tomonlariga qarab ajratmaydi. Uning uchun munosabatning ikkita mezoni bor. Biri mehr. Bu mehrni Benji deyarli hech kimda ko'rmaydi. Onasi doimiy kasal. Otasi ichkilikka berilgan. Ularning Benji bilan deyarli ishlari yo'q. Faqat uning uchun rasmiy ota-ona maqomida turadilar. Akalari uni mensimaydi. Hatto Jeyson o'rni kelganda uradi ham. Kventin o'zi bilan o'zi ovora. Benjiga deyarli e'tibor ham bermaydi. Negr xizmatkorlar – Laster, Dilsni, Ti-Pilar Benjiga faqat xizmat vajidan qaraydilar. Ko'p hollarda xizmatkor negr Laster ham uni o'z tanbehlari bilan xafa qiladi. Keddingin jazmanlari uchun Benji ortiqcha matoh. Keddi bilan bo'ladigan uchrashuvlari, o'smiringa xos tegajoqliklari uchun Benji ortiqcha bir matoh kabi ular-

ga halal beradi. Keddini Benjisiz uchratishga harakat qiladilar. Chunki Benji Keddiga kimki yaqinlashsa, yig'lab munosabat bildiradi. Keddining etagidan tortib olib ketishga, shu yo'l bilan o'zicha himoya qilishga urinadi. Garchand Keddi o'spirin bir qiz sifatida o'ziga qilingan tegajoqliklardan unchalik ranjimasada, Benjining ko'ngliga qaraydi. To'g'rirog'i, Benjining ko'nglini o'z ishtaklaridan ustun qo'yadi. Hatto onasi Injildagi Benjamin

ismidan nomus qilib, uning ismini Morrigha almashtirganida ham faqat Keddi bunga qarshi turadi. Shuning uchun Keddining erga tegishi, keyin haydalib beva ayolga aylanishi, o'limidan keyin Benji ayanchli bir g'aribga aylanadi. Ahvoli yanada yomonlashadi. Benjining bu g'arib holati o'z nutqida yig'i va injiqlik tarzida ifodalansa, Dils hikoyalagan qismda biz bu fojia va g'ariblikni to'la ma'noda anglab yetamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel. Poetika (Poeziya san'ati haqida). – Toshkent: G'.G'ulom, 1980. 31-bet.
2. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. 24131-bet.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. 191-19231-betlar.
4. Faulkner W. The Sound and The Fury. – chrome-extension://efaidnbmnnnibpccajpcgclefindmkaj/viewer.html?pdfurl=https%3A%2F%2Fantilogicalism.com%2Fwp-content%2Fuploads%2F2018%2F04%2Fsound-and-fury.pdf&clen=1090312&chunk=true

**Muminova Saodat Aralovna,**  
Qarshi davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi,

## BOBUR MA'NAVIY-INTELLEKTUAL YETUK SHAXS

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ulug' mutafakkir, buyuk sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning ma'naviy-intellektual salohiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** intellekt, madaniyat, muallif, shaxs, ma'naviyat, saltanat, shahzoda.

**Annotation.** *This article talks about the spiritual and intellectual potential of the great thinker, great general and poet Zahiriddin Muhammad Babur.*

**Key words:** *intellect, culture, author, person, spirituality, kingdom, prince.*

Mutafakkir adib Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari shaxsning ma'naviy-intellektual yetukligi masalasi o'zining to'laqonli ifodasini qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Rus yozuvchisi L. N. Tolstoy "Davlat arbobining qilmishlari to'g'risida gapirganda oddiy bir shaxsning qilmishi-yu, sarkarda yoki imperatorning qilmishini farq qilish kerak"[4.5] deb yozganida haq edi. Sababi, oddiy bir shaxsning fazilatlarini yoki salbiy xislatlari nari borsa, yon-veridagi insonlarga ta'sir ko'rsatadi. Ammo ulug' zotlarning yurish-turishlaridan tortib, amalga oshirgan ishlari, g'alabasi-yu mag'lubiyatlari, hayot tarzi, fazilatlarini-yu qusurlari, qisqasi barcha-barchasi butun dunyoga ta'sir o'tkazadi.

"Boburnoma"da Bobur shaxsi qirralarini yorqin ochib beradigan epizodlar juda ko'p. Xususan, uning Hirotda Husayn Mirzo huzurida bo'lishi bilan bog'liq voqealar bayoni nihoyatda ta'sirli. Bobosi Temur tuzgan buyuk saltanat taqdiriga xavf-xatar soya solayotganini sezgan, his qilgan, uni saqlab qolish orzusida intilib najot izlab yurgan Bobur temuriyozda qarindoshlariga gap uqtirolmay sarson bo'ladi. Og'a-inilar tugul, ota-o'g'illar orasidagi taxt talashishlarda qalbi larzaga

keladi. Hamma o'z manfaati uchun jon olib jon berishga tayyor. Hech kim saltanat, sulola taqdirini o'ylamaydi. Hirotda ichkilik, kayf-safo, maishat qa'riga cho'kkan. Saroydagi muhit, ota-o'g'illar munosabati, bazmbozlik, ichkilikbozlik, maishatparastlik, bir-biriga hurmatsizliklar uni hayratlantiradi: "Bu mirzolar shunchalik buzuqchilik va aysh-ishratga mashg'ul edilarki, ramazondek tabaruk va aziz oyga bir kechalik fursat qolganda, otasidek ko'pni ko'rgan va ishbilarmon podshoh yarim kunlik yo'ldan kelgan vaqtda ham, otasidan iymonmay, Xudodan qo'rqmay, hanuz ishi may ichmoq, majlisorilik bilan dilxushlikka berilmoq bo'ldi: muqarrardirki, bunday kishi o'shanday shikast topadi va bunday yashagan elni har kim yenga oladi".[2.53] Husayn Mirzoning o'g'illari bilan munosabatlari achinarli darajada. Hatto, eng dahshatli, kayf-safo natijasida nabirasini qatl etishga ham ruxsat berib yuboradi va tuzatib bo'lmas xatoga yo'l qoyadi. Saroydagi muhitning, tarbiyaning buzuqligidir. Zero, o'tgan asr boshida yashagan jadidchi bobomiz haq gapni aytganlar: "Alhosisil, tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir"[1.5.]

Bobur ashaddiy g'animi Shayboniyxon Samarqandni qo'lga kiritgandan keyin diniy ulamo, piri, ustoz Xoja Yahyoning taqdiri haqida shunday taassuf bilan yoza-di: "Xoja Yahyoning ikki nafar o'g'li: Xoja Muhammad Zakariyo va Xoja Boqiy bilan Xuroson tomonga jo'natdi. Keyinidan bir necha o'zbek borib, hazrati Xoja Yahyoni ikki yosh o'gli bilan Xoja Kordzan atrofida shahid qildilar. Shayboniyxon: Xojani o'ldirishga men buyruq bermaganman, buni Qanbarbiy bilan Ko'pakbiy qildilar, der ekan. Bu gapi undan yomonroq. „Uzri gunohidan battar“ degan maqol bor. Shunday ishlarni beklar o'z botni bilan xonidan va podshohidan ruxsatsiz qila boshlasa, unda xonligiyu podshohligi qayerda qoldi?!“ [2.76] Shayboniyxonning bu qilmishini qattiq qoralaydi.

“Har ishning zimmida yuz ming mulohaza vojib va lozimdir“ [2.12] degan fikrga amal qilgan Boburning “Boburnoma” sahifalarida namoyon bo'lgan hayotiy vaziyatlardagi insoniy qiyofasini kuzatsak: “Men g'orning og'zida kurak olib, qor kuradim, qorni ko'ksimgacha qazidim, sira yerga yetmasdi. Biroz shamoldan pana buldi, o'sha yerda o'tirdim. Har qancha: „G'orga kiring“ deyishsa ham kirmadim. Barcha el qorda va bo'ronda, men issiq uyda va istirohatda o'tiramanmi deb o'yladim. Munda barcha el tashvish bilan mashaqqatda, men munda uyqu bilan farog'atda bo'laymi?! Bu muruvvat va hamjihatlikdan yiroq ishdur. Men ham har tashvish va mashaqqat bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursa, turayin. Bir forsiiy maqol bor: „Do'stlar bilan birga bo'lgan o'lim — toydir“. [2.149]. Parchada Boburning Qobulga borayotgan vaqtida yo'lda qalin qor yoqqanligi, azob-uqubat chekkanligi haqida so'z boradi. E'tibor qilsak, odamlari har qancha qistasa ham Bobur o'zini chekkaga olmasdan oddiy navkarlar safida turib qor tepib yo'l ochgan. Bu Boburning sof vijdonli ekanligini ko'rsatadi. O'zini oddiy odamlardan baland tutmasligi, imoni butun ekanligi, kibrdan yiroqligi, qiyinchilik kelganida o'zini oylamasligi, navkarlari bilan birga bo'lishi, mardligi ko'rinadi. Zero, bu dunyoda bashariyat, millat taraqqiyosi, ilmi, solih amallari, komil axloqi, baxt-saodat, ko'ngil xotirjamligi uchun kurashganlarning imoni butundir.

Bobur hayotiga bir necha marta suiqasd uyushtirilganligi ma'lum. Bulardan biri buvisi Shohbegim boshliq xiyonatkorlarning xiyonatidir. Insonning shaxsi hayotiy vaziyatlarda to'la namoyon bo'ladi, shakllanadi. Bu voqeadan Boburning hassos qalbi nihoyatda ozor chekadi, o'zining ularga qilgan muruvvatlari bir-biri xayolidan o'tadi: Bobur ana shunday vaziyatda ham aql bilan tadbir ko'radi: “Sulton Saidxon — Koshgar xoni besh-olti yayov-yalang bilan keldi. Tugishgan ukalarimdek kurib, Lamgon tumanlaridan Mandirovar tumanini berdim. Shoh Ismoil Shayboniyxonni Marvda yenggan mahali, Qunduzga o'tganimga, Andijon viloyati men tomonga boqib, ba'zi qo'rg'onbegilarini quvib, ba'zi yerlarini berkitib, menga kishi yubordilar. Men Sulton Saidxonga barcha navkarimni topshirib, ko'mak qo'shib, tug'ilib

o'sgan yerim Andijon viloyatini unga bag'ishlab, xon qilib yubordim. Hozirgacha ham u tabaqadan kim kelmasin, o'z tug'ishganlarimdek ko'rdim. Chunonchi, Chin Temur Sulton, Eson Temur Sulton, Tuxta Sulton va Bobo Sulton shu paytlarda mening qoshimdadilar. Barchani o'z tug'ishganlarimdan yaxshiroq ko'rib, hurmat-e'tibor va shafqatlar qilganman“.[2.153] Qilgan yaxshiliklari evaziga joniga qasd qilingan Boburning holatini kuzatish, bu isyonga javobini kuzatish qiziq: “Men burungidek ta'zim qilib o'rnimdan turdim, uncha qo'pollikka bormadim. Muhammad Husayn mirzoni, bunday xunuk va tuban harakatga qadam qo'ygani, bunday g'avg'o va fitna ishlarga bosh qushgani uchun burda-burda qilsam o'rinli edi. Orada har holda qarindoshchilik bor edi: mening tug'ishgan xolam Xo'b Nigorxonimdan o'gil-qizlari bor edi. Bu huquqni eslab, Muhammad Husayn mirzoni ozod qildim” [2.153]. Hatto joniga qasd qilinganda ham Bobur xolasini, uning bolalarini o'ylab pochchasini kechiradi. Boburning fikricha, “Sen o'zingga yomonlik qilganni hayot izmiga topshir, bil hayot qasoskor mulozimingdir”. “Boburnoma”ni o'qir ekansiz, Boburning hayotida xatarli janglar, suiqasdlar ko'p bo'lganini ko'rasiz. Uni har doim Ollohning o'zi, insoniy fazilatlarini saqlab qolgan, desak xat'o bo'lmaydi. Ana shunday iztirobli voqealarni real aks ettirib, o'quvchilar qalbiga ozor berib qoydim, degan andishada kechirim ham so'raydi.

Ibrohim Lo'diyning onasi Bayda ham Boburni o'ldirtirmoqchi bo'lgan va oshpazlarni yollab ovqatiga zahar qo'shtiradi. Bobur shunday yozadi: “Juma kuni kechqurun, asr namozidan so'ng ovqatni torttilar. Quyong'oshtidan pishirilgan ovqatdan ancha yedim. Zardak qayladan ham totib ko'rdim. Bu zahar solingan Hinduston ovqatining ustidagi bir ikki bo'luginigina yeb ko'rdim, qayladan yedim, hech qanday noxush ta'mni sezmadim. Qovurilgan go'shtdan bir-ikki bo'lak yedim. Ko'nglim behuzur bo'ldi. O'tgan kuni qovurilgan go'sht yeganimga, unda noxush bir maza bor edi, ko'nglim aynishini o'shandan, deb bildim. Yana ko'nglim bir agdarildi. Dasturxon ustida ikki-uch marta ko'nglim behuzur bo'lib, qusib yuboray dedim. Oxiri qaragam, bo'lmaydigan, o'rnimdan turdim. Obxonaga borguncha yo'lda yana bir bor qusib yuboray dedim. U yerga kirgach, ko'p qusdim. Men hech qachon ovqatdan keyin, hatto ichganimga ham qusmasdim. Ko'nglimga shubha tushdi”. Shundan so'ng oshpazni ushlab turishlarini buyuradi. Qolgan ovqatni itga beradilar, it o'lmaydi. Shu ovqatdan yegan mulozimlar ham behol bo'ladilar, ammo o'lmaydilar. “Tangri menga qaytadan jon berdi. Xuddi u dunyodan kelgandek, onadan endi tug'ilgandek edim. Men xasta edim, tirildim. Jon qadrini, Olloh nomi bilan qasam ichaman, endi bildim” [Bobur, 2008: 227]. Shunday qiynalsa-da, malika Baydani o'ldirtirmaydi. Bu o'rinda ham Bobur qalbining ulug'ligi ko'rinadi. Kechirimlilik dunyoqarash, tafakkur tarzi, falsafiy, diniy, aqliy, estetik qarashlar bilan bog'liq. Kechirimlilik

munosabatlarga iliqlik, yaqinlik kiritish kuchiga ham ega. U boshqaruv tizimiga ham ancha asqotadi, inson axloqan o'zini chuqur anglashi uchun ham muhim rol o'ynaydi. U shaxs intellekti ko'zgusi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Boburning ma'naviy-intellektual boy dunyosi yosh avlodni komil shaxslar qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Ziyouz.com. <https://n.ziyouz.com>
2. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 287-bet.
3. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: 2008. 287-bet.
4. Lev Tolstoyning tafakkur javharlari. I-kitob. To'plovchi filologiya fanlari doktori, professor I.G'aniyev. – Toshkent: 2019. 71-bet.
5. Qodirov P. Til va el. – Toshkent: 2010. 295-bet.

Norbek YUNUSOV,  
ToshDO'TAU tayanch doktranti

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FE'L-ATVOR IFODALOVCHI SIFATLARNING LINGVISTIK TAVSIFI HAQIDA

**Annotasiya.** Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l-atvor ifodalovchi sifat leksemalar o'zaro qiyoslangan. Sifat leksemalarning semantik tabiati, morfologik tarkibi, yasalishi va umumiy grammatik belgilari izohlangan.

**Kalit so'zlar:** Leksema, leksik ma'no, grammatik ma'no, derevatsiya, morfologik belgi, artikl, suffiks, substantivatsiya, affiksatsiya, distributsiya.

**Annotation.** The article compares adjective lexemes representing a verb in english and uzbek. The semantic nature, morphological structure, construction and general grammatical features of adjective lexemes are explained.

**Keywords:** Lexeme, lexical meaning, grammatical meaning, derivation, morphological feature, article, suffix, substantiation, affixation, distribution.

**Аннотация:** В статье сравниваются адъективные лексемы, представляющие характер в английском и узбекском языках. Объясняется семантическая природа, морфологическая структура, конструкция и общие грамматические особенности адъективные лексем.

**Ключевые слова:** Лексема, лексическое значение, грамматическое значение, деривация, морфологический признак, артикль, суффикс, субстантивация, аффиксация, распространение.

Leksemalar shakl va yasalishidagi sintaktik vazifalarning umumiylik yoki xususiylik kabi jihatlarga ko'ra alohida guruhlariga bo'linadi. So'zlarni guruhlariga, turkumlarga ajratishda ularning asosan sintaktik, morfologik va semantik xususiyatlarining o'xshashligini e'tiborga olish muhimdir. Tilshunoslik tarixida strukturalizm oqimi paydo bo'lguncha, so'zlarni turkumlarga ajratishda ularning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, morfologik belgilari, gapdagi vazifasi singari belgilarga asoslanilgan<sup>1</sup>. Keyinchalik bunga yasalish<sup>2</sup> va boshqa so'z turkumlari bilan birika olish<sup>3</sup> belgisi ham qo'shilgan. Lekin har bir tilda aynan shu tilning xususiyatlariga qarab so'zlar turkumlarga ajratiladi. Birgina xitoy tilini olib qaraydigan bo'lsak, so'zlarni turkumlarga ajratishda ularning sintaktik belgisi, so'z tartibi asosiy mezon sifatida belgilangan. O'zbek tilida esa morfologik belgisi yetakchilik qiladi. Tillardagi so'z turkumi miqdori bir xil emas. Buning sababi tillarning o'ziga xos xususiyatlari hamda turli tadqiqotchilar tomonidan so'z turkumlari farqli belgilar asosida tasnifla-

nishidadir<sup>4</sup>. Buni o'zbek tilida 12 ta, arab tilida 3 ta, ingliz tilida 12 ta so'z turkumi mavjudligida ham ko'rishimiz mumkin. Ba'zi bir tillardagi bitta so'z turkumi boshqa bir tildagi bir nechta so'z turkumiga to'g'ri kelishi mumkin bo'lsa, bu so'z turkumlariga ajratishning an'anaviy qarashlari bilan bog'liq ekanligidadir. Masalan, arab tilidagi **ismun** so'z turkumi o'zbek tilidagi *ot*, *sifat*, *son*, *olmosh*, *ravish* kabi so'z turkumlarini o'z ichiga oladi.

O'zbek tilida ingliz tilidan farqli ravishda yordamchi so'z turkumi sifatida artikl mavjud emas. Ingliz tilida artikl *ot* so'z turkumlariga qo'shilib aniqlik va noaniqlikni anglatib, odatda *a*, *an*, *the* grammatik shakllari orqali ifodalanadi:

#### o'zbek tili

*Ot kuchli hayvon.*

*Men Nil daryosini*

*ko'rganman.*

*Menga gitarani bering.*

#### ingliz tili

*A horse is a strong animal.*

*I saw **the** Nile.*

*Give me **the** guitar.*



Til-sistema sifatida qadimdayoq idrok etilgan. Unga Aristotel ham, Sibavayxiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, M.Koshg'ariy, Zamaxshariy ham, sistema sifatida yondashgan. Tilshunoslik fani til sistemalarini o'rganadi. Shunday ekan, tilning biror sathi bundan mustasno bo'lmaydi. Tilning u yoki bu sathining alohida tizim sifatida o'rganilishi dastlabki o'rganish natijalaridan davr nuqtayi nazaridan, o'rganilganlik darajasidan farq qilishi mumkin. Ko'pchilik olimlarning fikricha, leksik sath tilning markazida bo'lib, leksikani tadqiq etish nisbatan ancha ilgari boshlangan.

Tildagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonunlari asosida ro'yobga chiqishi, hozirgi tilning tuzilishini, normalarini, qonun-qoidalarini tasvirlash, til faktlariga tarixiy yondashish bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Shunday ekan, til hodisalarining "tug'ilishi va tadrijiy taraqqiyotini kuzatish bilan ona tilining material va formasining aniq, tushunarli va ravshan bo'lishiga", hodisalar orasidagi "tarixiy alokalarni aniqlashga" erishish imkonini beradi. Bu tekshirish esa tildagi yangi hodisalarni, taraqqiyotni aniqlab beradi.<sup>5</sup>[17.B.56].

Tildagi har bir so'z uning leksik birligi hisoblanadi. Ya'ni so'zning morfologik va sintaktik xususiyatlari haqidagi ta'limot grammatikaning asosi deb yuritiladi. Chunki so'zning leksik-grammatik xususiyatlari, o'xshashliklari ot, fe'l kabi guruhlarga ajratilishiga asos bo'lib xizmat qilsa, yana bir hodisa so'z nutqda boshqa so'z bilan aloqaga kirishib, grammatik jihatdan shakllangan bo'ladi. Shunday ekan, bu hodisalar tilning grammatik qurilishining leksika bilan bo'lgan munosabatini bildirsa, leksika va grammatikaning obyektlari juda yaqin, o'zaro zich munosabatda turishi til me'yorlarida belgilab qo'yilgan. So'z leksikologiyada tekshirilishiga qaramay, u muayyan jihatlari bilan grammatikaga ham aloqador. So'z umuman tilning birligi sifatida baholansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tilshunoslar tomonidan til sathlari yig'indisi til birliklaridan tashkil topganligi aytiladi<sup>6</sup>. Ularda tuzilmalar, paradigmalarda nazarda tutilmasligi tushuniladi. Fe'l-atvor ifodalari shaxsning atrof muhitga va o'z-o'ziga munosabatida namoyon bo'ladigan individual xususiyatdir. U har bir kishining fe'l-atvorida uning bosib o'tgan hayot yo'lini ko'rsatib, kishining ma'lum vaziyatda o'zini qanday tutishini oldindan taxmin qilish imkonini beradi. Bu esa uning xatti-harakatini to'g'ri yo'naltirish imkonini yaratadi. Fe'l-atvor ifodalovchi leksemalarni xususiyatlariga ko'ra quyidagi to'rt guruhga ajratish mumkin:

1) ayrim insonlarga, jamoalarga hamda ma'lum guruhlarga nisbatan munosabatlarni aks ettiruvchi xususiyatlar (*talabchanlik, muruvvat ko'rsatish, mehribonlik hamda, yaxshilik qilish va b.*);

2) fe'l-atvor ifodalarni kishilarning mehnatiga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (*mehnat-sevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lish va b.*);

3) fe'l-atvor ifodalarni narsalarga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar (*tozalik, buyumlarni ehtiyot qilish yoki ehtiyotsizlik bilan yondashish va b.*);

4) kishilarning bir-biriga bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi xususiyatlar (*kamtarlik, shuhratparastlik, kat-tazanglik va b.*). Fe'l-atvor ifodalarni xususiyatlari o'zgarimas xususiyatlar emas, u insonning turmush sharoitlariga bog'liq holda tarkib topadi. Shuningdek, o'zgarib boradi hamda takomillashadi. Fe'l-atvorning shakllanishida turli xil ta'sirlar bo'lib, ularning ichida odat muhim ahamiyat kasb etadi. Fe'l-atvor umumiy sifatlar bilan birga, milliy va etnopsixologik xususiyatlarini ham o'zida aks ettiradi. Masalan, o'zbek millatiga mansub kishining o'ziga xos milliy fe'l-atvor xislatlarini keltirishimiz mumkin bo'lsa, undagi fe'l-atvor turmush jarayonida tarbiya, mehnat hamda boshqa ta'sirlar bilan ma'lum darajada xoslanadi. Fe'l-atvorning yaxshi yoki yomon tarafga o'zgartirishida axloq me'yorlarining o'zlashtirilishi, bu insonning o'zini tarbiyalashda ham o'z ahamiyatiga ega. Bunda fe'l-atvorning shakllanishida ta'lim-tarbiyaning hamda ijtimoiy muhitning ta'siri ahamiyat kasb etadi.

Ingliz va o'zbek tillari morfologiyasida sifat so'z turkumiga oid leksik birliklarning miqdori boshqa so'z turkumlari qatorida salmoqli o'ringa ega bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan mustaqil so'z turkumi sifatida tilshunoslikga oid ilmiy tadqiqotlar va ilmiy maqolalarning obyekti sifatida o'rganilgan.

Sifat kategoriyasidagi so'zlar biror predmet, voqea-hodisa va holatning belgi-xususiyatlarini (rang-tusini, hajmini, shaklini, xarakter va xossa-xususiyatlarini, vaznini, mazasini) ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *ko'k kema, yoqimli taom, o'jar qiz, qattiq to'polon, chiroyli mashina* va hokazo.

Ingliz va o'zbek tillarida sifat so'z turkumiga oid leksemalar struktura jihatidan sodda va murakkab guruhlarga bo'linadi. **Sodda sifatlar:** a) tub sifat (o'zbek tilida: *yaxshi, kichik, qizil, o'jar*; ingliz tilida: *heavy, bad, red, good*); b) yasama sifatlar (o'zbek tilida: *chiroyli, yozgi, yoqimli, bechiqim*; ingliz tilida: *useful, capable, famous, helpless*) kabi. **Murakkab sifatlar:** a) qo'shma sifat (o'zbek tilida: *xushmuomala, sheryurak, qo'yo'z, kechpishar*; ingliz tilida: *ice-cold, sky-blue, cruelty-free*) b) juft sifat (o'zbek tilida: *katta-kichik, oq-qora, baland-past, uzun-qisqa* kabi) o'zbek tilida birgalikda yaxlit mano anglatib chiziqcha bilan ajratiladi, ingliz tilida esa vergul yordamida ajratilib, tarjimada o'zgarish sodir bo'ladi (*young, smart* kabi).

Ingliz tilida **tub sifatlar** (*hot, red, good*) o'zbek tilidagi (*oq, shirin, issiq*) kabi asl ma'nosi bilan belgini to'g'ridan-to'g'ri ifodalay oladi. **Yasama sifatlar** esa har ikkala til morfologik sathida affiksatsiya usuli orqali hosil qilinadi. Derivatsiyada affiksatsiya usuli orqali (prefiks va suffiksalar) yordamida (adjective formation by means of derivation), affikslarni so'z o'zagiga qo'shish bilan

(wood-yog'och-wooden-yog'ochdan yasalgan) boshqa so'z turkumiga oid bo'lgan so'zdan sifat yasaladi<sup>7</sup>.

Ingliz tilida boshqa so'z turkumlaridagi kabi sifat so'z turkumida ham affiksatsiya usuli yordamida so'z yasash keng rivojlangan bo'lib, sifat yasovchi affikslarning shakli hamda funksional xususiyatlari ham turlicha. Ular ravish, ot hamda fe'l yasovchi affikslarga o'xshash bo'ladi. Jumladan, *-less* suffiksi bajarayotgan vazifasi va o'rniga ko'ra o'zbek tilidagi *-siz* yasovchisi qo'shimchasiga mos kelib, u orqali salbiy fe'l-atvorni ifodalaydigan sifatlar (*shameless – uyatsiz*) yasaladi. Ingliz va o'zbek tilida fe'l-atvor ifodalovchi qo'shma hamda juft sifatning tarkibida *-q -k* affikslari mavjud bo'lgan so'zlar deyarli uchramaydi. O'zbek tilida ham boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarda: *-dor* (tojik tilidan o'zlashgan) affiksi ot so'z turkumidagi so'zlardan sifat so'z turkumidagi so'zlarni hosil qiladi (*vafodor – loyal*). Ingliz tilida sifatlar tuzilishiga ko'ra (Types of Adjectives according to their Structure): *simple* (sodda), *derived*, *derivative* (yasama), *compound* (qo'shma) turlarga ajratiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, *sodda sifatlar* tub morfemalardan tashkil topgan bo'lsa (*sly-ayyor, good-yaxshi*), so'z yasovchi affikslarning tub sifatga qo'shilishidan *yasama sifatlar* hosil bo'ladi. Sifat so'z turkumidagi leksemalar bitta o'zak yoki bir qancha affikslardan tashkil topgan bo'lishi mumkin, lekin so'zda bitta o'zak bo'lganligi uchun yasama sifatligicha qoladi (*care+ful – ehtiyotkor*).

*Qo'shma sifatlardagi* leksemalarning tuzilishida so'zdagi o'zak morfema yoki so'z o'zagingining xarakteriga tayanib, oddiy qo'shma sifatlar (*trouble-free, true-blue*) hamda *qo'shma yasama sifatlar* (*black-guardly*)ga bo'linadi. Shuningdek, turli bog'lovchilar, predloglar va boshqa so'zlardan yasalgan (*coast-to-coast-qirg'oqdan-qirg'oqqacha*) qo'shma sifatlarini ham uchratishimiz mumkin.

Sifat so'z turkumidagi leksemalar ma'nosi hamda grammatik vazifasiga ko'ra qualitative adjectives (*asliy sifatlar*), relative adjectives (*nisbiy sifatlar*)ga ajratiladi<sup>8</sup>. Asliy sifatlar narsa va kishilarga xos belgining ko'rinishini, hajmini, fe'l-atvorini, rangini va boshqa xususiyatlarini (*short-kalta, obstinate-o'jar, red-qizil*) ifodalaydi. Nisbiy sifatlar esa shaxs va narsalarning turli belgilarini, predmet, vaqt, joy va boshqa narsa va hodisalar bilan bog'liqligini ifodalab keladi (*monthly, eastern, woolen*).

Ingliz tilida *relative adjectives* (*nisbiy sifatlar*) boshqa so'z turkumlaridan yasaladi. Shuning uchun ham, ularning qiyosiy hamda orttirma darajalari mavjud emas. Ya'ni bu turdagi sifatlariga suffiks qo'shish orqali sifat darajalari yasalmaydi.

Sifatlar ma'nosiga ko'ra ham bir nechta turlarga ajratiladi. Semantik tabiatiga ko'ra xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar, ayniqsa, inson fe'l-atvorini ifodalashda ko'p ishlatiladi (*angry-badjahl, receptive-ziyrak*). Bu sifatlardan inson va hayvonlarning fe'l-atvorini ifodalashda *ijobiy* hamda *salbiy* ma'nolarda foydalaniladi.

*Ijobiy ma'no ottenkasiga ega sifatlar* insonlarning fe'l-atvoridagi ijobiy xislatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi: Masalan, *well-bred-odobli, modest-kamtar* kabi. *Salbiy ma'no ottenkasiga ega sifatlar* esa insonlarning fe'l-atvorida uchraydigan salbiy xususiyatlarni ifodalaydi. Ular ba'zi hollarda ijobiy xarakterni ifodalovchi sifatning antonimlari sifatida ishlatiladi. Demak, bu guruhga oid sifatlar insonlarning fe'l-atvoridagi salbi tomonlarni ifodalaydi: *capricious- injiq, heartless- tosh-bag'ir* kabi.

Ingliz va o'zbek tillarida fe'l-atvor ifodalovchi sifatning predmetlashuvi oqibatida ot so'z turkumiga o'tishi ham kuzatiladi va ular *sifatlarning otlashishi* (*substantivasiya*) deb ataladi. Ushbu sifatlar ot so'z turkumidagi so'zlar singari egalik va kelishik kategoriyalariga ega bo'ladi hamda ulardagi paradigmatic shakllarni oladi. Har ikki tildagi fe'l-atvor sifatlarining otlashish jarayonida 4 ta asosiy xususiyat kuzatiladi: a) egalik va ko'plik kategoriyasining mavjudligi; b) ingliz tilidagi S suffiksining jonli predmetlarga qo'shilishi; c) aniqlanmish bo'lakning gapda ishtirok etmasligi; d) otlashgan sifat gapda ega yoki to'ldiruvchi vazifasida kelishi. Bu kabi jarayonlarda sifatning otga xos bo'lgan belgilarini qabul qilishi hamda gapdagi (so'zlar bilan bo'lgan) distributsiyasiga qarab sifatning otlashganligi aniqlanadi. Bunday sifatlarini tuzilishiga ko'ra otlashgan tub sifatlar (*blue, black, bitter*) hamda otlashgan yasama sifatlar (*beloved, academic*)ga ajratish mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l-atvorni ifodalovchi sifatlar semantik tabiati, umumiy grammatik ma'nosi bilan o'ziga xos lingvistik belgilarga ega. O'zaro qiyosda aniqlanishicha, ayrim o'rinlarda ularning leksik ma'nosi, morfologik strukturasi hamda grammatik qurilishida har ikki tilga xos bo'lgan o'ziga xosliklar ham, umumiyliklar ham mavjud.

1. Гак В. Сравнительная типология французского и русского языков. – Москва: Либроком, 2010. –С.93.  
2. Улуқов Н. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Баркамол файз медиа, 2016. – Б.139.  
3. Аракин В. Сравнительная типология английского и русского языков. – Москва: Наука, 2005. – С.103.  
4. Гак В. Сравнительная типология французского и русского языков. – Москва: Либроком, 2010. –С. 92.  
5. Ўзбек тили грамматикаси. -Тошкент: Фан, 1976. 56 бет.  
6. Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Катортол-камолот, 2000. 15 бет.  
7. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 350 бет.  
8. Буранов Ж., Ҳашимов У, Исмаилов Х. Инглиз тили грамматикаси (морфология, синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. 350 бет..

**Gulnora ERGASHEVA,**  
*Namangan Regional National Center of Teaching New  
 Methodologies to Teachers, an English teacher*

## TEACHING ENGLISH IN PRESCHOOL INSTITUTIONS

**Annotatsiya.** *Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida chet tilni o'rgatish muammosiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, muallif maktabgacha yoshga mos ravishda o'quv jarayonida turli usullar bilan o'yinga alohida e'tibor beradi.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy, o'qitish, maktabgacha ta'lim muassasalari, o'yinlar, yosh, muloqot.*

**Annotation.** *The article focuses on the problem of teaching a foreign language in preschool institutions. At the same time, the author pays special attention to the game with various methods in the learning process, according to preschool age.*

**Keywords:** *modern, teaching, preschool institutions, games, age, communication.*

**Аннотация.** *Статья посвящена проблеме обучения иностранному языку в дошкольных учреждениях. При этом особое внимание автор уделяет игре с различными приемами в процессе обучения с учетом дошкольного возраста.*

**Ключевые слова:** *современный, обучение, дошкольные учреждения, игры, возраст, общение.*

At present more and more parents want their children to start learning a foreign language (mostly English) before they go to school. English in kindergarten is fun, accessible and useful for all kids. The main task of learning English in kindergarten is to involve the child in the most interesting process of getting to know another language and culture of the country of the language being studied. Language development in young children helps establish identity and develop receptive and expressive communication [1: 381–389]. According to American psychologist and linguist S. Krashen, “the acquisition of a foreign language is ideal before reaching the age of seven” [2]. They continue to easily learn foreign languages and sign systems, for example, a programming language. But there is no consensus on this matter. The main task of modern preschool education is to provide children’s quality education, development and upbringing [3: 48].

Some believe that it is necessary to start learning a second language after the child already knows how to speak his native language, when he has formed ideas that can be relied upon when learning a foreign language. The experience of bilingual families shows that the knowledge of two languages does not interfere with the development of the child, but, on the contrary, gives him a huge advantage over those who speak only one language. Learning a foreign language as an adult is much harder than as a child. It is all about the peculiarities of children’s perception, when the structure of the native language has not yet been established, and any other language is perceived as naturally as the native one. So it is up to parents, whether to let their child learn a foreign language at preschool age or not.

The game creates excellent conditions for mastering the language, and it is especially productive at preschool age. Teaching the grammatical side of speech in English is based on the child’s empirical ideas about the communicative function of the studied grammatical categories, which in most cases have correspondences in their native language (time, number). Learning phonetics is not limited to imitation, but consciously compares the interfering sounds of the native and foreign languages, achieves awareness of the difference between the sounds of the two languages, and then the correct pronunciation. For the development of the child, the gradual development of voluntary attention and memorization is also extremely important, since the corresponding involuntary mechanisms still predominate in children of this age. Systematic repetition is necessary for the development of children’s abilities: to generalize, analyze, systematize. As have been portrayed by Piaget and Vygotsky, learner-centered teaching will be effective if it is tuned to the pupils’ learning needs [4: 44].

Fun learning should be the situation made by the teachers. Children especially have fun with movement and physical participation, and the more fun the learners have, the better they will remember the language learned [5: 2–13]. Teachers play a vital role in the success of the implementation of any educational idea or concept. A large place is given to a variety of games with ready-made content and rules. Many of them develop thinking, memory, imagination, attention, the ability to self-control, comparison, classification. Games with ready-made content and rules contain the features of future learning activities. In them, the child must un-

derstand the task facing him, realize the game rules: follow the order, take into account the prohibitory signals and signs, move only along “their” paths, do not pronounce forbidden words, make sure that the rules are observed by all players, control yourself, achieve a win and championship. It has been observed that older preschoolers who can play different games with rules successfully master the program in elementary school.

Principles of work: In classes with children aged 5–7 years, the expediency of work should be taken into account:

- obligatory use of charitable incentives, both verbal and material;
- formation of a positive image of a teacher in children, which increases the child’s reflective abilities;
- imitation of the teacher’s speech in their native language up to 5-10%, and, as a result, bringing the children’s speech in English up to 90%;
- systematic introduction of vocabulary according to the scheme: the first lesson - 4 words, the second lesson - consolidation, subsequent lessons - activation using speech constructions plus 3-4 new words;
- taking into account the peculiarities of the complex memory of children in the preliminary development, a systematic return to previously studied material and its inclusion in subsequent classes;
- compulsory training in both truncated and full speech structure, which is the development of speaking skills;
- choice of group training; the introduction of paired learning as the best element of successful speaking in primary school (such work helps to establish a favorable climate in the group and break down language barriers);
- the ability to engage in their own learning activities, to develop a quick response to the team and teacher’s questions.

Types of work in English classes:

1. Work on pronunciation: tongue twisters, rhymes, fairy tales, exercises, gestures.
2. Work with objects: description, dialogue with a toy, games and fairy tales.
3. Working with pictures: description, detail, dialogue, games, comparison.
4. Learning and reciting poems, nursery rhymes, counting rhymes, tongue twisters, reading competition, recitation of different genres (including optimistic, sad, angry, competitions in teams and pairs).
5. Learning songs.
6. Outdoor games: ball games, “chain” with a toy, exercises, physical education, dances and round dances, teams on the move.
7. Quiet games: board games, lotto, riddles, cross-words.
8. Creative and situational games: role-playing games, interviews, everyday stories.

9. Story by picture: comparison, description, comparison, imagination with prediction.

10. Learning letters and sounds: writing in a notebook, drawings of words for given letters or sounds, shading letters, a video course on practicing the alphabet.

11. Working with video material: watching and discussing cartoons and diafilms in English.

According to Tiwari, methods should be chosen based on how best they achieve specified aims in teaching a language. For example, if the aim of a lesson is merely to obtain information, the method used could focus on acquiring vocabulary by using translations. In other words, the “why” of the question determines the “how” and “what” [6]. When choosing a methodology for learning English, attention should be paid to what age it is designed for. It is very important for teachers and learners to understand the different methodologies.

1. Both children and teachers like the game technique, it is interesting and effective. The essence is simple: the teacher conducts games during which children improve their language skills.

Advantages of the technique: it adapts to any age (from one-year old), with its help teachers can develop both oral speech and knowledge of grammar, spelling, etc.

2. Zaitsev’s technique is suitable for children from three years old. Recently, it has been adapted for learning English - now teachers can see English letters on the famous Zaitsev cubes.

3. Glenn Doman’s technique is designed for babies: they are designed for the child’s visual memory, for the fact that the pictures and the words written on them will be remembered and will simplify learning to read and write in the future. Teachers can make these cards themselves: Glen Doman gave clear recommendations in his books. Teachers can use cards not only with babies, but also with children up to middle school age.

4. The project methodology is suitable for children from 4-5 years old. The teacher chooses a topic and dedicates a series of lessons to it. It offers different types of activities with the help of which the children learn something interesting about the topic of the project, gives tasks for independent work (or with parents, depending on age). At the final lesson, children bring creative, large-scale works for their age on a given topic.

5. Mixed method - in it the teacher combines other methods at their own discretion, play games with their child, learn songs, develop projects, etc. The main advantage of the technique is its diversity. It will be easier for the teacher to interest the baby; he will never know in advance what the teacher will do today.

In summary, we can say, that children are motivated to learn English because they play and have fun with games, graphic activities and music that I usually use

for the online classes and digital distance learning. A large number of outdoor games using rhyming helps to maintain children's interest in activities and relieve stress. The publication is intended for teachers and parents for classes with children both in children's educational institutions and at home. Preschool age is recognized by psychologists as the most favorable for learning foreign languages. On the one hand, young children learn language material faster than adults, because they are not afraid to "make a mistake", on the other hand, learning a foreign language at an early age contributes to the development of speech, thinking and memory of the child, which means it is useful for

the formation of his personality as a whole. Teaching English to preschoolers has its own characteristics, which are based on the psychophysiological development of children of this age. Psychologists say that perception, memory and attention in preschoolers are involuntary. Preschool age is favorable for starting the study of foreign languages due to its psychophysical characteristics. Everything that the child learns at this time is remembered for a long time - long-term and working memory are well developed. With the correct motivation students will learn and get a communicative approach to the topic.

#### References

1. Lennox S. Interactive read alouds: An avenue for enhancing children's language for thinking and understanding: A review of recent research // *Early Childhood Education*, 2013, 41(1), 381-389.
2. Doláková S. Učíme angličtinu dobře? 2012 // Retrieved March 29, 2016, from <http://www.sylviad.cz/Publication.html>.
3. Kren A.A., Vovk E.V. Analysis of the concept "senior preschoolers' communicative competence" in modern literature // *Universum: Psychology and Education*, [s. l.], 2018, No. 6, 48.
4. Cameron L. *Teaching languages to children*. – Cambridge: University Press, 2001.
5. Shin J.K. Ten helpful ideas for teaching English to young learners // *English Teaching Forum*, 2006, 44 (2), 2-13.
6. Tiwari S.R. *Teaching of English*. – New Delhi: S.B. Nangia A P H Publishing Corporation, 2008.

**Gulsanam SANAYEVA,  
Mirshod ABDURAHMONOV**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchilari*

## INGLIZ TILI FANINI O'ZLASHTIRISHDA TINGLAB TUSHUNISH TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Til eng muhim muloqot vositasi. Tilsiz kishilik jamiyati rivojlanolmaydi. Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlar-da, aloqa vositalari (yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish)da sodir bo'layotgan o'zgarishlar talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishni, ularning filologik tayyorgarligini takomillashtirishni talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** til, ingliz tili, tinglab tushunish metodi, ta'lim, tarbiya, muloqot, jamiyat, bilim, malaka, ko'nikma, natija.

**Annotation:** Language is the most important tool. There is no availability and development of a dietary human society. The changes taking into social relations, communications in communications, communications in communications (the use of new information technologies) require improving the communicative competence, improving their philological training.

**Keywords:** language, listening method, education, upbringing, communication, society, knowledge, skills, skills, result.

**Аннотация:** Язык - самый важный инструмент. Там нет доступности и развития диетического человеческого общества. Изменения, связанные с социальными отношениями, коммуникациями в связи с коммуникациями, коммуникациями в связи (использование новых информационных технологий), требуют улучшения коммуникативной компетентности, улучшая их филологическую подготовку.

**Ключевые слова:** язык, метод слушания, образование, воспитание, общение, общество, знания, навыки, навыки, результат.

Chet tiling asosiy maqsadi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Xorijiy tillarni o'rgatishda tinglash metodi muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganishning dastlabki bosqichida tinglash ingliz tilini o'qitishning zamonaviy metodologiyasidagi eng dolzarb mavzulardan biridir, chunki tinglamasdan nutq vositasi-da aloqa qilib bo'lmaydi.

Bolalar maktabga ona tilida katta tinglash tajribasi bilan kelishdi. Ular ertak yoki hikoyalarni uzoq vaqt va diqqat bilan tinglashi, aniqlashtiruvchi savollar berishi, qayta so'rashi mumkin. Afsuski, maktabda bu qiziqish ko'pincha yo'qoladi. Ingliz tilida tinglash bo'yicha trening mavjud ko'nikmalarni saqlab qolish va ularni bosqich-ma-bosqich rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Tinglash (quloq orqali qabul qilinadigan nutqni tushunish) muloqotning asosi bo'lib, nutqni o'zlashtirish undan boshlanadi. Tinglash insonning ehtiyojlarini yoki faoliyatining xarakterini aks ettiruvchi o'ziga xos motivli kommunikativ faoliyatning alohida turi bo'lishi mumkin. Masalan, kino, teleko'rsatuv tomosha qilish, internetdan foydalanish, radio tinglash va hokazo. Nutq faoliyatining bir turi sifatida tinglashni yetarli darajada o'zlashtirish nafaqat chet tilida filmlar va teleko'rsatuvlarni mustaqil tomosha qilish imkonini beradi, balki rag'batlantiradi.

O'qishning birinchi yilida talabalar muloqotning og'zaki shaklini egallashi kerak. Ya'ni xorijiy nutqni tinglab tushunishni va unga to'g'ri javob berishni o'rganishi muhim. Og'zaki boshlanish tezroq harakat qilishga yordam beradi, chunki, 6-7 yoshli bolalar eshitganlarini osongina idrok etadilar, nafaqat alohida so'zlarni, balki butun nutq zanjirlarini ham oson o'zlashtiradilar, shu bilan birga ularning o'qish va yozish ko'nikmalari hali ona tilida yaxshi shakllanmagan.

Chet tilini o'rganish uchun erta yoshni afzal ko'rishning bir qancha sabablari bor. Kichkina bolaning uzoq muddatli xotirasi yaxshi rivojlangan. U o'rgatgan hamma narsa uzoq vaqt esda qoladi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, uning ona tilidagi so'z boyligi shunchalik kam bo'ladi. Ammo shu bilan birga, uning nutq ehtiyojlari ham kamroq: kichik bola katta yoshdagiga qaraganda kamroq muloqot sohalariga ega; u hali ham murakkab kommunikativ vazifalarni hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda ona va chet tillari imkoniyatlari o'rtasida unchalik katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat tuyg'usi katta yoshdagi bolalarnikidan ko'ra yorqinroq bo'ladi.

Tinglashda ishtirok etadigan asosiy psixik jarayonlar quyidagilardan iborat:

– xotira;

– tasavvur;

– idrok va fikrlash;

Shunday qilib, inson psixikasining ushbu xususiyatlarini faollashtirib, biz ularni bir vaqtning o'zida rivojlantiramiz, bu esa shaxsning har tomonlama rivojlanishining asosiy omilidir. Va shuning uchun tinglashni rivojlantiruvchi ta'limning ajralmas qismi deb hisoblash mumkin. Quloq orqali nutqni semantik idrok etish tahlil, taqqoslash, mavhumlashtirish, konkretlashtirish va boshqalar kabi tushunchalarga ta'sir qiladi. Idrok (eshitish va ko'rish) mohiyatini tavsiflab, ikkita tushunchani: idrok va tan olishni qat'iy farqlash kerak. Tushunish uchun ichki nutqning ahamiyati juda katta, u nutq xabarlarini idrok etish, bashorat qilish va umumlashtirish imkonini beradi. O'rganishning dastlabki bosqichida ichki nutq ayniqsa jadal davom etadi va uni eshitish idrokining asosiy va zarur tarkibiy qismi deb hisoblash mumkin.

Nutq va tinglash og'zaki nutqning o'zaro bog'liq ikki tomonidir. Tinglash bu nafaqat xabarni qabul qilish, balki ichki nutqda eshitilgan narsaga javob berishga tayyorgarlikdir. Tinglash nafaqat maqsad, balki o'rganish vositasi hamdir. Bu o'rganilayotgan tilning tovush tomonini, uning fonemik tarkibi va intonatsiyasini o'zlashtirishga imkon beradi: ritm, urg'u, ohang. Dastlabki bosqichda tinglash orqali tilning leksik tomoni va uning grammatik tuzilishi o'zlashtiriladi.

Xulosa qilib, tinglash muloqotning asosidir, og'zaki muloqotni o'zlashtirish undan boshlanadi. Tinglash kabi nutqiy faoliyat turiga ega bo'lish odamga o'ziga aytilyotgan narsani tushunishga va aytilganlarga adekvat munosabatda bo'lishga imkon beradi, uning raqibga javobini to'g'ri aytishga yordam beradi, bu dialogik nutqning asosidir. Bunday holda, tinglash nutq madaniyatini o'rgatadi: suhbatdoshni diqqat bilan tinglang va doimo oxirigacha tinglang, bu nafaqat xorijiy tilda, balki ona tilimizda ham muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gez. N.I. "Tinglash va gapirishni o'rgatishda muloqot sharoitlarining o'rnini": J. "Maktabda chet tillari". 1981-yil, 5-son, 32-bet.
2. Eluxina N.V. "Boshlang'ich bosqichda tinglashni o'rganishni intensivlashtirish": J. "Maktabda chet tillari". 1986 yil, 5-son, 15-bet.
3. Ilyina V. Ya. Tinglash sharoitida olingan qisqa muddatli xotiraning ayrim xususiyatlari//Uch. ilova. Moskva davlat ped. Chet el instituti lang. ular. M. Torez. 1988-yil.
4. Komenskiy Yan Amos. Ajoyib didaktika. M., 1896-yil.
5. Lyaxovitskiy M.V. Koshman I.M. Chet tilini o'qitish metodikasi. M., 1981-yil.
6. Leontiev A. Til, nutq, nutq faoliyati. M., 1985-yil.
7. Passov E.I. Chet tilidagi nutqni o'rgatishning kommunikativ usuli. M., 1985-yil.

## MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

**Annotatsiya:** Maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenlik o'zbek xalqining yuksak qadriyati ekanligini namoyon qiluvchi milliy an`ana va qadriyatlarning ahamiyati, bu borada davlatimiz rahbarining jahon siyosiy maydonidagi nutqi va siyosati, dunyoda ro'y berayotgan millatlararo nizolar xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, kelajak, qo'shni davlatlar, an`ana, urf-odatlar, yuksak qadriyat.

**Annotation:** The article discusses the importance of national traditions and values, which show that interethnic harmony and religious tolerance are the highest values of the Uzbek people. the word is referred to.

**Keywords:** religious tolerance, interethnic harmony, future, neighboring countries, traditions, customs, high values.

**Аннотация:** В статье рассматривается значение национальных традиций и ценностей, которые показывают, что межнациональное согласие и веротерпимость являются высшими ценностями узбекского народа.

**Ключевые слова:** веротерпимость, межнациональное согласие, будущее, соседние страны, традиции, обычаи, высокие ценности.

Otasining qo'lidan, onasining esa ko'krigidan ayrilganini ko'rgan bola qalbida nafrat nish otgan bo'lsa, qo'lga qurol tutqazgan g'animning o'ziga ham yordam bermaydigan shiorlaridan boshi aylandi. U qo'rqadi. Erta-indin nafaqat ota-onasi, jigarlaridan ham ayirishdan dahshatga tushadi. Talato'plar ichida qolgan vatani taqdiri endi uning yoshgina yelkasida. Boshi urushdan chiqmagan bolakay nazdida fuqarolik madaniyati hoziroq kimnidir gumdon qilishdan iborat go'yo.

Ha, bu bolakay kabi och-nahor, boshpanasiz, yaqinlarisiz yashayotgan, tili, dini, e'tiqodi, boringki, o'zligidan ayrilganlar notinchlik hukm surgan davlatlarda talaygina. Qoloqlikka yuz tutgan bu davlatlar dunyo xaritasida fuqarolik jamiyati tarkibini fuqarolik madaniyati aks etgan fuqarolar emas, qul, bировga qaram, haq-huquqsiz "qo'g'irchoq"lar deya ko'rsatiladi.

Ota hadikda Surxondaryo tog'larini yayov kezar ekan, qizlarini yovdan qutqarib, joni halak. Yuzida imoni, ibo-hayo mujassam bokira qizlar taqdirini asrash uchun ham yelib-yuguradi bechora Surxon ularga bag'rini ochadi. Surxon qizlarni g'animlardan qo'riqlaydi go'yo. Besh qiz, besh g'uncha. Ona qo'lidagi olti oylik chaqaloq-qizaloqdan tortib erta-indin alpomishdek yigitning Barchini – to'ng'ich qiz ham iffatini, orini asrab qolish uchun dengizga oqayotgan xasga tarmashadi. Qochayotganida qo'lida sevgan kitobini tutgan o'rtan cha qizning nigohidan uning ilmga, fanga chanqoqligini uqib olasan, kishi. Iymanibgina talato'pda musichadek otasining pinagiga kirgan qizning qalbida yangrayotgan vatan qo'shig'idan oilaning achchiq qismatiga kuyunasan. Qalbing og'riydi. Qur'oni Karim va hadislarni qiroat bilan o'qiyotgan duogo'y ona esa Allohdan farishtamisol qizlarini asrashini so'rab o'tinadi.

Millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik xususida so'z yuritganda o'sha oila ko'z o'ngimda namoyon bo'laveradi. Shu kungacha xalqimiz mehrga muhtoj

qanchadan-qancha oilalarni bag'riga oldi. Vaqtincha bo'lsa ham o'z yordamini ayamadi. Bunda, albatta, yurtboshimizning ko'rsatmalari-yu xalqimizning oliyanob xislatlari tufayli o'sha afg'onistonlik 150 nafarga yaqin qochoqlarga vaqtincha boshpana, oziq-ovqat berilib, bemorlari shifokorlar nazoratiga olindi va o'z yurtlariga diplomatik qoidalarga binoan kuzatib qo'yildi.

Ha, xalqimizda "Qo'shning tinch – sen tinch", degan naql bor. Qo'shni yurtdagi notinchlik bizni, albatta, sergak torttiradi.

O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ochiq va konstruktiv tashqi siyosat olib borilmoqda. Xususan, respublikamizning tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakatning ichidagi keng ko'lamlil o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi. Shunday ekan, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atroftida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surishdir. Zotan, respublikamiz harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik tamoyiliga sodiq bo'lib, o'z hududida xorijiy harbiy bazalar va obyektlarni joylashtirishga, shuningdek, mamlakat harbiy xizmatchilarining chet eldagi tinchlikparvarlik amaliyotlarida yoki harbiy mojoralarda ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi. O'zbekiston barcha qarama-qarshiliklar va nizolarni faqat tinch siyosiy yo'llar bilan hal qilish tarafdoridir.

Shu o'rinda O'zbekiston davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish hamda xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari; xavfsizlikning bo'linmasli-



gi, ochiqlik va pragmatizm, qo'shni mamlakatlar bilan har tomonlama yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini rivojlantirish, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda tinçlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida barcha sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanligini yana va yana takrorlashimiz lozim.

Bag'rikenglik timsoli sifatida davlatimiz rahbarining O'zbekiston Afg'oniston bilan aloqalarni kengaytirishni, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinç yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etishni davom ettirishi fikrimizni yorqin tasdiqlaydi.

Ha, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik xalqimizning yuksak ma'naviyati bo'lib qolaveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2012.
- 2.Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi,1995.
- 3.Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi,1948.
4. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risida"gi qonun, 1998.
- 5.Yovqochev Sh.A "Siyosat va din" o'quv qo'llanmasi.
- 6.Narbekov A.V "Dinshunoslik asoslari". – Toshkent, 2007.
- 7.Mo'minov A, Yo'ldoshxo'jayev. H. "Dinshunoslik". – Toshkent, 2003.

**Mohigul Alimardonova,**  
*Shahrisabz davlat pedagogika  
instituti magistranti*

## BESHINCHI SINIF ONA TILI MASHG'ULOTLARI UCHUN BERILGAN MASHQLAR DOIRASIDA O'QIB TUSHUNISH METODLARI

**Annotatsiya.** O'qib tushunish bu – matnni qayta ishlash, uning ma'nosini tushunish va o'qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bog'lab ang'lay olish qobiliyati. O'quvchining ravon, ifodali o'qiy olishi, o'qiganlarining mazmunini tushuna olishi, qahramonlarning harakatlarini tahlil qila olishi, tegishli xulosalar chiqara olishida ham o'qib tushunish metodining ahamiyati katta. Xalqimiz o'qish va o'rganishga munosabatini maqol va matallarda aks ettirgan.

**Kalit so'zlar:** o'qib tushunish metodi, ona tili, darslik, o'quvchi, bilim, ko'nikma.



**Annotatsiya.** Понимание прочитанного – это способность обрабатывать текст, понимать его значение и соотносить его с тем, что читатель уже знает. Метод понимания прочитанного очень важен для того, чтобы учащийся мог бегло и выразительно читать, понимать содержание прочитанного, анализировать действия героев, делать соответствующие выводы. Наш народ выражал свое отношение к обучению и чтению в пословицах и поговорках.

**Ключевые слова:** метод понимания прочитанного, родной язык, учебник, ученик, знания, умение.

**Annotion.** Reading comprehension is the ability to process text, understand its meaning, and relate it to what the reader already knows. The reading comprehension method is very important for the student to be able to read fluently and expressively, to be able to understand the content of what he has read, to be able to analyze the actions of the characters, and to draw appropriate conclusions. Our people have expressed their attitude to learning and reading in proverbs and sayings.

**Key words:** Reading comprehension method, native language, textbook, student, knowledge, skill.

O'qish turli ko'nikmalarni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu ko'nikmalar birgalikda o'qishni o'rganishning yakuniy maqsadi – har tomonlama o'qishni tushunishdir. Ko'p sabablarga ko'ra bola uchun matnning tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Bu rivojlanmagan ko'nikmalarga bog'liq. Mazkur ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qo'yidagi o'qib tushunish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Matnning dikodlash usuli – bu so'zlarning lug'aviy va kontekstual ma'nosini bilish, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishini anglash, matn tarkibidagi parchalar asosida xulosa chiqarish, matndagi asosiy fikrni aniqlash, berilgan savollarga matn asosida javob bera olish, matnda ishlatilgan badiiy san'atlar yoki so'z birikmalarini tanib, ajratib olish va ohangini aniqlash, vaziyatning kayfiyatini (tasdiq, inkor, so'roq qilish, buyruq berish), muallifning maqsadi, niyati va nuqtayi nazarini aniqlash va muallif to'g'risida xulosalar chiqarish qobiliyatlarini o'qilgan matnning samarali tushunish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar hisoblanadi.

Matnning o'qib tushunish qobiliyatiga o'quvchining yuqoridagi ko'nikmalari hamda ma'lumotni qayta ishlash qobiliyati ta'sir ko'rsatadi. Agar o'quvchi so'zning ma'nosini bilmasa u matnning qayta ishlashga ko'p vaqt sarflaydi. Chunki u matndagi tushunilmagan so'zlarni individual tarzda anglashga urinadi, bu esa tushunishga ham halal beradi. O'qib tushunish malakasini rivojlantirish uchun ko'plab mashqlar mavjud. Shundan so'z boyligini oshirish, matnning tanqidiy tahlil qilish, maydalab o'qish mashqlari 5-sinf "Ona til"i darsligida keng qo'llanilgan.

**6-mashq.** Matnning diqqat bilan o'qing. Ko'pchilik o'zbek tilini nega o'rgananimga qiziqadi. Bundan bir necha yil avval tasodifan ajoyib qo'shiq eshitib qoldim. Aniqlashtirib, uning o'zbek tilida kuylanganini bildim. Shu tariqa dunyoda o'zbek tili borligini bildim va O'zbekistonga qiziqib qoldim. Yaponiyada o'zbek tili o'qitiladigan institutni topib, unda ta'lim oldim. 2016–2017 o'quv yilida Toshkent davlat sharqshunoslik institutida o'qidim. O'zbekistonda o'tkazilgan bir yil menda katta taassurot qoldirdi. O'zbek tilini o'rganishda davom etyapman. Orzum – o'zbek tilidagi go'zal qo'shiqlarni yapon tiliga tarjima qilib, Yaponiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy hamda turizm aloqalarini yanada kuchaytirish. (Naita Rio, Yaponiya)<sup>1</sup>

Munosabat bildiring.

Yapon sharqshunosining o'zbek tilini o'rganishiga nima sabab bo'lgan?

Siz O'zbekiston farzandi sifatida, o'zbek tilini rivojlantirish uchun nimalar qilishni xohlaysiz?

**Komiljon:** – Nima uchun har bir millat o'z ona tilining taqdiri uchun kurashadi?

**Donoxon:** – Davlat tilida ish yuritish deganda nima tushunasiz?

Ko'pgina bolalar fonologik idrok etish qobiliyatini tabiiy yo'l bilan egallaydilar: kitob o'qish, qo'shiq va she'rlarni tinglash. Ammo ba'zi bolalar uchun bu unchalik oson emas. Darhaqiqat, o'qish qiyinligining dastlabki belgilaridan biri qofiyalash, bo'g'inlarni hisoblash yoki so'zdagi birinchi tovushni aniqlash bilan bog'liq muammolardir.

Farzandingizga ushbu ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam berishning eng yaxshi usuli ularni aniq ko'rsatmalar va ko'plab amaliyotlar bilan boshqarishdir. Bolalarga tovushlarni to'g'ri aniqlash va ular bilan ishlashni o'rgatish kerak. Shuningdek, siz so'zlar bilan o'ynash, bolangizga she'rlarni ovoz chiqarib o'qish yoki fonemik idrok etish va dekodlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kompyuter texnikasidan foydalanish orqali fonologik idrokni rivojlantirishingiz mumkin.

Bundan tashqari, ravon o'qish uchun bolalar so'zlarni, shu jumladan, yozilishini o'qimaydigan so'zlarni darhol tanib olishlari kerak. Ravon o'qishni rivojlantirish orqali bola nafaqat o'qish tezligini, balki o'qishni tushunishni ham oshiradi. Har bir so'zni dekodlash va o'qish ko'p vaqtni olishi mumkin. So'zni tanib olish bu – so'zni baland ovozda o'qimasdan, unga qarab, bir zumda tanib olish qobiliyati. O'quvchilar tez va deyarli xatosiz o'qiy olsalar, ular "ravon" o'qiy oladilar.

Ravon o'qiy oladigan odamlar ravon va ritmik o'qiydilar. Ular ma'noni tushunish uchun matndan foydalanadi va nima haqida o'qiyotganiga qarab ovozidagi intonatsiyani o'zgartiradi. Ravon o'qish qobiliyati matnning yaxshi tushunish uchun juda muhimdir.

So'zni tanib olish o'qishni endi boshlaganlar uchun katta qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Odatda inson so'zni avtomatik ravishda tanib olishi uchun uni 4 dan 14 martagacha ko'rishi kerak. Ko'pgina bolalar ravon o'qishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. So'zni aniqlash va boshqa o'qish ko'nikmalarini yaxshilash uchun bola ko'p mashq qilishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni mustah-

kamlashning eng yaxshi usuli – kitob o'qish. Bolaning o'qish darajasiga mos keladigan kitoblarni tanlash muhimdir.

#### O'qib tushunishda lug'atlarning ahamiyati

O'qiganingizni tushunish uchun matndagi so'zlarning hech bo'lmaganda ko'p qismini tushunish kerak. Lug'at boyligi matnni tushunishning asosiy komponentidir. O'quvchilar dars davomida yangi so'zlarni o'rganishi mumkin, lekin ular so'zlarning ma'nosini odatda kundalik vaziyatlarda yoki o'qish paytida bilib oladi. O'quvchilar qancha ko'p yangi so'zlarni o'rgansa, ular-

ning so'z boyligi shunchalik ortadi. O'quvchi bilan turli mavzularda tez-tez suhbatlashish, uni yangi so'zlar va tushunchalar bilan tanishtirish so'z boyligini oshirishga yordam beradi. So'z o'yinlari va hazillar ham bolalarda bu ko'nikmalarni mustahkamlashning qiziqarli usullaridir.

Xulosa shuki, fikrlar va jumlar darajasida qanday bog'langanligini bilish bolalarga parchalar va butun matnlarni tushunishga yordam beradi. Bu ham izchillik deb ataladigan narsaga yoki umumiy ishda fikrlarni boshqa g'oyalar bilan bog'lash qobiliyatiga olib keladi.

1. N. Mahmudov, A. Sobirov, SH. Sattorov, SH. Toshmirzayeva, D. Mannopova, Ona tili umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, TOSHKENT – 2020

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: 2007.
2. Mengliyev B. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – Toshkent: 2010.
3. Pedagogika. Darslik. R. Mavlonov tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
4. Pedagogik kvalimetriya moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2015.
5. To'raqulov O. X. Ta'limni boshqarishda maqsadlar ketma-ketligiga erishish.
6. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. – Toshkent: 2001.

**Nafisa Obidova,**

*Navoiy davlat pedagogika instituti  
ingliz tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti*

## HIKOYADA BADIY-PSIXOLOGIK KECHINMA TASVIRI

*(Ulug'bek Hamdam hikoyalari asosida)*

**Annotatsiya.** Inson – sirli hilqat. Uning ruhiyatini anglash, his qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Maqolada o'zbek adabiyotshunosligidagi hikoya janrining taraqqiyoti hamda asar tahlilining struktural va psixologik tahlillari orqali kitobxoniga yozuvchining g'oyasini yetkazib berish va bu masalaning birgina mohir hikoyanavis adibimiz Ulug'bek Hamdam hikoyalari orqali ochib berish maqsad qilib olingan.

**Kalit so'zlar:** psixologik kechinma, hikoyachilik, struktural tahlil, modern adabiyoti, ong oqimi.

**Annotation.** Human – mysterious necklace. Understanding and feeling his psyche is a complex process. In the article, the development of the narrative genre in Uzbek literary criticism and today's structural and psychological analysis of the work is aimed at conveying the writer's thought to the reader and revealing this matter through the stories of our only master storyteller Ulugbek. Hamdam.

**Key words:** psychological experience, storytelling, structural analysis, modern literature, stream of consciousness.

**Аннотация.** Человек – таинственное создание. Понимание и ощущение его психики – сложный процесс. В статье развитие жанра повествования в узбекском литературоведении и сегодняшний структурно-психологический анализ произведения направлен на то, чтобы донести мысль писателя до читателя и раскрыть ее через рассказы узбекского мастера-сказочника Улугбека Хамдама.

**Ключевые слова:** психологический опыт, сторителлинг, структурный анализ, современная литература, поток сознания.

Inson ruhiyati keng olam bo'lib, undagi hissiyot va tuyg'ular ikki xil shaklda o'zini namoyon etadi. Birinchisi anglangan, ma'lum mantiqqa ega, tashqi dunyoga nisbatan o'zining qat'iy xulosa va yo'nalishiga ega tuyg'ular. Ular insonning jamiyatga, odamlarga, atrof-muhitga

munosabati va bular haqidagi ma'lum tushunchalarga ega bo'lgan qarashlarni ifodalaydi. Bu jarayonlarni sintezlashda ong bevosita ishtirok etadi. Ikkinchisi, ong osti hislari. Bularga ongga qalqib chiqmagan, lekin inson ruhiyatida doimo mavjud, tashqi dunyo bilan tinim-

siz aloqa qilib turuvchi hislar kiradi. Ular inson harakati, ruhiyatining asosini tashkil etadi. Insondagi ijod qilish hissi, ijodiy ruh ong osti tuyg'ulariga xos. Inson tafakkuriga xos bo'lgan tahlil qilish, umumlashtirish, konkretlashtirish, zidlash kabi aqliy faoliyat turlari, xususan, badiiy matnda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bunda matn muallifi o'zi tavsiflayotgan obyektga ijodiy yondashib, uning ochilmagan qirralarini o'ziga xos tarzda ko'rsatib berishga harakat qiladi.

Bugungi kun adabiyotshunosligida hikoya janri-ning hajman ixchamlikka intilayotgani sezilmoqda. Bu esa janr strukturasi novellaga xos xususiyatlarning qayta jonlanayotganidan darak beradi. Shunday xususiyatlardan biri hikoya syujetida kuchli dramatism voqealarning ketma-ketligi va bosqichma-bosqich kuchayib borishidir. Natijada hikoyada voqea tig'izligi kuchayib, bayon sur'ati ortmoqda. Bu hozirgi fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, hikoyalar nutqida bu jihatlari yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ma'lumki, "ong oqimiga" asoslangan modern asarlarda inson qalbida yuz berayotgan ziddiyatli holatlarni butun murakkabligi, barcha evrilishlari bilan tadqiq qilish asosiy o'rin tutadi. X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, U.Hamdani kabi adiblar ko'proq shu yo'ldan bormoqda. Ular o'z asarlarida insonga xos tabiiy ong oqimining real yoki no-real, ongli yoki ongsiz, anglangan yoki anglanmagan, tekis yoki notekis, davomli yoki oniy, chegaralangan yoxud had-hududsiz harakatini ifodalash bilan har bir qahramonning murakkab dunyosini mukammal tarzda ochishga intilmoqda. Natijada o'quvchi ko'z o'ngida bu tor dunyoda umrguzaronlik qilayotgan odamzodning cheksiz ichki olami bor bo'yi bilan ko'zga tashlanayapti. G'arb adabiyoti uchun muhim hisoblangan "xaos", ya'ni hayotdagi boshboshdoqlik, tartibsizlik, chigallik, odamzodni qurshab olgan zulmatni tasvirlash o'zbek hikoyachiligida ham asosiy o'rinni egallasa-da, yevropacha yechimdan farqli o'laroq, bizning adiblarimiz qahramonlari ana shu tartibsizliklar qurshovidan eson-omon chiqish, chigalliklarni oqilona yechish yo'llarini izlayotgani xarakterlidir. Ayni paytda hikoyachilikda samarali ijod qilayotgan iste'dodli adiblarimiz o'zlarining badiiy niyatini ramzlar, majozlar, turli timsollar vositasida ilgari surishga intilmoqda. Bu esa hikoya janri-ning imkoniyatlari yanada kengaygani, badiylik mezonlari chuqurlashganidan darak beradi. E'tiborlisi shuki, bunday hikoyalarda syujetga turtki beradigan botiniy tuyg'u bilan birga mazmunni boyitadigan, xulosa chiqarishga arziydigan, o'quvchi yuragiga ta'sir qiladigan zalvorli fikr ham mavjudligini sezish qiyin emas. Janr talabidan kelib chiqqan holda, voqeaning shiddat bilan rivojlanishi, voqealar shiddati o'quvchini nafas rostlashga yo'l qoymasligi Ulug'bek Hamdani hikoyalarining xususiyatlaridan biridir. "Musulmon", "Bir piyola suv", "Ko'nglimdagi daryo" kabi hikoyalarda aytilmoqchi bo'lgan fikr ma'lum detallar vositasida ilgari suriladi. Ular voqelik bilan yonma-yan harakatlanib, mukammallik kasb etib,

oxir-oqibatda badiiy obraz darajasiga ko'tariladi. Zero, ularsiz ushbu hikoyalarning mazmun-mohiyatini tushunish mushkul.

Ulug'bek Hamdani har bir hikoyasiga muayyan g'oyani ochishga xizmat qiladigan epigraf tanlaydi. Binobarin, epigraf hikoyaning tag mazmunini anglashga yordam berishi barchamizga ma'lum. Shunday ekan, adibning keyingi yillarda yaratilgan hikoyalarda ramz masalasi fenomen darajasiga ko'tarildi. Uning "Musulmon" hikoyasini tahlil etar ekanmiz, dastlab epigrafning ma'nosi va butun boshli asar mana shu ma'noni ochishga qaratilgani diqqatni tortadi:

*Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylag'ay,*

*Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylag'ay*

*(Alisher Navoiy)*

*Kim ko'ngli o'ksik bir insonni xursand qilsa, yiqilgan Ka'bani qaytadan qurgan, ta'mirlagan kabi savobga noil bo'ladi, demoqda shoirimiz. Mazkur epigraf XV asrda, ya'ni Hazrat Navoiy davrida qanchalik ahamiyatli bo'lsa, hikoya yozilgan 2012-yilda va bugungi kunda ham shunchalik dolzarb. Inson hayoti davomida nimagadir ishonib, muayyan e'tiqod amallari bilan hayotini, turmush tarzini bog'laydi.*

*Dunyodagi barcha dinlarning negizida avvalo yaxshilik yotganini unutmazlik kerak.* Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi. Islom dini inson hayotining har bir jabhasini o'zida mujassam etgan, har zamonga mos ezgulikka asoslangan bag'rikeng, mo'tadil din. Islom faqat diniy ahkomlardan iborat bo'lmay, balki xalq ma'naviyati va ma'rifatini shakllantiruvchi hamda kamolga yetkazuvchi, uning ijtimoiy-siyosiy, ruhiy-ma'naviy talablarini qondiruvchi dindir. Ammo islomiy arkonlarning ijrosi barobarida inson diniy ilmsizlik sababli ko'plab muammolarga duch kelishi tabiiy. Mana shu muammoldan biri mutaassiblik va dinga mukkasidan ketishdir. Oisha onamiz (r.a.)dan rivoyat qilingan quyidagi hadis buni isbotlaydi: "Bani Asad qabilasiga mansub bir ayol huzurimda o'tirgan edi. Shu payt Rasululloh (s.a.v.) uyga kirib kelib: "Bu ayol kim", – deb so'radilar. "Bu – o'sha, kechasi uxlamay namoz o'qib chiqadigan ayol", – dedim. So'ng, mazkur ayolning qanaqa namoz o'qishi haqida so'zlashdik. Shunda Rasululloh (s.a.v.): "Bunday qilmanglar, solih amallarni qurbingiz yetganicha ado etinglar, qancha ibodat qilsangiz ham Alloh taolaga malol kelmaydi-yu, biroq o'zingizga malol kelib qolmasin!" – dedilar.

Hadisdan ma'lum bo'ladiki, har bir insonga dinda chuqur ketib yoxud mutassibona farz qilinmagan birorta amalni o'ziga vojib qilib olib, so'ng bajarolmaydigan holatga tushib qolgandan ko'ra, dinda o'rtamiyonlik, ya'ni vasatiylik yo'lini tanlab solih amallarda mudom bo'lishi yaxshiroq ekan. Payg'ambarimiz s.a.v. mazkur hadislarida dinda chuqur ketishning oqibati yaxshi bo'lmasligini ma'lum qilib, ibodatga oid amallardan kishi toqati yetadiganini olishga buyurdilar. Bu hikoyani yozuvchi

yetkazib bermoqchi bo'lgan asosiy mazmun, deb qaraydigan bo'lsak, uni ochib beruvchi detallar va ularning struktural tahlilini hikoyada ko'rib chiqamiz. Asar to'raligicha tabiat va inson o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik ustiga quriladi. Ya'ni butun boshli jamiyatni tabiatga mengzash, tabiatdagi uyg'onish fasli insonlar e'tiqodi orqali ochiladigan qalbidagi imon eshigi, o'rik daraxti mana shu imonning belgisi, asarning eng ahamiyatli komponenti esa qahramonlarning hayoti va qushlarning bu hayotni aks ettirishidir. Asarda qushcha doim ham ko'rinish bermasligi holati va Husanning doimo qalbiga quloq solib ish tutmasligidan, otasining oldiga akasi bilan birgalikda borislari esa daraxt shoxida bir-biriga o'xshash ikkita qushning paydo bo'lganiga ishora. Shu o'rinda muallif asar qahramonlari sifatida nega aynan egizaklarni tanlaydi, degan haqli savol tug'iladi. Bu egizaklar tashqi xususiyati orqali butun bashariyatning ongi hamda dunyoqarashini ochib berishga xizmat qilishiga guvoh bo'lamiz. Keng doirada mushohada qiladigan bo'lsak, barcha yaratilgan tashqi xususiyatlari bilan bir xil ammo ularning ruhi va ongi eng asosiy tafovut nuqtasidir. Hikoyaning bir nechta o'rinida qahramonlar

diniy tushunchalar borasida ziddiyatga kelishiga guvoh bo'lamiz. Husan har gal bu murosasizlikda akasiga yon bersa-da, o'z e'tiqodida sobit qoladi. Bundan biz chin musulmon murosa bilan ish tutishi, ruhiyatidagi o'zaro kurashlar so'ngida imoniga sodiq qolib, o'zligini anglashi kerakligini tushunamiz.

Asarda qahramon uzil-kesil qarorga kelishiga sababchi bo'lgan personaj nuroniy otaxon obrazi hisoblanadi. Jamoaviy namoz o'qish vaqtida salomatligiga ziyon yetishi, aslida sog'lig'i taqozo qilmasa ham jamoaviy ibodatlariga borishi uning o'zida mavjud tushunchalarning chinakamiga anglanmaganidan darak beradi.

Nihoyat, asarning so'ngida hajdan qaytayotgan hojidek ehrom – oq libosga burkangan o'rik daraxti gullarining to'kilishi aslida Hasan ma'lum maqsadlaridagina qilayotgan ibodatlarining ko'kka sovurilgani, qabul bo'lmaganidan dalolat beradi.

Hikoyada tahlil qilishga undaydigan yana ko'plab jihatlari borki, ular o'quvchini asarni qayta-qayta o'qib, teran fikrlashni undaydi. Bu esa, albatta, yozuvchining mahorati va yutug'i.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Xolmurodov. Ruhiy kechinma va uning badiiyati. O'zbek tili va adabiyoti. 1997. 58-bet
2. J.Eshonqulov. Ruhiy tahlil metodi xususida O'zbek tili va adabiyoti. 1999. 42-bet.
3. U.Hamdani. Musulmon. 2012.
4. Ziyoz.com.

Dildora Omonova,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

## O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kompetensiya, uning ma'nosi va turlari, lingvistik kompetensiya turlari, ma'nosi, uning kelib chiqish jarayoni haqida ma'lumot keltirib o'tilgan. Shuningdek, maqolada lingvistik kompetensiya va uning turlari, boshlang'ich sinf o'quvchisida lug'at boyligini oshirishda lingvistik kompetensiyaning o'rni haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, lingvistik kompetensiya, milliy o'quv dasturi, ona tili va o'qish savodxonligi, kompetensiyaga doir topshiriqlar.

**Kirish.** Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, bilimlar bazasi, malaka va ko'nikmalar majmuasini, shuningdek, o'quvchida kreativ savodxonlik elementlarini shakllantirish zarurligini inkor etmaydi. Ta'limda kompetensiyaga asoslanish orqali bilim, malaka va ko'nikmalar integratsiyalashishini ta'minlaydi. Shu bilan birga kishi egallagan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasi ham kompetensiya hisoblanadi. Kompetensiya so'zi muayyan vazifani bajarish uchun biror shaxs yoki tashkilotga berilgan kompetentlik va

huquq ma'nosida ham qo'llaniladi. Kompetensiya o'quvchining muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.

**Muhokamalar.** Bugungi kunda ta'lim jarayoniga kompetensiya, lingvistik kompetensiya va uning turlarining qo'llanish usullari kirib keldi hamda jadallik bilan rivojlanmoqda. Lingvistik kompetensiya nazariyasi tarixiga qaraydigan bo'lsak, lingvistik kompetensiya nazariyasi 20-asrning eng ko'zga ko'ringan tilshunos-

laridan biri Xomskiy tomonidan taklif qilingan va uning nazariyasi nazariy tilshunoslik maydonida inqilob qilgan. Biroq Xomskiyning lingvistik kompetensiya nazariyasi, tabiiyki, keyinroq muhokama qilinadigan bir qator omillar bo'yicha shubha ostiga qo'yildi va fanga Dell Hymes o'zining lingvistik kompetensiya nazariyasini kiritdi. Xomskiyning g'oyalarga ko'ra, lingvistik kompetensiya nafaqat tilni bilish, balki kimga qanday xabarni yetkazish va uni har qanday kontekstda qanday qilib to'g'ri yetkazishni o'z ichiga oladi. So'zlovchilarga turli nutq shakllaridan foydalanish va tushunish imkonini beradigan ijtimoiy-madaniy bilim. Dastlab kompetensiya tilni ishlatish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning majmuyi sifatida qo'llanilgan.

Bir necha yil o'tgach, Xomskiy lingvistik kompetensiya tushunchasini taqdim etdi. Xomskiyning ta'kidlashicha, "ideal so'zlovchi – tinglovchi" o'z nutq jamoasida so'zlashuvchi tilni to'liq egallaydi va unga ko'ra, "har bir tilda so'zlashuvchi generativ grammatikani o'zlashtirgan va o'z ichiga olgan" hamda bu uning ushbu mavzu bo'yicha bilimini ko'rsatadi. Xomskiy tilning qanday qilib olinganligi va madaniyat doirasida ishlashini tavsiflashga qaratilgan bir qancha nazariyalarni ishlab chiqdi. Lingvistik kompetensiya universal grammatika deb nomlanuvchi lingvistik xulq-atvorning kengroq nazariyasining bir qismi bo'lib, u tilni bolalar rivojlanishi asnosida takomillashib boradigan tabiiy qobiliyat sifatida tushuntiradi. Bu nazariya nutqning qat'iy o'rganilgan xatti-harakati ekanligi haqidagi g'oyadan farq qiladi.

Lingvistik kompetensiyaga mutaxassislar tomonidan turli davrlarda turli ta'riflar berilgan. Ural federal universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi T.A.Pirkova "Содержание и структура лингвистической компетенции" ("Lingvistik kompetensiyaning mazmuni va tuzilishi") maqolasida lingvistik kompetensiyaga bir qancha ta'riflar bergan. I.L.Beam qarashlari lingvistik kompetensiya va sotsiolingvistik jihatlarni o'z ichiga oladi va uni "lingvistik vositalarga ega bo'lish, matnни yaratish va tushunish jarayoni", deb ta'riflaydi. [1, 29]. R.K.Minyar-Beloruhev lingvistik kompetensiyani "til tizimi va nutq faoliyati jarayonida lingvistik vositalardan foydalanish qoidalarini bilish" deb belgilashni taklif qiladi. [2, 31]

Demak, ilmiy pedagogik, psixologik qarashlar shuni ko'rsatadiki, kompetensiya murakkab, ko'p qismli qator fanlar uchun mos keladigan tushuncha hisoblanadi. Kompetensiya inglizcha "competens" so'zidan olingan bo'lib, "layoqatli", "qobiliyatli" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'limda har bir ta'lim oluvchining uquvi, layoqati, qobiliyati inobatga olinishini nazarda tutadi. Milliy o'quv dasturiga ko'ra, kompetensiya (o'quvchining) – mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarini kundalik faoliyatida qo'llay olish qobiliyatidir.

Ona tili mashg'ulotlari davomida kompetensiya kommunikatsiya (muloqot) ishtirokchilari tomonidan ta'limning aniq maqsadlariga qaratilgan nutq faoliyatini rivojlantirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisini ifodalaydi. Mazkur o'quv predmetining asosiy vazifasiga o'quvchilarga quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish kiradi:

**Lingvistik kompetensiya** – ona tili imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olish uchun tilning leksik, fonetik, orfoepik, orfografik, punktuatsion me'yorlarini yetarli darajada bilish va nutq faoliyati turlari (tinglab-tushunish, gapirish, o'qish va yozuv)da qo'llay bilishni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy-lingvistik kompetensiya** so'zlovchining muayyan nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi.

**Ijtimoiy-madaniy kompetensiya** autentik nutqning milliy xususiyatlari o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlarini va boshqa milliy-madaniy jihatlarni o'ziga mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim etish bilan bog'liq.

**Ijtimoiy kompetensiya** ijtimoiy-lingvistik kompetensiya va sotsiomadaniy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. U hozirgi ko'p madaniyatli dunyoda ta'lim oluvchilarda, avvalo, o'z ona tilini puxta o'rganish va shu orqali chet tillarini o'rganish muhimligi tushunchasi, ona tilning barcha uslublarida muloqot qilish, o'zi ustida mustqail ishlash va ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida foydalanish ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirish, fuqarolik, vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalashda, ona tili orqali madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish istagi va xohishida namoyon bo'ladi.

**Diskursiv kompetensiya** (diskurs – og'zaki yoki yozma nutq matni) matnни to'g'ri talqin qilish va tuzish, shuningdek, shunga mos nutqiy muloqot turini tanlash uchun og'zaki va yozma (stilistik hamda tarkibiy qismlarini bilib olishni nazarda tutgan) matnlar tuzishda malaka va ko'nikmalardan iborat.

**Kompensator kompetensiya** ona tili muhitida nutqiy hamda ijtimoiy muloqot tajribasidagi kamchilik va nuqsonlarni ayrim verbal/noverbal vositalar yordamida to'ldirish, kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar bo'lgan paytda savolni takroran so'rash, sukut saqlash va boshqalar orqali murakkab vaziyatlardan uddaburonlik bilan chiqib ketish qobiliyatini nazarda tutadi.

**O'quv-bilish kompetensiyasi** ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olishida til va til orqali madaniyatlarini o'rganishning kompetensiyalar yig'indisi bo'lib, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan mantiqiy, metodologik va umumta'lim vazifalarni o'z ichiga oladi.

Sanab o'tganlarimiz umumiy tarzda pragmatik kompetensiya, deb nomlanadi. Yuqorida aytilganidek, bugungi kunda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar asosan lingvistik kompetensiyani rivojlantiradi. O'quvchilarning lingvistik kompetensiyasi ularning til bo'yicha olgan bilimlari, bu bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmasi va nutq hosil qilish malakasidir. O'quvchilarga til qurilishi bo'yicha berilgan bilimlar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilsa, bu ularning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilgan bo'ladi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish vazifasi juda muhim bo'lib, bu ikkala tushunchaning mazmun-mohiyati turlicha hisoblanadi. Biroq ular bir-birini to'ldirib ham boradi. Milliy o'quv dasturiga ko'ra, o'quvchiga berilayotgan bilim til qurilishiga doir bo'lsa, bu uning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilgan bo'ladi. Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish uchun xizmat qilmagan bilimlar, lingvistik kompetensiya tarkibiga kiritilmaydi. Misol uchun urg'u mavzusini oladigan bo'lsak, chetdan o'zlashgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qoidalari o'quvchilarning nutqiy malakasini rivojlantiradi. Ammo o'zbek tilida so'z urg'usining oxirgi bo'g'inga tushishi yoki ayrim qo'shimchalarning so'z oxirida urg'u olmasligi haqidagi bilimlar lingvistik kompetensiya tarkibiga kirmaydi. Chunki bu bilimlar malakaga aylanmaydi. O'quvchi ularga ega bo'lmasa ham, tegishli o'rinlarda so'z bo'g'inlariga urg'u berishda xato qilmaydi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklaridagi bir qancha mavzular o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan bu darsliklar o'zining zamonaviyligi, o'quvchilarda nutq malakalarini shakllantirish imkoniyatining kengligi, ta'limga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni talab qilishi bilan ajralib turadi. Mazkur darsliklar o'quvchilarning tafakkurini boyitish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish, mavjud muammolar yuzasidan har tomonlama mulohaza yuritish, o'z fikrini erkin bayon qilish, og'zaki

va yozma nutq mazmunini ongli tushunish, matnni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qolaversa, bugungi kunda boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida ham o'quvchilarning lingvistik kompetensiya (fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis)ga doir mashqlar berilgan. Masalan, 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 2-qismidagi "Vaqt qadri" deb nomlangan bo'limdagi "Donishmand soat" mavzusida qo'sh undoshlarini topishga doir savol va topshiriqlar berilgan. Bunday savol va topshiriqlarni biz darsliklarda ko'plab uchratishimiz mumkin.

Yuqorida kompetensiya, lingvistik kompetensiya, uning turlari, paydo bo'lish tarixi haqida to'xtalib o'tdik va qisman ma'lumotlar berib o'tdik. Hozir esa yangi milliy o'quv dasturiga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerakligi haqida to'xtalib o'tamiz.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi. O'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi. O'quvchi lug'atining boyishiga, birinchi navbatda, uni o'rab olgan muhit, tabiat, insonlar hayoti, o'qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotlari asosiy manba vazifasini bajaradi.

**XULOSA.** Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish juda muhim jarayon hisoblanadi. Chunki o'quvchida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish orqali unda tilning leksik birliklari va grammatik tuzilishi haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, to'ldirish bilan bir vaqtda o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Bu dars davomida sekinlik bilan rivojlanib boradigan jarayon hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi (ona tili). – Toshkent, 2021. 252-bet.
2. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qurunov, Shokir Tursun Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2021.
3. Omonova Dildora N. Q. Conceptual Bases of Linguistic Competences in Updating the Content of Education //International Journal of Trend in Scientific Research and Development. – 2022. – T. 6. – №. 6. – C. 1546-1550.
4. Omonova D.N. LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA TA'LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 182-183.

Zarina Sayliyeva,  
Buxoro davlat universiteti  
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

## IBROHIM HAQQULNING FIKR AYTISH MAHORATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk so'z san'atkori, benazir ijodkor, mohir munaqqid, Hazrat Alisher Navoiy ijodini chuqur tadqiq etgan zabardast olim, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqul ijodiy faoliyatiga oid fikr va mulohazalar, olimning yillar mobaynida amalga oshirgan mehnatining jamlanmasi ifodalangan.

**Kalit so'zlar.** Ibrohim Haqqul, tasavvuf, ishq, navoiyshunoslik, "Navoiyga qaytish" asari.

Alisher Navoiy – chin ma'noda daho san'atkor. Ulug' shoirning har bir asari insonparvar va hassos inson ko'nglining haqiqatlarini ifoda etadi. Bu ko'ngilda odam va olam ishq, hayot zavqi, yashash zavqi, tabiat va go'zallik muhabbati teran tomir otgan.

Alisher Navoiy yashagan davr bilan zamonamiz o'rtasida besh asrdan ziyod vaqt masofagina emas, juda katta ijtimoiy ong masofasi, adabiy til, dunyoqarash, hayot tarzi masofalari ham mavjud.

Bugungi kun o'quvchisiga Navoiy asarlarini tushuntirib yetkazish biroz muammo. Shuning uchun ulug' shoir asarlarini sharhlash, talqin va tahlil qilish zarurati tug'iladi. "Bilgan gapirmaydi, gapirgan bilmaydi" [9,3].

Yetuk adabiyotshunos Ibrohim Haqqul "Navoiyga qaytish" asarining muqaddimasini ushbu so'zlar bilan boshlagan: "Adabiyotni bir olam deb bilsak, unda sir-asror behisob, uni cheksiz ummon desak, hali biz bilgan, o'rgangan qismi tomchilarga teng. Insoniyat o'zini anglashni, idora etishni boshladiki, adabiyot, tahlil va talqin masalasiga e'tibor qaratib kelmoqda.

Saksoninchi yillarning ikkinchi yarmidan Ibrohim Haqqulning adabiy jarayonda faol ishtirokini kuza-tish mumkin. U zamonaviy she'riyatga bag'ishlangan qator maqolalar yozgan. Shuningdek, Abdulhamid Cho'lponning "Bahorni sog'indim" (1988), Xoja Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" (1991) majmuasini, shogirdi Sayfiddin Rafiddinov bilan hamkorlikda "Boqirg'on kitobi" (1991), "Me'rojnomasi" (1995) kabi uzoq muddat nashr etilmay kelingan asarlarni o'quvchilarga yetkazgan.

Umrining so'nggi yillarida u "Ahmad Yassaviy", "Kim nimaga tayanadi?", "E'tiqod va ijod", "Tasavvuf saboqlari", "Taqqir va tafakkur", "Meros va mohiyat" kabi risola va kitoblarini chop ettirgan. Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Abdurahmon Jomiy, Vilyam Shekspirday daho san'atkorlarning o'zbek tiliga o'girilgan kitoblariga salmoqli so'zboshi va so'ngso'zlar yozgan. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-ma'noiy" sidan tanlangan shohbaytlarning alohida kitob holida chop etilgani ham e'tiborga molik.

Uning ayrim maqola va kitoblari turk, uyg'ur, ozarbayjon, tojik va rus tillariga tarjima qilinib, nashr

etilgan. So'nggi yillarda olimning "Navoiyga qaytish" deb nomlangan 4 jildlik kitobi bosmadan chiqdi. Ustoz Ibrohim Haqqul "Navoiyga qaytish" kitobida "Navoiyni anglash mashaqqati", "Navoiyga qaytish", "Tasavvuf va Navoiy she'riyatini munosabatiga doir", "Ishq va komillik jazbasi", "Mansur Xalloy va Navoiy", "Oqillik va g'ofilik", "Teranlik sadosi", "Ma'ruf va orif" va boshqa qator g'azallarni tahlil etadi.

Ibrohim Haqqul o'z ijodiy faoliyati bilan adabiyot ixlosmandlari va Navoiy ijodi shaydolari qalbida o'chmas iz qoldirgan. U chin ziyoli shaxs sifatida tarixda qoldi. Ibrohim Haqqul mumtoz adabiyotni o'quvchi ko'ngliga singdirish yo'li va usulini topdi – uning muvaffaqiyati va kitoblarining shuhrati shunda edi. Biz Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, Hazrat anglatmoqchi bo'lgan fikrlarni tushunishga harakat qilamiz, biroq mohiyatni to'liq anglamaymiz. Ibrohim Haqqul esa qariyb yarim asrlik umri mobaynida hazrat bilan tinmay muloqot qildi, zamon-dosh va adabiy yo'ldoshlarni Navoiy dunyosiga chor-ladi.

Alisher Navoiy ijodini ko'plab olimlar o'rgangan. Biroq ular orasida, hech shubhasiz, Ibrohim Haqqulning izlanishlari alohida ajralib turadi. Bu olimning xizmati mumtoz adabiyot tarixini yoxud Navoiy ijodini chuqur bilganigina emas, balki boshqalardan farqli ravishda biz tasavvurimizga sig'dira olmagan haqiqatni, Navoiyda ham oddiy insoniy dardlarni ko'ra olgani, uning ijodini bugungi zamon dardi bilan bog'lay olganligidir. «Navoiy shohning ham, gadoning ham, oshiqning ham, orifning ham – hamma-hammaning shoiri. Navoiy she'riyatidan kim nimani axtarsa, shuni topadi», – deya ta'kidlaydi olim.

Bir umr Navoiy ijodi tadqiqi bilan shug'ullangan, so'z mulkining sultoni asarlarini qayta-qayta mutolaa qilib, ularning mazmun-mohiyatini chaqqan Ibrohim Haqqulning bir qancha fikrlari hikmat darajasiga yetgani bejiz emas. Hozirgi navoiyshunoslikning ob-havosini belgilab kelayotgan olimlardan biri, shubhasiz, Ibrohim Haqqul edi. Zero, bugungi o'zbek navoiyshunosligini Ibrohim Haqqul faoliyati va tadqiqotlaridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz Hazrat Navoiyni boshqa xalqlarga tanitmoqdan ham ko'ra,

avvalo, o'zimiz chuqur anglash haqida ko'proq o'ylashimiz zarur. Chunki biz hali Navoiy ijodini kerakli darajada o'qib-o'rganganimiz yo'q. Sho'ro davrida mumtoz adabiyotimizga beryoqlama va yuzaki munosabat ulug'larimizni to'laligicha, munosib o'rganishga imkon bermadi. Navoiyni puxta bilish uchun jiddiy va maxsus tayyorgarlik ko'rish lozim. Alisher Navoiy hamma narsani erkinlik va vobastalikda talqin qilgan, inson qismati bilan bog'liq har qanday haqiqatning istiqbolini tafakkur hurligida ko'rgan. Demak, tuyg'uda, ruhda, ko'ngil va tafakkurda erkinlikni qaror toptirmay turib, Navoiy asarlarining asl ma'no-mohiyatini chaqishga urinish befoyda. Ibrohim Haqqul Navoiy dahosini anglagan, uni o'zida yashatirgan, o'zida kashf etgan ham olim, ham yetuk shaxs edi.

Bugungi kunda adabiyotga munosabat haqida Ibrohim Haqqul: "Yosh avlod faqat Navoiy asarlaridan emas, umuman, mumtoz adabiyotimiz chashmalaridan bebahra qolayotgani juda tashvishlanarli. Ahvol shu zaylda davom etaversa, yaqin besh-o'n yilda o'tmish adabiyotimizga mutlaqo ehtiyoj sezdirmaydigan, basirati ko'r, demakki, go'zallik tuyg'usidan mahrum, moddiy dunyo g'am-tashvishidan boshqasini tan olmaydigan yoshlarning butun bir avlodi vujudga kelishi hech gap emas", – deb kuyunib gapirgan edi. Alisher Navoiy hayoti, adabiy, ilmiy merosini o'rganish – oliyanob ish. Uning hayoti, ibratli faoliyati, merosiga qiziqish XV asrdan boshlangan. Navoiy asarlari tirikligida mashhur xattotlar tomonidan ko'chirilgan. Ammo navoiyshunoslik XX asrda o'zgacha shakllandi. Chunki Navoiy to'g'risidagi bahs yuritgan hech bir olim sho'ro mafkurasi chizig'idan chetga chiqa olmadi. Shunday murakkab vaziyatda navoiyshunoslik sohasida yangicha yo'nalish, yangicha tahlil usuli va yangi so'zni qo'rqmay ayta olgan olimlardan biri Ibrohim Haqqul edi. Ibrohim Haqqulning 50 yillik ijodiga xos xususiyatlardan biri shu bo'ldiki, u biror marta ko'ngli buyurmagan ijodkor yoki bo'sh, sayoz kitob to'g'risida maqola yozgani yo'q. Hamisha haqiqat bilan qalam tebratishni o'ziga dasturulamal qilib oldi. Ustozning bir suhbatida aytgan quyidagi fikrlari u kishining butun shaxsiyatini ochib bergan: «To'g'ri gap gapirishdan cho'chishni yo'qotish kerak. To'g'ri gap uchun jazo olinmaydi, degan xulosaga kelish kerak. Haqiqatning yuki nihoyatda og'ir, ko'pchilik ko'tarolmaydi uni. Haqiqatni aytish uchun, haqiqatga kurashish uchun, to'g'risini aytaymi, kafan yelkada bo'lishi kerak» [25].

Yuqorida nomi tilga olinganlar mumtoz adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo'shdi. Lekin hamma gap shundaki, zamon zayliga ko'ra bu masala talqinida ular muayyan nuqtaga kelib mafkuraviy cheklanish va zug'um tufayli undan nariga o'tolmadi. Mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining buyukligini to'liq ko'rsata olmadi. Bu maqsad yo'lida sho'ro mafkurasi singib ketgan edi. Ibrohim Haqqulning bu masalaga yuqoridagi qarashlar spektoridan farqli jihati shunda bo'ldiki, u, birinchidan, tasavvuf shoirlarining cheklanganligini, zaif tomonlarini ko'rsatuvchi salbiy xususiyat emas, aksincha, uning buyukligini va qudratini belgilovchi eng muhim omil, asos ekanligini ko'rsatib berdi. O'zbek tasavvufshunosligi istiqloq tufayli qaror topdi, uning ilmiy-amaliy tamal toshini qo'yishda N.Komilov, O.Usmon va boshqalar qatorida Ibrohim Haqqul ham katta hissa qo'shdi. Uning Ahmad Yassaviy, Fariddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Najmiddin Kubro, Xoja Orif Mohitobon, Xoja Bektoshi Valiy kabi mutasavviflar ijodiga oid, shuningdek, Alisher Navoiy va o'zbek mumtoz adabiyotini tasavvufiy qarashlar prizmasidan o'tkazgan holda yangicha talqin etish yo'nalishidagi tadqiqotlari muhim rol o'ynadi. Ibrohim Haqqulning Alisher Navoiy hayoti va ijodi tadqiqiga bag'ishlangan asarlarisiz hozirgi o'zbek navoiyshunosligi kemtik bo'lib qolardi. Chindan ham, bugun Ibrohim Haqqulni o'qimay turib navoiyshunos bo'lish mumkin emas. Akademik Vohid Zohidov Navoiy haqida o'zga cha pafos bilan yozar edi. Afsuski, olimning yozganlarida ham o'sha davr siyosati aks etardi, ammo maqsad qanday qilib bo'lmasin, Navoiyni, uning asarlarini zamonga moslab tushuntirish bo'lgan. "Insonga go'zal mohiyatni Alloh bergan. Alloh bergan narsani qaytarib olib yoki o'zgartirib bo'lmaydi. Inson Allohga qancha yaqinlashsa, u shuncha bashariy irodasidan kechib yoki uzoqlashib ilohiy irodaga erishadi. Va ilohiy irodaga erishgan odam bu dunyoning g'avg'olari, hasad va xusumatlaridan juda baland bo'ladi. U hech narsadan qo'rqmaydi, chunki uning suyanadigan asosiy kuchi Allohga aylanadi", – degan edi Ibrohim Haqqul.

Darhaqiqat, ustoz hayot yo'llarida hamisha Alloh taoloning qudratiga, madadiga tayandi. Hech kimga yalinqanmadi, yalitoqlanmadi. Ilmga sadoqati va shu yo'ldagi sobitqadamligi ijodkorni qalblarimizga mangu muhrladi. Ushbu misralar bilan so'zimizni yakunlaymiz:

*Shunday yashaginki, ketar chog'ingda,  
Hamma giryon qolsin, sen borgil shodon.*

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Navoiy Alisher. Muqammal asarlar t'plami. 20 tomlik. 3-tom. Xazoyin ul-maoniy. Faroyib-us-sifar. – Toshkent: Fan, 1988, 616-b.
2. Navoiy asarlari lu'fati. Tuзуvchilar: П.Шамсиев, С.Иброхимов. – Toshkent: Adabiyet va san'at, 1972, 784-b.
3. Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали.//Шарқ юлдузи, 1987, № 3, 175-179-б.
4. Куръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Toshkent: Чўлпон, 1992. 67- б.
5. Куръони карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли лу'фати. – Toshkent: Adabiyet va san'at, 1971. 277-б.
6. Хайитметов А. Navoiy даҳоси. – Toshkent: Adabiyet va san'at, 1970, 173-б.
7. Ҳаққул И. Шеърят – руҳий муносабат. – Toshkent: Adabiyet va san'at, 1989, 240-б.
8. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. – Toshkent: Adabiyet va san'at нашриёти, 1991, 184-б.
9. Ҳаққулов И. Navoiyга қайтиш., 1-китоб. – Toshkent: 2007.



Dilora Sidiqova,  
 Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

## MASOFAVIY TA'LIM TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada masofaviy ta'lim tushunchasi va uning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Masofaviy ta'limning afzalliklari va bugungi kundagi o'ziga xos jihatlari ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim xizmatlari, texnika vositalari, axborot almashinuvi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi asnosida masofaviy ta'lim ham rivojlanmoqda. Talabalarning ishdan ajralmagan holda ham nazariy, ham amaliy bilimlarni egallab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" PF-5847-sonli farmonida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish belgilandi:

- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, online, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

- masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarining oliy ta'limni tamomlanganidan so'ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo'lga qo'yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatni kengaytirish.

"Masofaviy ta'lim" tushunchasi ta'lim o'quv axborotlarini oluvchiga masofada turib (sun'iy yo'ldosh, televideniye, kompyuter tarmoqlari va boshqalar orqali) yetkazib berishni ta'minlovchi yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan maxsus ta'lim xizmatlari to'plamini ifodalaydi [5].

Masofaviy ta'lim maxsus informatsion (axborot) tizimga asoslanadi, u o'qitishning yangi texnologiyasidir. Ta'limning muddati, joyi, vaqtini talabaning o'zi tanlaydi. Masofaviy ta'limning xarakterli xususiyati modullilik, iqtisodiy samaradorlik, turli xil axborotlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligida [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonining 46-maqsadida shunday deyilgan: "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirishda oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim shakllari, shu jumladan, masofaviy ta'lim shakli bo'yicha ham qabul kvotasini shakllantirish (212), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyatini yanada kengaytirish, bunda bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish (213) kabi maqsadlar belgilanib olindi.

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda, har bir oliy ta'lim muassasasi masofaviy ta'lim shaklini joriy etishi zarurligi aniq belgilab qo'yilgan.

Masofaviy o'qitish bu – maxsus psixologik-pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar muhitida, bir-biridan uzoqda bo'lgan qatnashchilarning bilvosita aloqasiga asoslangan holda bilim, malaka, ko'nikma va ularni egallash usullarini uzatish va o'zlashtirish jarayonidir.

Masofaviy ta'limning o'ziga xos muhim jihatlari:

- ta'lim oluvchining axborotni yaratuvchi va uni yetkazuvchi manbadan uzoqligi;

- texnologik jihatdan muloqot muhiti, shuningdek, psixologik va pedagogik jarayon muhitlarining o'ziga xosligi;

- masofaviy o'qitish jarayoni qatnashchilarning axborot texnologiyalari vositalari yordamidagi sinxron va asinxron muloqotiga asoslangani;

- ta'lim oluvchilarning ta'lim dasturlarini tanlash va o'qish trayektoriyalarini belgilashdagi erkinligi;

- ta'lim oluvchining, asosan, mustaqil ravishda, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'zi ustida astoydil ishlash i [3].

Masofaviy ta'lim shaklida talabalar fanlarni o'qituvchi nazorati ostida mustaqil ravishda o'zlashtiradi. Masofaviy o'qish orqali ular vaqt va mablag'ni iqtisod qiladi. Ba'zi bir imkoniyati cheklangan talabalar uchun ham masofaviy o'qish juda qulaydir.

Masofaviy ta'limning maqsadi quyidagilardan iborat:

- mamlakatdagi barcha hududlar va chet eldagi fuqarolarga birdek ta'lim olish imkoniyatini yaratib berish;

- yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik salohiyatidan foydalanish evaziga ta'lim berish sifati darajasini oshirish;

- asosiy ta'lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatini yaratib berish;

- ta'lim oluvchilarning ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ta'lim muhitini kengaytirish;

- uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini yaratish;

- ta'lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipial ta'lim darajasini ta'minlash [4].

Masofaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari hamda zamonaviy o'qitish vositalaridan samarali foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish-

da asosiy omillardan biri hisoblanadi. Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim tizimini amalga oshirishda muammolarga duch kelinganda yoki shart-sharoit taqozosi bilan qo'llaniladi. Bu jarayon ma'lum muhitda ta'lim samaradorligini oshirishga zamonaviy texnologiyalardan yetarlicha foydalanishga zamin yaratadi [5].

Masofaviy ta'lim tizimida talabalarning axborot texnologiyalardan to'g'ri foydalanishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Masofaviy ta'limda o'qituvchi va talaba foydalanadigan texnika vositalari yordamida ta'lim mazmunini taqdim etish, talabalarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish va boshqarish vositalari bajariladi. Ma'lum bir o'quv-biluv faoliyati bosma material, audio yoki video material shaklida taqdim etilishi mumkin. Masofaviy ta'lim vositalari, jumladan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- elektron darslik, qo'llanma, ma'lumotnoma adabiyotlar;
- kompyuter tarmog'idagi o'quv-metodik material;
- odatdagi va multimedia mahsuloti shaklidagi kompyuter ta'lim tizimlari;
- audio, video o'quv axborot materiallari;
- masofaviy elektron-axborot kutubxonalari, masofaviy bilim va axborot bazalari va boshqalar [2].



Masofaviy ta'lim shaxsni o'zini-o'zi rivojlantirishiga va kelajakda zarur mutaxassis bo'lishiga yo'naltiradi. Masofaviy ta'limni joriy qilishning modelini belgilab olish strategik rejalashtirish nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi. Masofaviy ta'limga o'quv, o'quv-uslubiy, o'quv-me'yoriy va didaktik materiallarini tayyorlash, ularni optimallashtirish, sistemalashtirish, dizayn, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil qilish ishlari ilgaridan tanlangan model loyihalar asosida amalga oshiriladi. [3]

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni.
2. M.Ochilov, N.Ochilova "Oliy maktab pedagogikasi" darsligi. – Toshkent, 2008. 78-bet.
3. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova "Pedagogika nazariyasi va metodikasi" darsligi. –T.: "Fan va texnologiya" 278-, 464-betlar.
4. Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, Sh.R.Mirzayeva, M.M.Qo'ziboyeva "Ta'lim texnologiyalari" darsligi. –T.: «IJODPRINT», 2020. 115-, 310-betlar
5. Nazarov J. X. "Bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari". Dissertatsiya – T.: 2014. 41-42-betlar.
6. Shavkatovna, S. D. (2021). THE IMPORTANCE OF DISTANCE LEARNING IN THE TEACHING OF" METHODS OF TEACHING MATHEMATICS".

